

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

qo'lyozma huquqida
UDK

XOLIQOV JAHONGIR

**PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA YoShLARNI
MANZARA ISHLASHGA O'RGATISH METODIKASI (QISHLAQ
MANZARASI MISOLIDA)**

5 A 110 800 Tasviriy san'at

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Magistratura bo'limi boshlig'i
P.f.n., dots. M.Esonov
Kafedra mudiri p.f.n., professor
B.Baymetov_____
Ilmiy rahbar:p.f.n.,
professor G'.Abdurahmonov_____

Toshkent – 2013

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti
Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi kafedrasida bajarilgan

Ilmiy rahbar p.f.n., professor B.Baymetov

Maslahatchi Toshkent shahar Dizayn kolleji o'qituvchisi U.Xakimov

Rasmiy opponentlar p.f.n., dots., Tolipov
p.f.n., dots. O'.Nurtoev

Dissertatsiya 2013 yil « » ____ soat da _____ magistri
darajasini olish uchun Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti
magistratura bo'limida Davlat Attestatsiya Komissiyasida himoya qilinadi

Manzil: Toshkent shahar, Yusuf Xos Xojib ko'chasi 103-uy,

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika
universiteti kutubxonasida tanishish mumkin.

Avtoreferat 2013 yil « ____ » da topshiriladi.

Davlat Attestatsiya Komissiyasining kotibi _____

MUNDARIJA

KIRISH. Mavzuning dolzarbligi

I. BOB. OLIY PEDAGOGIK TA'LIMNING TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TALABALARNI MANZARA ISHLASHGA O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI.

I.1. Talabalarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda manzara ishlash mashg'ulotlarining o'rni va ahamiyati.

I.2. Tasviriy san'at darslarida yoshlarni manzara kompozitsiyasini ishlashga o'rgatish hamda talabalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida.

1 bob bo'yicha xulosa

II bob. OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI MANZARA KOMPOZITSIYASINI ISHLASHGA O'RGATISH METODIKASI.

II.1. Talabalarning ixtisoslik fanlaridan auditoriyada olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini ijodiy jarayonda qo'llash hamda tasviriy san'atdan malakali kadrlar tayyorlash metodikasi.

2.2. Kasb-hunar kollejlarning tasviriy san'at darslarida natyurmortni metodik izchillikda bosqichli tarzda tasvirlash orqali o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlari rivojlanish.

2 bob bo'yicha xulosa

III. BOB. PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI MANZARA ISHLASHGA O'RGATISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAJRIBA

III.1. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uni amalga oshirish metodikasi.

3.2. Tajriba-sinov ishlari natijalari va ularning tahlili

Umumiy xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Ilovalar.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab barcha sohalarida, ayniqsa, ta'lim tizimini isloh qilish borasida juda katta ijobiy o'zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 1997 yilning 29 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" buning yaqqol misolidir. Ushbu qonunlarda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda tarbiyaning boshqa turlari qatorida estetik tarbiyaning va uning tarkibidagi tasviriy san'atning ahamiyatiga katta e'tibor qaratilgan. Zero, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi"¹.

Ta'limning umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchilarga tasviriy san'at asoslarini o'rgatish oliy ta'limda kasbiy shakllangan etuk tasviriy san'at o'qituvchilari zimmasiga tushadi. Bunda juda ko'p narsa umumiy o'rta ta'lim turi uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayoni va uning mazmuniga bog'liqdir. Olib borilgan kuzatish ishlari shuni ko'rsatdiki, hozirda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga tasviriy san'at fanidan saboq berayotgan o'qituvchilarining kasbiy bilimlari zamon talablari darajasida shakllanmagan.

Yurtboshimiz Islom Karimovning "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak"², – degan so'zlarini inobatga oladigan bo'lsak, oliy pedagogik ta'lim jarayoni oldiga pedagogik kadrlarni tayyorlashni tubdan yaxshilash vazifasini qo'yadi. Shu bilan birga talabalarning mustaqil ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, ularda egallayotgan kasblariga oid mavjud muammolarni mustaqil hal qilishga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishni taqozo qilmoqda. Xususan, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda barcha fanlar bilan bir qatorda ayniqsa, ixtisoslikning rangtasvir, kompozitsiya fanlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч.—Т: "Маънавият", 2008. – 176 б.

² Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Шарқ. 1997. 64 бет.

tayyorgarligini ta'minlovchi tasviriy san'at turkumidagi barcha fanlar, xususan ixtisoslik fanlar blokiga kirgan akademik qalamtasvir asoslari va kompozitsiya, dasgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya fanlarining nazariy asoslarini, amaliy jihatlarini mukammal o'rgatish va uni o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amalda tadbiq qilish mazkur kasb egalarini kasbiy va pedagogik faoliyatga puxta tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Muamoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynovchi sub'ektlar sirasida o'qituvchi va uning roli yuqori qadrlangan. Bizning yurtimizda asrlar davomida o'qituvchi shaxsiga nisbatan alohida hurmat ko'rsatilgan. O'z navbatida, uning kasbiy tayyorgarligiga katta e'tibor berilgan va unga yuksak talablar qo'yilgan. Ana shunday talablar mohiyati ilk yozma manba sanaluvchi "Avesto", Islom dinining muqaddas manbalaridan biri bo'lgan "Hadis", shuningdek, ulug' mutafakkirlar— Abu Nasr al Forobiy, Aburayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muslixiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqa ko'plab allomalar tomonidan yaratilgan asarlar mazmunida ham o'z ifodasini topgan.

Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsini kasbiy tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayonida kasbiy madaniyatni milliy qadriyatlar asosida shakllantirish, pedagogik turkum fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik madaniyatini tarbiyalash, shuningdek, pedagogik mahoratni qaror toptirish masalalari A.Aliev, X.Abdukarimov, A.A.Verbitskiy, V.K.Dyachenko, D.O.Ximmataliev va boshqalar ishlarida yoritilgan bo'lsa, M.Yu.Xakimova, B.X.Raximova, E.I.Passov hamda T.Qudratovlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida bo'lajak o'qituvchilarda muloqot va nutq madaniyatini shakllantirish borasida so'z yuritiladi.

Oliy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsini shakllantirish o'z-o'zini boshqaruvi asosida o'qituvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish va kasbiy shakllanganlik

tashxisi masalalari N.A.Muslimov M.A.Abdullajonov, O.A.Abdulina, A.A.Akbarov, M.M.Axmedjonov, L.A.Regushlar tomonidan yaratilgan asarlarda o'z ifodasi va echimini topgan.

Ta'lim tizimi uchun, xususan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash muammolari bilan bog'liq bo'lgan texnologik yondashuvlar B.S.Kuzin, A.A.Melik-Pashaev, B.M.Nemenskiy, B.Oripov, N.Oydinov, Z.N.Novlyanskaya, N.N.Rostovtsev, T.Ya.Shpikalova, B.P.Yusov kabilarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Biroq, globallashuv jarayonida, bilim olish shakl va usullari yangi texnologiyalar bilan boyitilayotgan bir davrda yangi tadqiqotlar ko'proq qiziqish uyg'otadi. Shu ma'noda keyingi yillarda bajarilgan dissertatsiya ishlarida bu muammoning echimida yangi ilmiy xulosalar taqdim etib borilmoqda. Xususan, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy shakillanishi (V.N.Bannikov, 2009), tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy kompetentligini shakillantirish jarayonini uzviyligini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlari (N.N.Dolgix, 2005) kabi tadqiqotlar bizning izlanishlarimiz uchun muayyan ahamiyat kasb etsa-da, ularda tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik o'quv fanlari misolida muammo hal etilmagan. Faqatgina D.E.Starchenko tomonidan oliy pedagogik o'quv yurtlarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini rangtasvir ob'ektlarini idrok etishga o'rgatish (2009), A.P.Drozdov tomonidan esa tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash misolida qalamtasvir darslarida talabalarda badiiy idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish (2007) muammolari amalga oshirilayotgan tadqiqotimiz uchun metodologik yo'llanma vazifasini o'taydi. Bizning ilmiy tadqiqod ishimizga keng aloqador bo'lgan ishlardan B.Boymetovning bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarin o'zbek milliy xalq amaliy san'ati namunalari asosida tayyorlash, J.Darmenovning Qoraqolpog'iston Respublikasi milliy san'ati vositasida tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlashning nazariy asoslari, shuningdek, tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik jihatlari A.Sulaymonov tomonidan, shuningdek respublikamiz olimlari tomonidan ko'plab shu kabi ilmiy ishlar tadqiq etilgan bo'lsa-da, aynan ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasini

ishlab chiqish orqali tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash masalasi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. O'zbekiston sharoitida bu omilning o'ziga xos xususiyatlari, milliy-tarixiy negizlari hamda zamonaviy yondashuvlari mavjudligi bois ham bu yo'nalishda maxsus tadqiqot o'tkazishni taqazo etadi. Shu va boshqa omillar dissertatsiya mavzusini "Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi" deb nomlashga asos bo'ldi. Mazkur muammoni tadqiq qilishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan va boshqa mualliflarning ilmiy asarlari, monografik kitoblari biz tadqiq qilmoqchi bo'lgan muammoni ham nazariy, ham amaliy mushohada qilishda katta amaliy yordam beradi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni joriy etish jarayonida uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish muammolarini tadqiq etish" yo'nalishi Davlat dasturi doirasida bajarilmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni manzara kompozitsiyasini ishlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti. Respublikamizda kadrlar tayyorlash milliy modelini amaliyotga tatbiq etish sharoitida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitish metodikasi.

Tadqiqot predmeti. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitishning nazariy va metodik asoslari.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni va qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitilish holatini o'rganish va tahlil qilish.

2. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

3. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitishning samarali shakl va vositalarini ishlab chiqish.

4. Qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning ko'rsatkich va mezonlarini ishlab chiqish.

5. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitish metodikasi bo'yicha metodik ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotda sinab ko'rish.

Tadqiqotning ilmiy farazi.

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash va yoshlarni manzara ishlashga o'rgatishda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitish samarali tashkil etilsa;

- qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitishga nisbatan qo'yiladigan talablarni asoslab berilsa;

- oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqilsa;

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitishning samarali shakl va vositalarini ishlab chiqilsa va uni amaliyotga joriy qilinsa;

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitish metodikasi bo'yicha metodik ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotda sinab ko'rilsa;

- qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning ko'rsatkich va mezonlari ishlab chiqish va yoshlarni manzara ishlashga o'rgatish.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot muammosiga bag'ishlangan ilmiy-metodik adabiyotlarni, jumladan, dissertatsiya ishlarini o'rganish va tahlil qilish; ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish; o'quv vositalari mazmunini

tahlil qilish; pedagogik kuzatish, qiyoslash, umumlashtirish, so'rovnomalar, suhbatlar, test sinovlari o'tkazish hamda o'zlashtirishning reyting tizimidan foydalanish; sinov darslarini o'tkazish; tadqiqot mavzusiga oid ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar asosida pedagogik tajribalar o'tkazish; olingan natijalarni matematik-statistika metod yordamida qayta ishlash hamda natijalarning ishonchliligi va asosliligini aniqlash.

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uzluksiz ta'lim tizimini va kadrlar tayyorlash jarayonini tashkillashtirish va boshqarishni belgilab beruvchi direktiv va me'yoriy hujjatlar; barkamol shaxs rivojlanishi hamda uning kasbiy shakllanishi; shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonuniyatlari; nazariya va amaliyotning birligi; tizimlilik; jarayon va hodisalarning dialektik taraqqiyoti determinatsiyasi; ilmiy bilishning birligi; ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi g'oyalari xizmat qilgan.

Tadqiqotning tajriba-sinov bazasi: tadqiqotning asosiy tajriba-sinov ishlari Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti, Respublika rassomlik kollejida amalga oshirildi.

Ilmiy tadqiqot ishlari uch bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (2011-2012 yillar): tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar va dissertatsiyalarini o'rganish va tahlil qilish, pedagogik ish tajribalari bilan tanishish, o'quv jarayonini kuzatish, tadqiqot mazusining asosnoma-rejasini ishlab chiqish, me'yoriy, metodik, huquqiy, joriy yo'l-yo'riq hujjatlari bilan tanishish. Tajriba-sinov maydonlarini belgilash, mavzu yo'nalishi bo'yicha pedagogik tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqot natijalari haqida maqolalar tayyorlash va e'lon qilish.

Ikkinchi bosqich (2012-2013 yillar): pedagogik tadqiqotlarni yanada faollashtirish, muhim xulosalar chiqarish, tajriba-sinov maydonlarida shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarini olib borish va o'tkazish, tadqiqot ishi mazmuniga aniqliklar va qo'shimcha materiallar kiritish, tajriba-sinov ishlari natijalarini uslubiy tavsiyanomalar, ishlanmalar va ilmiy maqolalarda yoritish,

tajriba-sinov ishlari natijalari matematik-statistik metodi orqali qayta ishlab chiqish, ishlab chiqilgan metodika bo'yicha olingan natijalarni umumlashtirish, dissertatsiya holiga keltirish va himoyaga olib chiqish belgilangan.

Tadqiqot ishining kutilayotgan ilmiy yangiligi:

- Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'qitishga nisbatan qo'yiladigan talablarni asoslash;
- Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqilishi;
- Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ixtisoslik fanlarini o'qitishning samarali shakl va vositalarini ishlab chiqilishi;
- ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning ko'rsatkich va mezonlari ishlab chiqilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati:

Ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning samarali shakl va metodlari ishlab chiqiladi hamda ilmiy jihatdan asoslanadi, tadqiqot mavzusi bo'yicha metodik tavsiyalar tayyorlanadi va tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar tayyorlanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha to'plangan tajribalar va olingan natijalardan oliy ta'lim muassasalari "Amaliy san'at" va "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot xulosalarining ishonchliligi va asoslanganligi olingan natijalarning pedagogika va psixologiya sohalarining fundamental asoslariga amal qilinganligi; tavsiya etilayotgan ilmiy-pedagogik ishlanmalarning metodologik asoslanganligi; tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos keluvchi ilmiy-zamonaviy metodlar qo'llanilganligida o'z ifodasini topgan.

Himoyaga quyidagi holatlar olib chiqiladi:

- Tasviriy san'at mashg'ulotlari jarayonida kompozitsiya ishlashni yanada takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim uchun malakali kadrlar tayyorlash;

- Tasviriy san'at mashg'ulotlarda yangi pedagogik texnologiyalar qo'llagan holda talabalarga manzara kompozitsiyasini ishlashga o'rgatishning samarali yo'llari ishlab chiqish;

- darsdan tashqari plener mashg'ulotlar mazmunini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik mezonlari asosida yaratilgan o'quv dasturi va rejalarini yaratish.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi. Magistrlik dissertatsiya kirish, uch bob, 6 ta fasl, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi betni tashkil etadi.

I. BOB. OLIY PEDAGOGIK TA'LIMNING TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TALABALARNI MANZARA ISHLASHGA O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI.

I.1. Talabalarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda manzara ishlash mashg'ulotlarining o'rni va ahamiyati.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohatlar jamiyatni yangilashda asosiy masala hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-marifiy taraqqiyoti talim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning bilim darajasiga bog'liq.

Yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol inson sifatida tarbiyalash uchun imkon beruvchi, mukammal ta'lim tizimini yaratish, uning samaradorligini oshirish bugungi kunning muhim masalalari hisoblanadi.

Ta'limning samaradorlik mezoni uning xalqaro talablarga javob berishi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi "Davlat standarti", Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlanib hayotga joriy qilinmoqda. Hamma fanlar qatori tasviriy san'at bo'yicha Davlat standarti, qo'yilgan talablar, maqsad va vazifalar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda san'at fakultetlarida mutaxassislik fanlar ya'ni qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya fanlari ta'lim jarayoniga qo'yilgan talablar asosida o'qitilib kelinmoqda. Manzara ishlash mashg'ulotlari esa bu fanlar mavzulari qatoridan joy olgan. Talabalarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda ushbu manzara ishlash mashg'ulotlarining o'rni ahamiyatlidir.

Dastavval manzara janriga murojat qiladigan bo'lsak, tasviriy san'at janrlari ichida bu janr o'ziga xosligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Manzara tasviriy san'atning qadimiy va muhim janrlaridan biri bo'lib, u boshqa janrlarda ishlangan asarlarda ham yordamchi ya'ni fon sifatida muhim o'rin tutadi.

Tasviriy san'at tarixidan bizga ma'lumki Qadimiy Xitoy tasviriy san'atida manzara janrining ayrim xususiyatlarini ifodalovchi asarlar yaratilgan. Xitoy rassomlari tabiatning turli ko'rinishlarini tasvirlashga harakat qilishgan. Bu manzara janrining ilik paydo bo'lish davri hisoblanadi.

Manzara janri Evropada XVI-XVII asrlarda rivoj topa boshladi. Bu borada Golland rassomlari yetakchilikni o'z qo'llariga olishdi. Ular tomonidan diqqatga

sazovor asarlar yaratila boshladi. Golland tasviriy san'at ustalari Yevropada birinchilardan bo'lib, saroy kibarlarining injiq talablariga qarshi chiqdilar, ular erkin ijod qilish imkonligini boshlab berdilar. San'atga bunday yangicha yondashishlar uning rivojiga, undagi tur va janrlarning kengayishiga ta'sir qildi. Tabiat ko'rinishi, undagi buyumlar, hayvonlar hayoti ular ijodining asosiy mazmuniga aylandi. Bu borada manzara janrining rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan rassomlar qatoriga Yan van Goyen, Yakob van Reysdal, Meyndert Xobbema va boshqalarni qo'shishimiz mumkin.³

Yan van Goyen (1595-1656) golland manzara san'atining etuk vakili hisoblanib, u real borliqni o'rganish asosida asarlar yaratgan. Birinchi bo'lib tonal rangtasvirda asarlar ishlagan, tabiatning nam havosini ustalik bilan ifodalgan.

Yakob van Reysdal (1626-1692) manzaralari o'zining his-tuyg'uga va turli kayfiyatlarga boyligi bilan boshqa manzarachi rassomlar asarlaridan ajralib turadi. U yaratgan asarlari mavzusi juda keng. Qishloq ko'rinishlari, tekisliklar va qumtepaliklar, o'rmon, botqoqliklar va dengizlar turli holat va ko'rinishlarda tasvirlangan. Ijodkor o'z faoliyatining eng gullagan davrida dramatik manzaralar seriyalarini ham yaratdi. Bu davrda Reysdal ko'pincha tabiatning avzoyi buzilgan holatlarini yuksak mahorat bilan tasvirladi. Osmonni qora bulutlar egallagan, bulutlar orasidan tushayotgan quyosh yorug'ligi uyer- buyerni yoritadi. Istododli rassom tabiatni har doim harakatda ko'rsatishga intilgan. Uning asarlarida daraxtlar shamoldan silkinayotganday, daryo va dengiz to'lqinlari mavj urayotganday tuyiladi. Bu xususiyat uning asarlariga dramatik ruh hadya etadi. Rassom ijodiga xos bu xususiyat "Qish", "Yahudiylar qabristoni", "Jo'shqin daryo" asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Meyndert Xobbema (1638-1709) ijodida o'rmon ko'rinishlari, suv tegirmonlari manzarasi alohida o'rin tutadi. Uning manzaralarida osoyishtalik hukm suradi. "Menddelxarnis yo'li" asarida perspektiva qonuniyatlaridan, fazoviy kenglik va cheksizlikni ishonarli tarzda aks ettiradi.

³ F. Абдурахмонов. Композиция. Ўқув қўлланма. «Иқтисод-молия» нашриёти, 2008 йил. 38 б.

XVII asr golland san'atida dengiz manzaralarini tasvirlash (marena janri) alohida o'rin tutadi. V. de Velde, X. Segers, Ya. Porsells va boshqa golland rassomlari shu borada samarali ijod qilib manzara janrini boyitdilar. XVII asr ikkinchi yarmida boshqa yurtlar, eng avvalo Italiya manzaralarini aks ettiruvchi golland rassomlar guruhi shakillana boshladi. Lekin Italiya manzaralarini ishlagan bu rassomlar ijodida chuqur his-tuyg'ular, hayotiylik yetishmas edilar.

Rossiyada manzara janrining rivojlanishi XVII asrga to'g'ri keldi. Bu davrga kelib, manzara janri mustaqil janrlardan biriga aylandi. Badiiy Akademiyada manzara janri bo'yicha rassomlar tayyorlaydigan sinfning tashkil etilishi esa bu janr rivoji uchun muhim ro'l o'ynadi. Rassomlar shahar me'morlik majmualari, shahardan tashqaridagi bog' va parklar manzaralarini ishladilar. Bu tasvirlarda rassomlarning ona vatanga bo'lgan samimiy muhabbati o'z ifodasini topdi. Ayniqsa, Petirburg va uning atrof ko'rinishi ko'pgina rassomlar tomonidan sevib ishlandi. Bu janrda salmoqli ijod qilgan Semen Fedrovich Shchedrin (1745-1804), Pavlovsk, Gatchina Pitergof ko'rinishlarini, park me'morligining o'ziga xos jihatlarini zo'r qiziqish bilan tasvirlagan bo'lsa, Fedor Yakovlevich Alekseev (1753-1824) Moskva, Varonej, Xerson shaharlariga atab ko'pgina asarlar yaratdi. Uning Petirburg saroylari, maydon va ko'chalari tasvirlangan suratlari o'zining hayotiyliigi va chuqur lirikasi bilan ajralib turadi.⁴

Tasviriy san'atda manzara tashqi olam go'zalligini bo'yoqlarda ifodalash orqali inson ko'ngliga ijobiy tas'sir etuvchi kuchga ega janrdir. U odamda eng ko'p hissiyot uyg'otuvchi janrlardan biridir. Yaxshi manzara asarlari o'zining nafosati, ta'sirchanligi bilan inson ruhiy, ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi. Shu bois manzara janri paydo bo'lgandan buyon rangtasvir ustalari tabiat ko'rinishlarining eng nozik, tasirchan, inson qalbiga tezda kirib bora oladigan tipik xolatlarini chuqur o'rganib, o'z mo'yqalami yordamida aks ettirishga harakat qilishadi. Asar yakuni esa rassomning tabiatga bo'lgan munosabatini o'zida mujassam etdi.

Manzara asarlarida rassom o'z ichki olami, aql zakovati, ta'surot va kechinmalarini turli tasvirlash vositalari orqali kuylaydi. Tamoshabin ko'z oldida tabiat obrizlarining jonli talqinini gavdalandiradi. I. Levitaning "Oltin kuz", I. Shishkinning "O'rmon yiroqliklari" kabi asarlari shunday asarlar jumlasidandir. Tasviriy san'atda manzara asarlari ijodkorda, tomoshabinda atrof-muhitga, ona yurt tabiatiga mehr-muhabbat tuyg'ularini tarbiyalovchi vosita ham bo'lib xizmat qiladi.

Manzara janri muhim ekanligi yuqorida ta'kidlaganimizdek har qanday mavzu va mazmundagi asarlarning uzviy bo'lagi sifatida foydalanilishi bilan ham izohlanadi. Ijodkor tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda ham manzara janriga bevosita murojat qiladi. Bunday hollarda manzara kartinada qo'shimcha fon¹ vazifasini o'taydi. V. Vasnesovning "Alyonishka" asari bunga misol bo'la oladi.

N. Kirmon, I. Levitan, I. Shishkin, O'. Tansiqboyev, N. Karaxan, G'. Abdurahmonov, A. Mominov, I. Haydarov va boshqa rangtasvir ustalari manzarani mustaqil badiiy mukammal asar sifatida yaratganlar.

Respublikamizda urushdan keyingi yillarda muntazam tarzda uyishtirilgan xorijiy davlatlarning badiiy ko'rgazmalari, O'zbekiston tasviriy san'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Yurtimiz rassomlari ijodida atrof olamni yangicha his qilish, talqin qilish hissiyoti paydo bo'la boshladi.

XX asrning 50-yillarida o'zbek rassomlari orasida manzara janrida O'rol Tansiqboyev yetakchilikni o'z qo'liga oldi. Uning ko'pgina asarlari qishloq xo'jaligi mavzusiga bag'ishlandi. "O'zbekistonda mart", "Paxtani sug'orish", "Ona o'lka", "Taxiatosh", "Issiqko'l" asarlari shular jumlasidandir. O'tgan asrning 50-70 yilarida M. Novikov, Volkov, O'. Tansiqboyev kabi keksa rassomlar O'zbekiston tabiati va ijtimoiy hayotida sodir bo'layotgan voqeliklarni kuyladilar. Z. Inog'omov, G. Ulko, N. Qo'ziboyev, K. Bagaduxov. M. Yesin kabi rassomlar O'zbekiston tabiatini aks ettiruvchi lirik manzara asarlarini yaratdilar.⁵

1970-80 yillarda G'. Abdurahmonov, F. Tohirov, R. Choriyev, Mudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Hozirgi kunga kelib ko'plab

izlanuvchan iqtidorli rassomlar A. Nuriddinov, A. Jalolov, A. Mirzaahmedov, O. Qozoqov, Z. Islomshiykov, A. Mo'minov, A. Mirsoatov kabilar mustaqil O'zbekistonning go'zal tabiatini madh etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.⁶

Ma'lumki manzara asarlarining o'zi mazmuni va mavzu jihatidan bir necha turga bo'linadi. Ular shahar ko'rinishlarini ifodalovchi, sanoat, tarixiy, romantik, liro-epik, intim, dengizni aks ettiruvchi va panoramali manzaralardir. Manzara asarlari mavzu va mazmun jihatdan rang-barang bo'lsada, ularning barchasiga ta'luqli umumiy qonuniyatlari ham mavjudki, bunday xususiyatlar kompazitsiya, qurilish asoslari, mutanosiblik, fazo va chiziqli perspektiva qoidalari, rang va tus borasida olib boriladiga jarayonlar va boshqalarda namoyon bo'ladi. Chunki manzara asari boshqa bir manzara asaridan mavzu va mazmun, voqeabandlik yuzasidan tubdan farq qilsada, mahorat darajasi, tasviriy vositalarning qo'llanilishi bo'yicha mushtaraklik kasb etadi.

Ma'lumki tasvirlash bilan shug'illanayotgan kishi hoh u talaba, yoki qiziquvchi o'quvchi bo'lsin albatta tasviriy san'atning manzara janriga befarq emas. Turli joylarda o'tkazilgan so'rovlar mutaxassislarning olib brogan tadqiqotlari shuni ko'rsatadikai aksariyat so'ralganlar o'zlarining sevimli janrlari sifatida manzara janrini tanlab ko'rsatganlar. Shuning uchun bugungi kunda tasviriy sanat darslarida manzara ishlash mashg'ulotlarining o'rni ahamiyatli deb hisoblaymiz. Tasviriy san'at darslarida manzara ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish orqali Oliy ta'lim muassasalari talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash va bu bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, ijodiy jarayonga tadbiq etishning samarador va zamonaviy metodlarini, tavsiyalarni ishlab chiqish ITI mizning asosiy maqsadi va vazifasi deb hisoblaymiz.

Tasviriy san'atda olingan har qanday nazariy bilim albatta amaliyotga tadbiq etilishi shart. Aks holda olingan bilim o'z ahamiyatini yo'qotadi. "Kimda-kim ilimni amaliyotsiz tasavvur etsa,- bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq

haydovchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi"-deya ta'kidlaydi Leonardo da Vinchi.⁷

Ma'lumki, pedagogik nazariyada uch xil metod bo'lib, asosan nutqiy, namoyish etish va amaliy ishdan iboratdir. Tasviriy san'at darslarida bu metodlarning har biridan o'z o'rnida yetarlicha foydalanildi. Rassom pedagoglar asosan amaliy ishdan keng miqyosda foydalaniladilar. Bu metod tarkibiga; mashq, rasm ishlash, ijodiy ish va o'yin kabi ta'lim berish usullari kiradi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari esa asosan rasm ishlashdan iborat, albatta bu jarayonni amalgam oshirishga mavzuga oid nazariy bilimlarni o'zlashtirmasdan erishib bo'lmaydi. Shuning uchun pedagog eng avvalo talabalarni mavzuga oid nazariy bilimlar bilan oziqlantirishi kerak. Shundagina amaliy topshiriqni bajarish jarayonini talaba tushinib, ongli ravishda yengil o'taydi.

Manzara ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish Pedagogik Oliy ta'lim muassasasi "San'at" fakulteti talabalarining nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakillantirishda muhim ahamiyatga ega. Manzara ishlash mashg'ulotlari tasviriy san'at darslarida asosan mustaqil ish sifatida qo'yilgan va III bosqich talabalarining kompazitsiya fanida bu mavzuga murojat etiladi. Tasviriy san'at yo'nalishi o'quv rejasida qalamtasvir, rangtasvir va kompazitsiya fanlari mavzulari asosan o'quv xonasida o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan mavzulardan iborat. Qalamtasvir, rangtasvir mashg'ulotlari asosan natyurmort va portret ishlashdan iborat. Shu bois talabalarda manzara ishlashga bo'lgan layoqad va ko'nikma pastligini kuzatishimiz mumkin.

Albatta bunday salbiy jihatlarning oldini olishga, tasviriy san'at darslarida manzara ishlash mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish va zamonaviy metodlar asosida yo'lga qo'yish orqali erishiladi. Bu esa Oliy ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotgan pedagog oldiga o'z kasbiga sodiqlik, chuqur bilim va yuksak pedagogik mahorat kabi bir qator talablarni qo'yadi. Pedagogik Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni manzara ishlashga o'rgatish, eng avvalo talabaning o'quv sharoitidagi rassomlik faoliyatini shunchaki rasm chizish emas, balki oliy ta'lim

sifatida bajarila boshlashini esdan chiqarmaslik kerak. Ilk saboqdan boshlab o'quvchilarda realistik tasvirga xos bilim va ko'nikmalar asosini tarbiyalash, ularni soda va ibtidoiy rasmdan uzoqlashtirish zarur. Har bir sohada eng avvalo talabalarga bilim asoslarini o'rgata boshlaydilar, xuddi shunday tasviriy san'at sohasida ham shaklning tekislikda tasvirlanish qoidalari va qonunlari haqida ularda to'g'ri tushunchani tarbiyalamoq zarur. Shu boisdan, manzara ishlash mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilib, talabaning e'tiborini eng asosiy masalaga qarata olib, o'quv materialini tez o'zlashtirish yo'llarini ko'rsatish lozim. Badiiy ma'lumot, pedagog tomonidan qilinadigan mohirona rahbarlik, talabalar manzara ishlash bilan yuzaki tanishib qolmasdan, iloji boricha chuqurroq bilim va ko'nikmalar olishiga sabab bo'ladi. Har qanday talaba tasviriy san'at bilan shug'illanar ekan albatta manzara ishlashga harakat qiladi. Anashu paytda ularning oldiga tajribali rahbar kelmas ekan, ularda butun vujudi bilan qiziqib bajaradigan mashg'ulotlaridan sovib qolish holati kuzatilishi mumkin.

Tasviriy san'atning manzara ishlash mashg'ulotlari dastavval maxsus maqsadda emas, balki, umumta'lim maktablarida o'qitilishi orqali umumta'lim maqsadlarni ko'zlaydi. U bu davrda bolalarga tevarak-atrofdagi olam bilan tanishishlariga ko'maklashadi, kuzatuvchanlikni rivojlantiradi. Tabiatning rangi, shaklni anglashga, o'zaro taqqoslashga o'rgatish bilan birga ularda nafosat tarbiyasini shakillantiradi. Tabiat benihoyat jozibali va go'zaldir. Quyosh nuri va atrof muhit cheksiz turli ranglarni hosil qiladi. Bunday holat kishilarni ma'naviy tarbiyalaydi. Talabalar manzara ishlash orqali nafaqat o'z bilim va ko'nikmalarini shakillantiradi balki estetik tarbiya bilan ham oziqlanadi. Estetik tarbiya esa har bir shaxs uchun lozim bo'ladigan tarbiyadir. Estetik tarbiya talabalarda go'zallikni his qilish tuyg'usini shakillantirishga, uni rivojlantirishga yordam beradi. Aynan badiiy tarbiya axloqiy, aqliy, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Badiiy bilimlar turli tarbiyaviy ishlar orqali rivojlantiriladi. Shu jumladan manzara ishlash mashg'ulotlari ham bundan yiroqda emas. Kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki o'smirlarda go'zallik ijodkorligiga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi. Oliy ta'lim muassasasi talabalari esa aynan o'smirlikning so'ngi davrida bo'ladi.

Bunday holat ilk yoshlik davrida ham saqlanib qoladi. Badiiy tarbiya-shaxsning ongi, munosabatlari hamda nafosat faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajaga ega. Nafosat tarbiyasi shaxsning nafosat madaniyatini egallashga yo'naltirilgan bo'lib, turli shakl va metodlar yordamida amalgam oshiriladi. Manzara ishlash mashg'ulotlari ham ana shunday shakllardan biri hisoblanadi.

Manzara asarlarini badiiy idrok etish talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim tizimida mavjud o'rta ta'lim va kasb hunar kollejlari o'quvchilarining badiiy ta'lim muammolari esa uzviy ravishda Oliy ta'lim muassasalarining "San'at" fakultetlarida ta'lim olayotgan kadrlar tayyorlash jarayoni bilan bog'liq. Bugungi kunda tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda talabalarda san'atshunoslik madaniyatini rivojlantirishga alohida etibor qaratilmoqda. Talabalarda ta'limning bu jihatini rivojlantirish uchun, ularda eng avvalo yuqori mahorat bilan bajarilgan badiiy asarlarni tahlil qilish mezonlari haqidagi bilimlarni rivojlantirish lozim.

Quyida talabalar manzara asarlarini badiiy tahlil qilishda muammolarga duch kelayotgan jihatlari ko'rsatilgan. Bu jihatlar badiiy asarlarni tahlil qilishda o'z o'rniga ega. Manzara asarlarini tahlil qilishda shartli ravishda quyidagi mezonlarga asoslanishimiz mumkin.

1. Manzara tasvirini qog'ozga joylashtirish-kartinada tasvirlanayotgan tabiat ko'rinishini, undagi bo'laklarni qog'oz o'lchamiga mos ravishda, maqsadli joylashganligi.
2. Ko'rish nuqtasi va ufq chizig'ining to'g'ri tanlanganligi.
3. Konsturiktiv va perspektiv qurilish- manzara tasvirining chiziqli perspektiva qonunlariga asoslanganligi, undagi detallarning haqqoniy tasvirlanganligi.
4. Kompazitsiya tuzish qonun-qoidalariga asoslanganligi.
5. Tus. Umumiy tus va mahalliy tus. Umumiy tus- manzaradagi bir obyekt ikkinchisiga nisbatan yaxlitlikda qanchalik och yoki to'qligi bilan

belgilanadi. Mahalliy tus-shu obyekt qismlarining yoritilganlik darajasidagi farqi.

6. Rang. Manzaraning (Buyumning) umumiy rangi; biron-bir rang doirasidagi rang-tuslarning xilma xilligi.
7. Surtma-tasvirlanayotgan manzarada shakli, rangi, o'lchami bo'yicha ikkita bir xil surtma bo'lmaydi. Manzarada surtma shaklni belgilaydi, faktorni ko'rsatishga qaratiladi.
8. Soya-yorug' qonunlari- yarim soya, soya, refleks, shula, shaxsiy soya va tushuvchi soyalar ularning o'z o'rnida qo'llanilganligi.
9. Bo'yoqlarimng bir-biriga monand birikmasi-bo'yoqlar ohangi musiqa asbobidan taralayotgan yoqimli kuy kabi hamohang va turli kompazitsiyalarda takrorlanmas bo'lishi.
10. Havo perspektivasi- manzara ob'ektlarining fazo (bo'shliq) ta'sirida o'zgarib (qisqarib) ko'rinishi.

11. Tasvirlanilayotgan sohaning ifodalilik darajasi. Usta rassom, ko'rinish, voqea va davrning eng xarakterli joyini ko'rsata oladi. O'ziga qarab chizish bilan badiiy kompazitsiya farqi. Bu mezonlar nafaqat talabalarda manzara asarlarini badiiy tahlil etish ko'nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek kelgusi pedagogik faoliyatda o'quvchilar bilim va iqtidorini baholashda ham asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Oliy o'quv yurti "San'at" fakulteti talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni eng avvalo ularda shu kasbga bo'lgan muhabbatini shakillantirish dan boshlash kerak, ularda tasvirlash uchun lozim bo'ladigan ijodiy jarayonlarni rivojlantirishimiz kerak. Manzara yaratishda uning asosiy bilimlari rang, tus, kolorit, manzarani yaxlit ko'rish, nisbatlar munosabatlari va boshqa bilimlar qatori ijodiy jarayonlarni ham rivojlantirishimiz lozim. Talaba ijodiy jarayonlarga tegishli barcha bilimlarga egaligi uning amaliy topshiriqni mukammal o'taydi degani emas buni yoddan chiqarmaslik kerak. Talaba eng avvalo ruhiy jihatdan tayyor bo'lsagina ishni sidqidildan bajara oladi. Manzara ishlashda talabalarda ijodiy jarayonlarning shakillanganligi ta'lim samarasini oshiradi.

Biz tadqiqot etilayotgan masala yuzasidan dastlabki bosqichda Nizomiy nomidagi TDPU «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining 201 va 202, hamda mazkur yo'nalishning 301 va 302 guruh talabalari bilan tajriba sinov ishlarini tashkil etdik. 201 guruh bizda tajriba sinov guruhi deb e'tirof etilgan bo'lsa, 202 gurux nazorat guruxi bo'lib hisoblandi.

Talabalar bilan o'tkazilgan savol javob natijalari, anketa so'rovnomalari bilan ishlash yo'lga qo'yildi. Unga quyidagi savollar kiritildi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda ko'rinib turibdi.

1 jadval.

2 kurs talabalarining manzara kompozitsiyasini tasvirlash jarayonida kompozitsiya unsurlari to'g'risidagi bilimlarining mavjudligi

№	Kompozitsiya tuzish unsurlari	Olingan javoblar	
		Tajriba guruhi	sinv Nazorat guruhi
1	Manzara tasvirini qog'ozga joylashtirish	60%	56%
2	Ko'rish nuqtasi va ufq chizig'ining to'g'ri tanlash	78%	68%
3	Manzarada perspektivga ko'rinishi.	87%	65%
4	Konstruktiv qurilish va shakllarning haqqoniy tasvirlanganligi.	89%	62%
5	Yorug'-soya qonunlarining o'z o'rnida qo'llanilganligi.	76%	71%

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalarning bu boradagi bilimlari pastligi va manzara kompozitsiyasini tasvirlashga bo'lgan qiziqishlari shu kungacha qoniqarli emas bo'lib, aksariyat talabalar vazifaning majburiyligi tufayli mashg'ulotlarda qatnashib kelmoqdalar. Jumladan ijodiy jarayonlar manzara ishlashda eng lozim bo'ladigan jihatlardan biridir. Albatta ijodiy jarayonlar va ularning turlari haqida so'z yuritishdan oldin ijodning o'zi nima degan savolga javob berib o'tsak.

Ijod bu-inson ongining eng yuqori murakkab darajasidir. U insonning bilimi, malakasi, ko'nikmasi va hayotiy tajribalari natijasida dunyoga keluvchi mo'jizadir. Tasviriy san'atda bu yangi badiiy san'at asaridir.

Badiiy ijodning asosiy mohiyati, ijod faoliyatining strukturaviy faktorlariga bo'linishi masalasida qiziqarli g'oyalar L. G. Ermashning o'tkazgan "San'atning ijodiy tabiati" tadqiqotida muntazam yoritilgan. Ijodning kuchi "Ruhiy va amaliy qobiliyatlar"- bu mehnat, ilhom, xotira, tafakkur, badiiy talent, xayol, hissiyot, kabilar yordamida amalga osha boradi.

Mehnat- insonning asosiy faoliyat turlaridan bo'lib, shu orqali inson moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi. Ijodiy mehnat- tabiatni kuzatish, adabiyotlar o'qish, materiallar yig'ish qoralama va xomaki rasm, ranglavha chizish, kompazitsiya eskizlari ustida ishlash, mahorat va malakalarni egallash bilan amalgam oshiriladi.

Xotira- badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, insonning tajribasini namoyon qiladi. Inson hayotda har qanday faoliyatda xotirani chetlab o'ta olmayd, o'sh tassurotlarning tahliliga kora naturasiz kompazitsiya eskizini chiza oladi. Juda ko'p naturadan mashq qilgan va o'zining ko'rish xotirasini rivojlantirgan rus rassomi A. Serov kichik yoshidayoq, xotiradan rasm ishlashni yoqtiradi. I. A. Ayvazovskiy esa hayratlanarli darajada ko'rish xotirasiga ega edi.

Iroda ijod kuchining samarasini belgilovchi ijod uchun eng zarur psixik jarayonlardan biridir. Iroda- aqliy va jismoniy kuch-quvvatni ongli ravishda boshqara olish demakdir. Murakkab irodaviy harakat maqsadni amalgam oshirishga olib keladi. Sabr-toqatlilik, o'z-o'zini boshqara olish irodaning muhim xususiyatlaridan biridir. Iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtirib yuqori natijalarga erishishga sabab bo'ladi.

Tafakkur-ijod kuchlaridan biri bo'lib, borliq haqida fikirlashda, tahlil qilishda idrok, sezgi, hissiyotni badiiy asar yaratishga yo'naltiruvchi maqsadli vositadir. Badiiy asar boshqa sohalardagi kabi tafakkurning mahsulidir. San'at asari faqat tasviriy vositalarni emas, balki goyaviy estetik mazmun, dunyoqarash, falsafiy

tushunishni ham qamrab oladi. Rassomning tafakkuri ijodiy xarakteri bilan ajralib turadi, ijodiy xayol bilan birga xarakterlanadi.

Ilhomlanish-insinning mehnat qilish jarayonida eng ko'tarinki ruhiy holatidir. Rassomning ijodiy mehnatida ilhomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifatida ahamiyatli ro'l o'ynaydi. Ilhomlanish- ijodiy, ma'naviy jismoniy jihatdan rassom uchun ijodiy vaziyat juda tez yechilgan bo'ladi. Bunda rassomning ijodiy hayoli, tafakkuri faol faoliyat ko'rsatadi.

Badiiy talant- shxsiy psixalogik xususiyatlardan biri bo'lib, badiiy ijodda eng katta kuch sifatida faol ishtirok etadi. Tug'ma talant insonning o'zida tug'ma anatomic va fizialogik tuzilishida o'ziga xoslik bilan mavjud bo'ladi. Badiiy talant, albatta, san'atga mehr-muhabbatni talab etadi va ijod qilish ishtiyoqi tinchlik bermaydi. Insonning badiiy iqtidorining eng yuksak darajali sifati bu geniallikdir. Badiiy ijodda geniallik tushunchasi talantning izohisiz yuqori darajasida namoyon bo'lgan sifati bo'lib, u rassomni ma'lum tarixiy davr san'atidan yuqori turuvchi va dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan san'at asarini yaratishga olib keladi.

Ijod komponentlariga- bilim, dunyoqarash, badiiy uslub, estetik va badiiy did, mahorat kiritiladi. Bilim ijodning asosiy bosh komponenti hisoblanib, uni egallash orqali sezgi, estetik his qilish, idrok, tafakkur, xotira, dunyoqarash, malaka, ijod uslubi, mahorat rivojlanib boradi.

Dunyoqarash- obektiv borliqni badiiy xarakterda faoliyatning g'oyaviy yo'nalishiga mos holda aniqlashdan iboratdir. Dunyoqarash fanlardan olingan bilimlar asosiga tayanadi.

Estetik va badiiy did ham, dunyoqarash ham badiiy uslub bo'lib, rassomning ma'lum alohida g'oyaviy estetik ijodiy yo'nalishini ko'rsatadi. Estetik va badiiy did insonga tug'ilganda berilmaydi, balki qobiliyat kabi insonning o'sishi bilan rivojlanib boradi.

Mahorat-tasviriy san'atning zaruriy sharoitida namoyon bo'livchi shaxsning badiiy qobiliyati, ruhiy xususiyati va sifatlaridir. Mahorat yuqori darajadagi bilim, tasviriy texnika, ko'nikma, malakani mukammal egallamoqdir.

Manzara ishlash mashg'ulotlarida o'qitishning interfaol usullarini qo'llash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Manzara ishlash mashg'ulotlarida interfaol usullardan aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, klaster, suhbat, bahs-munozara, boshqotirma, ro'lli o'yinlar, pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish zaruriyati pedagogik texnologiyalarning mazmuni hamda an'anaviy ta'lim mohiyatini o'rganish, tahlil etish asosida yuzaga keladi.

Bugungi kunda o'qitishning faol usullarini qo'llash pedagogik texnologiyaning asosini tashkil qiladi. Pedagogik texnologiya o'z oldiga ta'lim shakllarini muqobillashtirish vazifasini qo'yuvchi, texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro faoliyatini hisobga olib, ta'lim berish va tahsil olish jarayonini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir.

O'qitishning interfaol usullaridan foydalanishdan maqsad nima, uning afzalliklari darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savollarga quyidagicha xosilalar asosida javob berish mumkin.

1. Interfaol o'qitish eng soda qulay usul.
2. Mustaqil fikirlashni o'rgatadi.
3. Ko'p tarmoqli
4. Sodda va oson.
5. Bilim boyligini oshiradi.
6. Vaqtdan yutadi.
7. Qiziqarli o'tadi.
8. Darsning samaradorligini oshiradi.
9. Dunyoqarashni kengaytiradi.
10. Tafakkurini rivojlantiradi.
11. Talbalarining diqqat etiborini tortadi.
12. Har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bo'ladi.
13. Hotirani kengaytiradi.
14. Izlanishga chorlaydi.
15. Talabalarni o'z ustida ishlashga chorlaydi.

Manzara ishlash mashg'ulotlaridan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarni o'quvchiga yetkazishdan iborat.

Manzara ishlash mashg'ulotlarini o'qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish talabalarga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikka erishishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar hal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir:

- Manzara ishlash mashg'ulotlarini interfaol usullar asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish;
- pedagoglarda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuv hissin tarbiyalash;
- tasviriy san'at o'qituvchilarida darsni texnologik yondashuv asosida tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish;
- tasviriy san'at o'qituvchilarining ta'lim-tarbiyaviy ishlarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishiga erishish;
- tasviriy san'at o'qituvchilarining texnologik, pedagogik faoliyatini tashkil etish borasidagi mahoratlarini oshirish;
- manzara ishlash mashg'ulotlarining samaradorligini ta'minlash.

Innavatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar- bu jamoa bo'lib fikirlashdan iborat deb yuritiluvchi pedagogik tas'ir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi;

-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikirlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

-talabalarining o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doymiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

-pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

O'qituvchi va talabaning maqsadi bo'yicha natijaga erishishda qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabalarining bilim saviyasi, guruh характери, sharoitga qarab ishlatilgan texnologiya tanlanadi, masalan manzara ishlash mashg'ulotlarining nazariy bilimlari uchun balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, slayd, filim, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va talabaga bog'liq. Bundan tashqari o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi manzara ishlash mashg'ulotining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini asosiysi, talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishni hisobga olish kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak. O'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikirlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, manzara ishlash mashg'ulotiga, pedagogning o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda pedagogik texnologiyaning eng asosiy negzi-bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila

olsalar, o'zlariga, guruhga va ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Manzara ishlash mashg'ulotlari Badiiy Grafika yo'nalishida o'rganiladigan o'quv fanlari; qalamtasvir, rangtasvir va kompazitsiya mashg'ulotlarining bir qismi bo'lib, u bo'lajak o'qituvchilarni mavzuga oid bilim, va ko'nikmalar bilan qurollantiradi. Manzara ishlash metodikasi, mashg'ulotlarda mavzuning nazariyasi va o'qitish usullari, shuningdek, amaliy topshiriqni bajarish bosqichlari haqida talabalarga bilim va ko'nikma beradi. Jumladan manzara vositalari, ishlanish usullari, manzara janri tarixi, rivojlanish bosqichlari va boshqalar. O'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish aynan shu jarayonda pedagogga yaxshi natijaga erishish uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda tadqiqot ishini olib boirish jarayonida shu mavzuning nazariy qismini yoritishda o'rganilishi mumkin bo'lgan bir qator masalalar mavjud ekanligi o'rganildi. Misol uchun mavzuga oid o'zbek tilida mavjud adabiyotlarning kamligi, manzara ishlash metodikasiga doir alohida o'quv metodik tavsiyalarining yetishmasligi, mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini o'rgatishning elektron darsliklarini rivojlantirish ustida ishlash va h.k. Manzara ishlash mashg'ulotlari talabalarda ijodiy fikirlashni, san'atni idrok etishni va tahlil qiliashni, hayotni kuzatish va obrizli tasavvur etish, badiiy estetik did va madaniyatni shakillantirish, ularni pedagogik faoliyatga tadbiq etishni o'rgatadi. Manzara ishlash mashg'ulotlarinig nazariy qismi manzaraning asosiy qonun qoidalari, usul va vositalarini o'z ichiga oladi. Bu bilimlarni mukammal egallashda maxsus semenarlarning o'zni katta. Yosh talabalarining ongini shakillantirishda, intellektini o'stirishda pedagoglar jamoasi katta ro'l o'ynaydi. Talabalar orasida ish yuritish, press-konferensiyalar o'tkazish, yetakchi rassomlar ustaxonalariga borish, ular bilan muloqatni tashkillashtirish, muzey kolleksiyalari bilan tanishish va nodir

ishlardan nusxa ko'chirish, san'atning boshqa sohalaridan xabardor bo'lish yetakchi o'rin egallaydi. Bugungi kunda ta'lim jarayonini shunday tartibda amalga oshirish borasida bir qancha muammolar borligi kuzatilmoqda.

I.2. Tasviriy san'at darslarida yoshlarni manzara kompozitsiyasini ishlashga o'rgatish hamda talabalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng barcha fanlar qatori tasviriy san'at fanining o'qitilishida ham bir qator yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu davrda mamlakatimizning deyarli barcha pedagogik oliy o'quv yurtlarida badiiy grafika fakultetlari tashkil etilgan bo'lib, ularda rassom-pedagoglar tayyorlanmoqda. Mustaqillik yillarida tasviriy san'at ta'limi konseptsiyasi, davlat ta'lim standarti, dastur va darsliklar, metodik qo'llanmalar va ilmiy metodik tavsiyalar yaratildi. So'zsiz ular umumiy oliy ta'lim maktablarida tasviriy san'atning o'qitilishini yaxshilashda ijobiy ro'l o'ynamoqda.

Bugungi kunda "San'at" fakultetlari talabalari tasviriy san'at fanlarining barcha turlari bo'yicha bilimlarni mukammal egallab kelmoqda. Bu jarayonni amalga oshirish uchun ta'lim tizimida barcha imkoniyatlar mavjud. Ammo shunga qaramay talabalar fanlarni o'zlashtirishda bir qancha muammolarga duch kelmoqdalar. Bulardan eng asosiysi bu amaliy mashg'ulotlarning nazariy qismiga, metodikasiga oid ma'lumotlarga chuqur ega emasliklaridir. Bunga sabab, o'quv qo'llanma va darsliklarning kamligi, aksariyat adabiyotlar rus tilidaligidir. Bunday adabiyotlarning g'oyaviy pastulati jihatdan o'sha davr talabi asosida yozilganligi. Bu adabiyotlarni qayta ko'rib chiqish davlatimiz g'oyaviy negzi asosida ma'lum qisimlarini kun talablari asosida yangidan ishlab chiqish borasidagi ishlarni jadallashtirish. Shuningdek muammolarning markazida mavjud ma'lumotlarning pedagog tomonidan talabalarga an'anaviy usullar bilan yetkazib berilayotganligi ham turibdi. Shuningdek zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish darajasi pastligini ham ko'rsatishimiz mumkin. Ta'limning nazariy qismi

mukammal asosga ega emas ekan albatta, mashg'ulotning amaliy qismini to'laqonli o'tab bo'lmaydi.

Shuningdek manzara ishlash mashg'ulotlarida realistik yo'nalishning ustivor qonun-qoidalarini saqlab qolish shu kunning dolzarb muammolaridan biridir. Pedagoglar an'anaviy akademik o'qitish prinsip sistemasini yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymasliklari balki, shu kunning talabi, rivojlanishidan kelib chiqqan holda undan yaxshi xususiyatlarni qabul qilish, taraqqiy ettirish, rivojlantirish lozim. Aks holda bugungi rivojlangan davrda fanning asosi bo'lgan realistik san'atning yutuqlarini yo'qotib qo'yishimiz mumkin. Manzara ishlashning asosiy vazifasi aslida bu borada yoshlarga asosli bilim berishdan iboratdir. Talabalarga manzara ishlashning akademik bilimlarini berish uchta yo'nalishda olib borilmog'i lozim. Qalamchizgi, rangtasvir va kompazitsiya. Manzara ishlash mashg'ulotlarining asosiy vazifasi shu uchta yo'nalish bilimlarini birlashtirgan holda bo'lg'usi yosh rassom-pedagogga to'la malaka, mashg'ulotni chuqur o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratishi, kelgusi mustaqil ijodiy yo'lda o'z fikrini hoh ijodiy, hoh pedagogik yo'nalishda ifoda eta olish qobiliyatining asosini bera olishi kerak. Bo'lg'usi pedagogning qo'liga shu uchta "qurolni" tutqazish oliy ta'limning asosiy ustivor vazifasi sifatida qabul qilinishi lozim. Bugungi kunda o'quv dasturlari qisqarib ketmoqda, buning natijasi o'laroq manzara ishlash mashg'ulotlari hajmi ham bu mavzuda olinadigan bilimlarning to'la o'zlashtirilish uchun kamlik qilmoqda. Natijada talaba mavzuning asl mazmunini tushinib yetish darajasiga ko'tarila olmayapti. Manzara ishlash mashg'ulotlarini tashkil etishda, uning nazariy bilimlarini berishda o'quv xonasi maxsus proyektor bilan jihozlanishi, metodik ko'rsatmalar, slaydlarni ko'rsatish uchun to'la imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Bugungi zamon berayotgan imkoniyatlardan to'la foydalana olsakgina har tamonlama yetuk, jamiyat uchun xizmat qila oladigan kadrlar yetishtirishimiz mumkin. Yuqoridagi muammoga yana bir bor to'xtalib o'task bugungi kunda manzara ishlash mashg'ulotlari o'quv mashg'ulotlari soatlri ichida eng kam hajmni egallamoqda. Bunga sabab kompazitsiya fanining hajmi kamayganligi bilan bog'liq. Manzara ishlash mashg'ulotlari asosan mustaqil ta'lim sifatida berilmoqda

bu jihat qaysidir manoda o'zini oqlashi mumkin ammo, bunday yo'l bilan talabalarda manzara ishlashga bo'lgan layoqatni shkillantirib bo'lmaydi. Bugungi kunda bunday yondoshishning samarasini ko'rmayapmiz. Talabalar natyurmort, portret va boshqa janrlarda talab darajasida akademik ta'lim olmoqda va buning natijasini o'z bituruv malakaviy ishlarida, kurs ishlarida aks ettirmoqdalar. Pedagog mustaqil ishlar mazmuni, ularni amaliy bajarish ketma-ketligi, bosqichlari maqsadi va mazmuni haqida talabalarga yetarlicha tushincha bersada talaba bu jihatlarni manzarani bevosita naturadan ishlashga tadbiq qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Talaba nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga salbiy ta'sir etuvchi omillarni keltirib o'tamiz;

1).talaba o'quv xonasida bevosita o'qituvchining mavjudligini sezgan holda erkin ishlaydi va unda o'z ishiga bo'lgan ishonch ortadi. Mustaqil ishlaganda esa bunday ruhiy yordamni sezmaydi.

2). talaba ochiq havoda tabiat qo'ynida ishlashda unga tashqi omillar tasir ko'rsatadi bunga atrofdagi odamlar yoki sharoit. Atrofdagi odamlarning unga bo'lgan munosabati talabada o'z ishiga bo'lgan ishonchni yo'qotishiga, uyatchanlikning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shu vaqtda tajribali pedagog bu vaziyatdan olib chiqib ketish yo'llarini o'ylab topadi. Aynan shu jihatni rivojlantirish kelgusida talabalarining ijodida yuksak natijalarga olib keladi. Bilamizki o'zbek tasviriy san'at asoschilaridan biri bo'lgan P. Benkovda bu jihat juda yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. U turli shahar ko'chalarida, bozorlarda, odamlar gavjum joyda ham bemalol atrofdagilarni etiborga olmagan holda etyutlar yozgan. Bugungi kunda Yevropa, Amerika tasviriy san'atida turli memoriy obidalar, gavjum shahar ko'chalari tasvirini ishlash an'anasi yaxshi yo'lga qo'yilganligini kuzatishimiz mumkin. Manzaraning bu turi o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi. Talabalarda, hattoki yetuk rassomlarimiz ijodida ham hozirda me'morchilik, turli industirial manzaralar kam uchramoqda. Bu jihatlar manzara ishlash muammosining yana bir qismi sifatida gavdalanadi.

3. talaba bevosita naturadan tasvirlashni yolg'iz o'zi olib borar ekan manzara ishlash qonun qoidalarida chiqib ketishi mumkin shu hollarning oldinni olish

uchun manzara ishlash mashg'ulotlari hajmi kengaytirilishi va albatta o'quv xonasida emas mavzu mazmuniga mos tabiat ko'rinishida tashkil qilinishi samara beradi deb o'ylaymiz.

Shuningdek o'quv jarayonidagi manzara ishlash mashg'ulotlari dala amaliyotiga tayyorgarlik vazifasini to'la qonli o'tashi kerak. Talabalar manzara ishlash orqali dala amaliyotining mazmuni haqida yetarlicha fakir va mulohazalarga ega bo'lishi lozim. Chunki dala amaliyotiga zarur bilim va ko'nikmalar bilan qurollanib bormagan talaba bu jarayonda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni uddalay olmaydi. Dala amaliyoti malum bir ma'noda yuqori kurslarda biror bir ijodiy ishga, yoki bitiruv malakaviy ishga material yig'ish vazifasini o'tashi lozim deb o'ylaymiz. Talabalar nafaqat natyurmort yoki portret janridagi ijodiy ishlari bilan balki manzara janrida yaratilgan kartinalari bilan turli ko'rgazma va tadbirlarda ishtirok etishi kerak. Dala amaliyoti esa bu ishni amalga oshirishda, materiallar to'plashda eng samarali jarayon hisoblanadi. Talaba qisqa muddatli qalamchizgi va ranglavhalar yozish, ularni amalga oshirish qonun qoidalari, vositalari, ashyolari, usullari haqida bilimga ega emas ekan, dala amaliyotiga qo'yilga maqsadga erishilmaydi. Talaba ochiq havoda turli ko'rinish, murakkab tabiiy qurilish, ranglar daryosi oldida ishni nimadan boshlash va nimadan yakunlash kerakligini bilmay qoladi. Bu holat albatta manzara mashg'ulotlarini tashkil etishda eng dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

Bugungi kunda shunday portret, natyurmort va boshqa janrlarda ijod qiluvchi rassomlar borki "manzarani men dam olish uchun ishlayman" degan noto'g'ri fikrni o'rtaga tshlamoqdalar. Albatta bu fakir noto'g'ri ekanligi manzara janri ham alohida fikr va mulohazani, kuchli bilim, mehnatni talab etishi, buyuk manzarachi rassomlar ijodini chuqur o'rganish, tahlil qilish natijasida isbotlanmoqda. Bugungi kunda manzara janri malum bir ishda fon vazifasini o'tashi nazardan chetda qolmoqda. Rangtasvir, qalamtasvir mashg'ulotlarining katta qismi o'quv xonasida bajarilmoqda, agar shu mashg'ulotlar ochiq havoda olib borilsa, masalan ochiq havoda odam gavda holatini ishlash. Bu jarayonda albatta

manzara janriga murojat etiladi. Tabiiyki bu ish xona ichida olib borilgandan ko'ra ancha murakkablik tug'diradi. Murakkablik esa bu muammo demakdir.

Yuqorida manzara ishlash mashg'ulotlarini tashkil qilishda tug'ilayotgan muammolarni o'rganib chiqdik. Endi bevosita topshiriqni amaliy jihatdan bajarishda, ya'ni ijodiy jarayonda talabalar duch kelayotgan muammolar va ularni bartaraf qilish yo'llari haqida mulohaza yuritamiz. Hamma davrda pedagoglar talabalarga ta'lim berishda asosiy e'tiborni naturadan chizishga, tabiatni kuzatib o'rganishga qaratib kelmoqda. Chunki bu jarayon talabani real olam bilan bog'laydi, unga yaqinlashtiradi. Talabalarni hayotning ilmiy nuqtai nazardan xarakterli tomonlarini sezishga va shaklning qurilish qonuniyatlarini tushinishga yo'naltirish pedagog oldiga qo'ygan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Haqiqatdan bunday jarayonni amalga oshirish tevarak atrofni o'rganishni faollashtiradi, naturani aniq va yanada jozibali etib qog'ozga tushirishga zamin yaratadi. Borliq haqidagi taassurotlarini amaliy mashqlar orqali tavirlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan manzara ishlash jarayonini talaba bevosita amalga oshirar ekan bugungi kunda ularda tabiatni his qilish, uni ilmiy jihatdan tahlil qilish faoliyati pastligini kuzatamiz. Bunga sabab faqatgina tasviriy san'at fanlaridagi bilimlarning kamligigina emas balki, boshqa tabiat bilimlarini beruvchi fizika, geografiya, anatomiya, biologiya va boshqa fanlar haqida tushunchalarning yaxshi rivojlanmaganligi bilan bog'lashimiz ham mumkin. Boshq fanlarda olingan bilimlarni manzara ishlash mashg'ulotlariga tadbiq etish eng muhim jihat hisoblanadi. Misol uchun talaba yorug'lik, uning tarkibi haqida bilmasada uni kuzatishga tasvirlashga harakat qilsa, yoki atrofdagi gullarning nomlari, qaysi mavsumga xosligi haqida bilmasada uni tasvirlasa bu yo'l qo'yilayotgan eng katta xatolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun tasvirlash haqidagi fanlar deyilganda nafaqat tasviriy san'at fanlari balki barcha olamni o'rganuvchi fanlarni tushinishimiz mumkin. Talabada har bir sohadan ma'lum bir asosiy tushunchalar rivojlangan bo'lishi kerak deb hisoblaymiz.

Endi bevosita tasvirlash jarayoniga kelsak talabalar bu paytda shakllarning hajmlarini ifodalashga intiladilar, tashqi ko'rinishni, hajmni ko'rsatishga

urinadilar. Qoramalar ustida ishlash o'quvchida fazoviy tasavvurni kengaytirib, borliqni undanda chuqurroq anglashga o'rgatadi.

Manzara ko'rinishini undagi har bir obyektning tasvirini chizish orqali talaba ularning konstruktiv tuzilishi, rang xususiyatlarini aniqlashni o'zlashtiradi. Shuning uchun qoralama chizgilar talabalardan mutaxassislik fanlari qatorida turli fanlarni o'rganishni talab etadi. Mashqlar jarayonida talabalar ongida juda katta rivojlanish ro'y beradi. Asosiysi, qoralama chizgilar ustida ishlash talabalarda hayot go'zalligini his etish va tushinishga undaydi. Atrofdagi gul, daraxt, odamlar qomatini tasvirlash orqali u tabiatning bebaho boyligini, betakror go'zalligini, xilma-xilligini ko'rib, izlanuvchanligi rivojlanadi va badiiy didi o'sadi.

Manzara mashg'ulotlarini tashkil etishdan asosiy maqsad bo'lajak rassom-pedagog o'quv xonasida ishlash bilan chegaralanib qolmasligini ta'minlashdan iborat. Tabiat, hayot bilan hamohang bo'lishi kerak. Bo'lajak rassom naturadan qoralama va xomaki rasmlar ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Qoramalarning samarasi qo'lning erkin harakatlanishini, ko'zning qarash ishonchini va asosiy mutanosiblikni tezda, xatosiz, mayda-chuydalarga e'tibor bermasdan anglab olish kabi hislatlarni rivojlantiradi. Qoramalar bilan ko'p shug'illangan talabalar har qanday vazifani yengil o'tay oladi, to'g'ri tasvirlash ko'nikmasi boshqalardan yuqori bo'ladi.

Bundan tashqari, talabalar albomga tasvirlarni chizishlari va ulardan kelajakda ijodiy va pedagogik jarayonda samarali foydalanishlari mumkin. Qoramalarning ahamiyatini talabalar ongiga chuqir singdirish muhim vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda qisqa muddatli qoramalar qilishni tashkil etish, talabalarni bunday vazifani o'tashga jalb qilish borasida ma'lum bir aniq metodik qo'llanmalar ustida ishlash vazifasi yuzaga kelmoqda. Chunki juda kamchilik talabalar bu jarayonni o'tamoqda. Yosh havaskorni yetuk rassom darajasiga olib chiqadigan eng muhim vositalardan biri bu qisqa muddatli qoralama va ranglavhalardi. Chunki ana shunday yig'ilgan ijodiy ishlar kelajakda yaxshi bir asar g'oyasining tug'ilishidan tortib uning yakunini darajasigacha muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Taniqli musavvir Albrext Dyurer aytganidek, “Hech bir odam shaxsan o’z yuragida, qalbidan obraz yarata olmaydi. Qachonki, bu narsani ko’psonli chizgilar orqali o’z ongida to’plagandagina unga ega bo’ladi.”

Tasvirlashning asosiy qonun-qoidalariga amal qilishda talabalrda yuzaga kelayotgan muammolar.

Tasvirlashning asosiy qonun-qoidalar bular; perspektiva qonuni, surat teksligi, buyum teksligi, ko’rish maydoni va ko’rish burchagi, ufq chizig’i, fazoviy perspektiva, chiziqli konsturiktiv tuzilish, hajm va soya-yorug’ qonunlari hisoblanadi. Bu bilimlar tasvirlash haqidagi asosiy bilimlar bo’lib ularni o’zlashtirmasdan, mazmuni va maqsadini chuqir tushunmasdan turib tasvirlashni amalga oshirib bo’lmaydi. Bunday bilimalrni amalda qo’llash jarayonida talabalar turlicha xatoliklarga yo’l qo’yadilar.

Perspektiva- bu tasviriy san’at gramatikasidir. Buyuk italiyan rassomi va olimi Leonardo da Vinchi ta’biri bilan aytganda, “Perspektiva-tasviriy san’atning rulidir”. Shuning uchun perspektiva realistik tasviriy san’at asarlarini yaratishda ilmiy nazariy asos bo’lib xizmat qiladi. Tevarak atrofimizda joylashgan narsalarning ko’zimizga asl holidan boshqacharoq ko’rinishi va bu holatning sabablarini o’rganish perspektiva fanining shakllanishiga sabab bo’ldi. Tasvirlanayotgan buyum qanday holatda va qaysi tomonidan turib tasvirlanishidan qat’iy nazar bizga perspektiv qisqarib ko’rinadi. Bunday holatni biz ko’cha o’rtasida turib yaxshi payqashimiz mumkin. Bugungi kunda talabalar manzara ishlash jarayonida perspektiva qonunlarini amalda qo’llashda ma’lum bir xatoliklarga yo’l qo’ymoqdalar. Bunga sabab albatta perspektiva fani haqida yetarlicha bilimga ega emasliklaridir. Tasviriy san’at asarlarini perspektiv qurilish jihatidan tahlil qila olmaydilar. Ba’zi hollarda oddiy ko’p qavatli binolarning perpektiv tasvirini qurishda xatoliklarga yo’l qo’yadilar. Manzara ko’rinishida joylashgan obyektlarning tasvirini qurishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu kabi kamchiliklarning oldini olish borasida ma’lum bir tavsiyalarga rioya qilish ko’rsatkichi past.

Talabalar shuningdek *ko'rish nuqtasini* tanlashda ham ma'lum bir kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Bazi hollarda tasvirlanayotgan obyektga nisbatan o'ta yaqin yoki o'ta uzoq joylashadilar. Ko'rish nuqtasini to'g'ri tanlash tasvirlashni maqsadli amalga oshirishda muhim hisoblanadi. Obyektdan juda uzoqlashib ketish ham uni tasvirlashda qiyinchiliklar tug'diradi, yoki aksincha juda yaqin turib tasvirlash ham uni yaxlit ko'rishga xalaqt beradi. Bunday salbiy jihatlarning oldini olish borasida ko'rish nuqtasini to'g'ri tanlash bo'yicha ko'rgazmali materiallar, turli xil topshiriqlar va albatta naturadan mashqlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Ufq chizig'ini to'g'ri topish har qanday vazifani bajarishda muhim hisoblanadi. Ufq chizig'i bilamizki uch xil xolatda bo'ladi. Ana shunday holatlarni to'g'ri aniqlash va ijodiy ishga tadbqiq etishda talabalar gohida turli xil kamchiliklarga yo'l qo'ymoqdalar. Misol uchun ufq chizig'idan yuqorida joylashgan kubning ust qismi kuzatuvchiga ko'rinmaydi, talabalar esa aksincha holatni tasvirda qo'llaydilar. Bu kabi xatolar talabaning keyingi bosqichdagi ishni amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishishini ta'minlamaydi. Shuningdek talabalarda buyumning chiziqli *konsturiktiv* tuzilishini tasvirlashda ham turli xatoliklar uchrab turadi. Tabiatdagi har qanday narsani tasvirlashda avvalombor uni o'ziga o'xshatishga imkon qadar erishish kerak. Buning uchun uning konsturiktiv qurilish asoslarini o'zlashtirish kerak. Talabalar manzara obyektlarini tasvirlar ekanlar uning asosi qanday geometrik jismdan tashkil topganligiga ko'pincha ahamiyat qaratmaydilar. Bu esa shaklni tasvirlashda ortiqcha tushunmovchilik va muammolar keltirib chiqaradi.

Manzara ishlash mashg'ulotlarida talabalar tomonidan eng ko'p xatolarga yo'l qo'yilayotgan jihat bu *fazoviy perspektivani* tasvirda aks ettirish bo'yicha kuzatilmoqda. Albatta bu jarayon ancha murakkabligi bunga sabab bo'lmoqda. Fazo- tiniq muhitdir. Lekin uning tiniqligi tabiatning turli hodisalarri tasirida o'zgaradi. Masalan; havo namligi, havodagi chang-to'zon, havo bulutli ekanligi va boshqalar. Fazo perspektivasi kunning qaysi vaqtida tasvirlanayotganligiga qarab turlicha bo'ladi. Bu jihatni talabala anglashi juda qiyin. Shuning uchun turli

xatoliklar vujudga keladi. Fazoviy perspektivani to'g'ri tasvirlash uchun atrofni kunning turli holatlarida, turli sharoitda juda ko'p kuzatish va etyutlar yozish kerak. Bugungi kunda esa bunday tizimning ishlashi uchun pedagog talabalarga darsdan tashqari alohida e'tibor qaratish lozim bo'lmoqda.

Talabalarda nisbatlar munosabatlarini aniqlashda yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganib chiqadigan bo'lsak, munosabatlar-bu rassomlar tomonidan kashf qilingan yangilik emas. Munosabat qonuni bu atrof borliqning shakli, rangi va materialligini ko'rish orqali idrok qilishning fiziologik va psixalogik qonunidir. Ular mos ravishda nafaqat naturadan idrok etishda, balki qalamtasvirning tusli va rangli tasvirlarida namayon bo'ladi. Bularni aniq misollar yordamida ko'rishimiz mumkin.

Bizni o'rab turgan olamdagi barcha narsalar nafaqat konstruktiv qurilishi bilan, balki o'zlarining turli nisbatlari bilan ham xarakterlidir. Nisbatlar-bu turli o'lchamlar orasidagi munosabatdir. Biz "osmono'par bino yoki pastqam uy", "ozg'in yoki semiz odam" deganimizda ularning birbiriga bo'lgan nisbatlarini nazarda tutgan bo'lamiz.

Hammamizga ma'lumki, rassom buyumlarni o'zining haqqoniy kattaligida tasvirlashi shart emas. Tasvirda o'lchamlarni qo'yilmadagiga mos, mutanosib tasvirlashning o'zi kifoya. Inson boshini 2-3 marotaba kattalashtirish yoki 20-30 marotaba kichiklashtirib tasvirlash mumkin, ammo mutanosiblik saqlanib qolinsa bas. Shundagina tasvirning haqqoniyligiga erishish mumkin. Zangori ekranda hamma narsa bir necha marta kichiklashtirilgan, kinoteatrlarda esa aksincha bir necha marta kattalashtirilgan, biroq u holda ham bu holda ham tasvir haqiqiyligicha qabul qilinadi; zangori ekrandagi odamlar bizga pakana va kinoteatrlarda esa xaddan ziyod yirik, baxaybat odamlar bo'lib tuyilmaydi.

Agar talaba borliqni va jismlarning odatdagi haqiqiy kattaligini buzib tasvirlasa, u holda haqqoniy tasvirga ega bo'la olmaydi.

Yuqoridagi bildirilgan fikirlardan shunday xulosa qilish mumkinki, manzara obyektlarini chizayotganda uning haqiqiy kattaligida tasvirlash shart emas, faqatgina uning o'lchamlarining nisbatlarini to'g'ri ifodalashning o'zi kifoyadir.

Odatta manzara obyektlarini chizayotganda haqiqiy o'lchamdan kichik qilib tasvirlanadi. Demak guruhdagi narsalarning barchasini, yagona masshtabdagi o'lchamda kichiklashtirib tasvirlash kerak. Talabalarda aynan shu jihatga e'tibor kamroq bo'ladi. Natijada manzara obyektlari o'z joyida emasday, bir biriga nomutanosib holda tasvirdan o'rin topadi. Misol uchun ko'cha ko'rinishini tasvirlashda binolar, odamlar, daraxtlar va boshqa narsalar o'z o'lchamida tasvirlanmaydi natijada haqqoniy tasvirga erishilmaydi. Demak tasvirda chizilayotgan narsalarning nisbatlar mutanosibligini saqlab qolish-bu tasvirning umumiy masshtabi chegarasidagi hamma qisimlarning bir butunlikda mosligini ta'minlashdir.

Teng nisbatlardagi mutanosiblikni qabul qilish qonuni faqatgina qalamtasvirdagi nisbatlar munosabatlariga xos bo'lmay, balki yorug'-soya (tusli) va rangtasvirli ifodalanishiga ham tegishlidir.

Manzarada tus munosabatlari bilan ishlashda mavjud muammolar.

Manzarada jsmlarning yorug'ligi, rangi va ularga bog'liq bo'lga materiallilik bizning ongimizda agar jsmlarning tus farqlari tasvir teksligida qo'yilma bilan teng ravishda mutanosib bo'lsa (oq jsmlar oq bo'lib, kulrang esa kulrang, qora esa qora bo'lib ko'rinadi) haqqoniy qabul qilinadi. Bunga misollar keltirib o'tsak. Kun mobaynida yorug'lik keskin o'zgaradi, ammo har qanday sharoitda ham ma'lum sirtning yorug'likni qabul qilishi deyarli o'zgarmasdir. Bir varoq qog'ozni biz kunduzi ham, kechqurin ham, ochiq kunda ham, havo bulut paytida ham, hattoki derazaga yaqin yoki uzoq masofada bo'lganda ham deyarli oppoq rangda ko'ramiz. Agar neytral muhitga uch xil disk-oq, kulrang va qora ranglarni o'rnatsak va ularga kuchli yoki kuchsiz yorug'likni yo'naltirsak, biz bu axromatik ranglarning farqlarini o'zgarmas holatdagi ko'rinishining guvohi bo'lamiz. Ana endi kulrang diskni o'ta kuchli yorug'lik bilan yoritamiz va uni oq rangdan farqlash ancha mushkul. Bu hodisaning sababi shundaki, jsmlarning ranglari o'zining yorug'ligi bilan o'zgarayotgan yoritilishga bog'lanmagan holda, agarda yorug'lik kuchining ko'payishi yoki kamayishi hamma jsmlar uchun bir maromda va bir xil bo'lsa, sodir bo'ladi.

Shunday qilib, bizning ko'rish taassurotimiz aniqlik munosabatlari bilan belgilanadi. Ko'rishning bu qonuniyati tusli yoki rangli tasvirni bajarishda juda muhimdir. Buyumlarning tusli va rangli xususiyatlarining haqqoniyligi, agarda ularning tusli farqlari manzara obyektlariga nisbatan mutanosiblikda tasvirlangan bo'lsa, tasviriy taekislikda ham saqlanib qoladi. "agarda sen chizishni puxta egallamoqchi bo'lsang deb yozadi Leonardo da Vinchi- unda asta sekinlik bilan tasvirlay borib, rang bilan yorug'lik orasidagi munosabatlarni to'g'ri baholay bil, shu yo'sinda soyaning eng to'q va ochroq joylarini farqlay ol".⁸

Tus munosabatlarini tasvirlash haqida K. A. Korovin shunday maslahat beradi; "Rangni (bo'yoqni) tayyorlashda nima to'qroq, nima ochligiga e'tibor berish kerak. Asardagi rangni o'xshatish uchun, bir rangni boshqa ranga nisbatan qanchalar to'q yoki ochligini taqqoslab so'ngra tasvirlanadi." Rassom F. S. Bogorodskiy bu masalaga quyidagicha yondoshgan; "... agar biz realistlik rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini yoddan chiqarsak, ya'ni tasvirga mansub obyektning joylashishi, yorug'lik kuchi (nima to'qroq yoki ochroq) holati, mato yuzasida fazoviylik va ketma-ketlikni korsata olmaymiz, Realist rassom bo'yamaydi, u asarda yaxlit bir butunlikni saqlagan holda, tus munosabatlarini izlaydi va yaratadi. Masalan, rasm qo'yilmadagi havo rang vazani dastlab sinchiklab kuzatadi, ammo uni havo ranga bo'yashdan avval fon vazifasini o'tayotgan pushti rang bilan taqqoslab qanchalik to'q yoki och tusliligini aniqlab so'ngra amaliy ishga o'tadi".⁹ Bulardan shunday xulosa qilish mumkinki, tusli tasvir (tusli qalamtasvir yoki, grizayl texnikasidagi rangtasvir) yorug'liklar munosabati qurilish nisbatlariga asoslanadi. Har qanday vazifani dastavval tusda bajarib olish uning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Talabalarga tus munosabatlarini tushuntirishning eng soda va tez natija beradigan yoli yuqoridagi usuldir.

Endi bevosita manzara rangtasvirini bajarishda *rang munosabatlarida talabalar yo'l qo'yayotgan xato va kamchiliklarga*, bu jarayonning o'zlashtirilishi qiyin bo'layotgan jihatlariga bevosita to'xtalib o'tsak. "Rangtasvir-

tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo'laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug'lik kuchini va har bir bo'lakni o'zaro taqqoslash natijasida, bo'yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to'laqonli ifodalash demakdir" deb aytgan edi K.F.Yuon. Shunday ekan bunday murakkab jarayonni amalga oshirish uchun talabadan fanga oid chuqur bilimlarni talab etadi. Talabaga bunday bilim berish albatta pedagog oldiga ulkan vazifa qo'yadi. Bu vazifani soda va tushunarli tilda yetkazish orqali ta'lim samaradorligiga erishish bugungi kunning ta'labidir. Manzara rangtasvirini ishlash jarayonida avvalombor rangshunoslik fanidan yetarlicha bilimga ega bo'lish kerak. Bu borada izlanishlar olib borish, ranglarning paydo bo'lishi, xususiyatlari, manzara ishida ularning vazifasi kabi masalarga nazariy jihatdan ilmiy bilimlarga ega bo'lish ijodiy jarayonda o'ta muhim sifat hisoblanadi. Aynan shu jihat bugungi kunda izlanishlarni talab etmoqda.

Rang—bu rangtasvirda manzara ishlash mashg'ulotlarining asosiy vositasidir. Agar talaba mashg'ulot davomida manzara jisimlarining ranglarini, yorug'-soyalarini tog'ri va aniq topa olsa uni bajarayotgan ranglavhani mukammal bajara oladi deb hisoblab bo'lmaydi. U bemalol alohida jismlarning yorug'-soyalarini, hajmlarini ham ko'r-ko'rona ko'chirib tasvirlashi mumkin, ammo tasvirlashning eng muhim sifatlari, ya'ni materiallikni, fazo va yoritilish holatini mukammal ko'rsata olmaydi. Bu holat talabalarda bugungi kunda asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Badiiy ta'limning ikkita asosiy xususiyatini ya'ni maqsad va ma'nosini ilk mashg'ulotlar davridayoq chuqur anglash manzara rangtasvirining butun sir-asrorlarini egallashga xizmat qiladi. Shunday yo'l bilangina talaba ta'lim yo'nalishiga muvofiq harakatlana oladi, uning har-bir yaratgan yangi mashq ishi rangtasvir sifatlari bo'yicha mukammallashib boradi.

Birinchi xususiyat mazmuni shundaki, naturadan manzara rangtasvirini savodli tasvirlash, hajimdorli, fazoviy va materiallik sifatlariniko'rsatish, tabiatdagi rang munosabatlarini ko'rib idrok qilish orqali palitradagi chegaralangan bo'yoqlarga mutanosiblikda o'tkazish metodiga asoslanadi. Ranglavhadagi rang munosabatlar mazmuni rassom nigohi bilan qabul qilingan munosabatlar

mohiyatidan kelib chiqadi. Biroq, ranglavhadagi rang munosabatlarining qurilishi yoritilishning umumiy tusi va rangli holatini hisobga olgan holda amalgam oshirilishi lozim. Ana shunday jihatlarni to'g'ri amalga oshirish orqali talabada manzara ishlash ko'nikmasi shakilanib boradi.

Rang munosabatlari bilan ishlash-rangtasvir savodxonligining asosiy qonunidir. Talaba mashg'ulotlar natijasida nafaqat nisbatlarni kuchli his etishi balki, rang munosabatlarini ham chuqur sezish qobiliyatiga ega bo'lib borishi lozim.

Ikkinchi xususiyat shundan iboratki, manzaradagi obyektlarning rang munosabatlarini idrok etish yaxlit taqqoslash bilan aniqlanadi. Aynan shu ikki kasbiy mahorat xususiyatlarini mukammal egallash natijasida yetuk, hissiy ta'sirchan tasvir koloritini yaratishi mumkin. Mashg'ulot jarayonida shuni kuzatamizki talabalar har bir rangni xuddi o'ziday qilib ko'chirishga harakat qiladilar, natijada boshqa ranglarga nomutanosiblik vujudga keladi. Bunday muammoni hal qilish uchun pedagog ta'limning dastlabki bosqichidayoq talabalarga munosabatlar usuli bilan ishlashni singdirib borishi lozim. Xuddi qalamtasvirda barcha katta-kichik o'lchamlar nisbatlari bir-biriga mos va mutanosib holda tasvirlanganligi kabi, ranglavhadagi hamma bo'yoqlar ham bir-biriga nisbatan to'g'ri olinishi zarur. Manzara rangtasviridagi rangni faqatgina uni o'rab turgan ranglar guruhi bilan solishtirib mutanosiblik munosabatlarini hisobga olgan holda uni to'g'ri qo'yishimiz mumkin. Rassom va pedagog N. P. Krimov shunday degan; "Rang-rangtasvir munosabatlarining mosligi bilan paydo bo'ladi... Agar rangtasvirda munosabatlar noto'g'ri bo'lsa, eng toza va yorqin ranglar ham chalkash va tushunarsiz bo'lib ko'rinadi". Shunday ekan bu jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish pedagog oldiga yangi izlanishlarni olib keladi.

Yoritilishning umumiy tusi va rangli holatlari bo'yicha uchraydigan muammolar. Ranglarni ko'rish yoritilish kuchi o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan munosabatlarga asoslanadi. Biroq, biz yoritilishda unga bog'liq bo'lgan tus va rangda tabiatning umumiy bo'yoq yig'indisidagi past yoki yuqori bo'lgan kuchli o'zgarishni his etamiz; quyosh yordamida yoritilgan manzara oqshom yoki

tongdagidan yorug'roq, havo bulut paytida yorug'lik va soya farqlari keskin bo'lmaydi. Yoritilish kuchi ta'sirida nafaqat jsmlar yorug'ligi, balki uning rangi ham o'zgaradi. Yoritilish sust bo'lsa, jsm rangining to'yinganligi pasayib xiraroq ko'rinadi. Xonadagi jsmni derazadan uzoqlashtirgan sari uning rangi xiralashadi va to'qlashib boradi. Kunduzgi kuchli yorug'lik bilan yoritilgan jsmlarning sovuq soyalari hosil bo'ladi. Masalan, havo bulut bo'lishi bilan tabiatdagi yorug'lik va ranglar keskin o'zgarib, manzara sovuq kumushsimon tusga kirib qoladi. Demak, naturadagi ranglar xilma-xilligi yoritilish ranglarining holatiga bo'ysinadi.

Realistik rangtasvirda tabiatning yoritilish holatini mohirona tasvirlay bilish juda muhimdir. Rangtasvirda naturaning umumiy tus va rang qoplamlari kunning ma'lum vaqtiga mos ravishda yoki ma'lum yil fasli va ob-havo sharoiti nazarda tutiladi. Kunning turli vaqtida, har qanday ob-havoda yoki yil faslida tasvirlangan manzaralar bir-biridan shunday farqlanishi kerakki, xuddi naturadan tongi va kechki, quyoshli va bulutli kunda bajarilgan ishlar singari farqlansin. Talabalar tomonidan bugungi kunda manzaraning ana shunday jihatini yoritishda qiyinchiliklarga duch kelayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ular tomonidan ishlangan ishlarda kunning qaysi payti, yoki qanday ob-havoda bajarilganligi sezilmaydi. Agarda bir qancha rangtasvir asarlariga nazar solsak kunning turli vaqtida, har qanday ob-havoda, quyoshli kunda tasvirlanganda bo'yoqlar turlicha yorqinlikda ifodalanganligini ko'ramiz.

V. I. Surikovning "O'qchilarni qatl etish tongi" asarini yodga olsak. Bu asar past tusli diapazonda tasvirlangan. Agar o'qchilar ko'ylagini oq qog'oz bilan solishtirsak, ular mutloqo oq emas, kulrangdir. Ammo aslida ular ko'ylagi oqdir.

"Umumiylikni izlan,-deb aytgan I. I. Levitan,- Rangtasvir qaror emas, u tabiatni rangtasvir ashyolarida ifodalaydi. Asarda mayda-chuyda, ikr-chikrlar bilan chalg'ib qolmasdan, umumit tusni qidiring".¹⁰

Umumiy tus va rang holatini manzara rangtasvirida saqlash juda muhim. Manzara etyudini tasvirlashda, avvalo eng asosiysi tus va rang munosabatlarini to'g'ri tanlash kerak, masalan; yer, osmon va suvni. Agar umumiy tus va ranglar

holati hisobga olinmasa, tasvirdagi bo'yoqlar tus kuchi va rangi bo'yicha kuchayib ketishi mumkin. Bulutli ob-havoda etyud ishlayotganda toza oq rang va ochiq to'yingan bo'yoqlar ishlatiladi. Masalan, qish faslida shom oldidan qor unchalik oppoq emas, ammo tajribasiz talabalar nigoxida u oppoq tusda, yam-yashil barglar yoki maysalarning yozdagi har qanday ob-havo sharoitida ham ko'm-ko'k rangda tasvirlanishi hollari ko'p uchraydi. Yo'l qo'yilgan bunday xato natijasida manzara etyudi eng asosiy narsa muxit xolati mavjud bo'lmaydi. Axir, aynan shu bilan manzaraning kayfiyati va ta'sirchanligi belgilanadi.

Buyuk "kolorist"lar bo'yoqlar munosabatini doimo naturaning umumiy tus va ranglar holatini hisobga olib ish yuritganlar. Levitan, Korovin, O'. Tansiqboyev, R. Ahmedovlar yagona umumiy bo'yoq surtmasi orqali etyuddagi o't-o'lanlarni, butalarni va daraxtlarni mohirlik bilan tasvirlaganki ularning moddiy o'ziga xosligi, rangdorligi, jozibadorligi ko'pchilikni hayratga soladi. Afsuski, talabalarning ba'zi mashq ishlarida umumiy tus yig'indisining mavjud emasligi pand beradi, natura obyektlari jsmlarning "lokal" ranglari bilan bo'yalib umumiy yoritilish hisobga olinmaydi.

Umumiy yoritilishga bog'liq bo'lgan, naturaning umumiy tusi va rang holati kuchidan tashqari, yana barcha jsmlarga yoritilishning spektr tarkibiga ta'sir etib umumlashtiruvchi kuch ya'ni yoritilishning rangini ham hisobga olish zarur. Kechki sun'iy yoritilish xona muhitiga sarg'ish olovrang tus beradi. Tangda tabiat yaltiroq-pushti tusga, oqshomda sarg'ish olovrang, havo bulut bo'lganda esa xolis kumushrang tusga ega bo'ladi. Bunday jihatlarni o'zlashtirish albatta juda murakkab jarayon bo'lib ularni amalda tadbiq etishda bugungi kunda talabalar bir qancha muammolarga duch kelmoqdalar.naturadagi ranglar sifati, xususiyati qanchalar xilma-xil bo'lmasin uning har-bir qismida, har bo'lagida yoritilish rangi mavjud va barcha bo'yoqlar unga bo'ysunadi.

Agar biz rassomlarning asarlari reproduksiyalarini birma-bir taqqoslab ko'radigan bo'lsak, ularda turli xil yoritilish sharoitida, ya'ni quyosh botish oldidagi tasvirga nazar solsak, umumiy olvrang qizg'ish tusni, oy nuridagi tasvirda esa, yashilsimon havorang tusda bajarilganligining shohida bo'lamiz. Bulutli ob-

havoda tasvirlangan manzaralar umuman o'zgacha, ammo, umumiy bir-biriga yaqin bo'lgan bo'yoqlar yig'indisidan tashkil topgan.

Ranglar birligi va bo'yoqlar uyg'unligi hamma holatda asosiy yoki aks etayotgan yorug'lik manbayi spectral tarkibi bilan shartlangan. Shuning uchun naturadan ishlayotganda talaba nafaqat umumiy ranglar munosabatini ma'lum bir tus va rang masshtabida qurish kerak, balki koliritli birlikni kuzatib boorish ham lozim. Qog'ozga yoki matoga beradigan rang shunchaki bo'lmasligi, birlashtiradigan va bir-biriga yaqin qiladigan oraliqdagi umumiylikni tushunib yetmasdan turib "ma'lum" bo'lgan rangni olish mumkin emas. Bunday hamjihatlik va ranglar koloriti, uyg'unligi etyud va asardagi tus, ranglar qurilishi muvofiqligining asosidir.

Realistik rangtasvirdagi kolorit bu tasvirdagi barcha ranglarning bir-biriga o'zaro bog'liqligi, uning rangli qurilishidir. Uning asosiy xususiyati-ranglarning boyligi va o'ziga xosligi, naturadagi mosligi, tasvirlanayotgan paytning jsmli va fazoviy sifatlari va yoritilish holati, yorug'-soya bilan birgalikda ko'rsatiladi. Xulosa sifatida etyud yoki asar koloritini aniqlashda talabalar qiyinchiliklarga duch kelayotgan muammolar tizimini quyidagicha keltirishimiz mumkin;

- hajm, shaklini yasashda va fazoni ko'rsatishda rang-barang reflekslarning mavjudligini hisobga olmaslik.

- yoritilishning umumiy tus va rang xususiyatini hisobga olmagan holda naturadagi asosiy ranglarning munosabatini o'rnatish hollari.

- naturadagi ranglarni birlashtiradigan, ularni bir-biriga yaqinlashtirib, o'zaro bo'sundiradigan yoritilish rangi ta'sirini yetkaza olmaslik.

Ranglarni yaxlit ko'rishda uchraydigan muammolar. Rangtasvirda xuddi qo'shiq san'atida ovoz sozlash kabi, mohirona ko'z qarash ham juda muhimdir. Rassomga o'ta zarur bo'ladigan bu malaka negzini talabalar ongida shakillantirish muammolarini ko'rib chiqamiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, rangtasvir etyudini ishlashda ranglar munosabati naturadagi buyumlar ranglarining uch xil xususiyatini solishtirish usuli orqali aniqlanadi; rang tusi, yoritilishi va to'yinganligi. Bu uch xil alomat har

qanday rangning to'liq tavsifi uchun asosiy hisoblanadi. Biroq, naturadagi ranglar munosabatini aniqlash, ularni galma-gal ko'rish xususiyati bilan mushkullashadi va shu bilan birga qarash, nazar yo'naltirilgan buyumga nisbatan "aniqlikka" moslashadi. Ko'z qorachig'i shunday tuzilganki, u buyumdagi ingichka va yo'g'on chiziqlarni, tusni va kontrastlikni yaqqol ko'radi. Masalan; buyumlar guruhini ikki ko'rinishda joylashtirib, diqqat bilan birinchi ko'rinishdagi buyumlarga razm solask, ikkinchi ko'rinishdagi buyumlar noaniq va xiraroq yoki aksincha, agar ikkinchi ko'rinishga diqqat bilan qarasak ulardagi rang, yorug'-soya, kontrasti hamda mayday bo'laklari aniqroq ko'rinadi.

Naturadagi tus va ranglar munosabatini haqqoniy tasvirlash uchun naturadagi hamma jsmmlarga barobar qarashni qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Agar ochiq deraza oldida turgan guldastani tasvirlamoqchi bo'lsak, bir vaqtning o'zida ham gullarni, ham deraza pardasini va deraza ortidagi shahar ko'rinishini ham kuzata bilish lozim. Manzara rangtasvirini ishlash jarayonida har bir bo'lak joy tusini alohida emas, aksincha yaxlit tusda ko'ra bilish, hamda ularning o'zaro munosabatini ham sezish; eng ochi osmon, eng to'qi balkim yer, ularning orasida suv.

Naturaga keng va umumiy qaray olish qobiliyatini rivojlantirish uchun rassom pedagoglar bir qancha amaliy usullarni ishlab chiqqanlar. Ulardan biri hamma narsani birdek saqlash; naturani kuzatish jarayonida ko'zni biroz "qisib" qarashdir. Ko'zni qisib qaraganda unga tushayotgan yorug'lik kuchi kamayadi va buning natijasida xuddi oqshom payti kabi naturadagi ikkinchi darajali detallar xiraroq ko'rinadi. P.P. Chistyakov yorug'-soya va rang munosabatlarini aniqlash uchun shunday maslahat bergan; "Doimo qalamda yorug'-soya topishda va koloritda "hayolan" ko'z oldida yassi bir oynani faraz qilish lozim: u munosabatlarni yaqqollashtiradi, usiz esa hamma narsa alohidalashib ketadi".¹¹

R. Flak ham shunday maslahat bergan: "Manzaraga shunday qarash kerakki, u bamisoli deraza oynasi yuzasida mujassamlashgan bo'lsin. Bu munosabatda avval deraza ortidagi manzarani ishlash foydalidir...".

Talabalarda yaxlit ko'rish va naturaning hamma bo'laklarini barobar solishtirish qobiliyatini shakillantirish- bu barcha davrlarda rangtasvir ta'limida muhim masalalar qatoridan joy olgan. Agar talaba bu masalalarni yechish yo'llarini dastlabki mashg'ulotlardayoq qidirmasa, kelgusi ishlarida ijobiy natijalarga erisha olmaydi.

Bo'laklar ustida ish olib boorish jarayonida predmetlar guruhini yoki butun predmetini yaxlit ko'rish zarur. Naturadagi alohida qisimlarni yaxlit ko'rmasdan turib, yakka ko'rish mumkin emas. Bu jihatni amalda to'g'ri qo'llash ishning maqsadli amalga oshirilishida asos bo'ladi.

Tasvirning yaxlitligi va kompazitsiya markazini aniqlashda mavjud muammolr. Bugungi kunda talabalarning mashg'ulotlarini kuzatish va ularning manzara ishlash jarayonida yo'l qo'yayotgan xato va kamchiliklarini o'rganish natijasida shkillar puxta, tasvir yaxlit saqlangan etyudni yakuniga yetkazish borasida ham bir talay muammolar mavjudligi aniqlandi. Bu jarayonda talaba buyumlarning hamma bo'laklari, ularning rang va tus dog'lari turli fazoviy ko'rinishlarda joylashtirilgan va bir xil urg'u-kuchlanishda tasvirlayotganligini kuzatdik. Bu holda keyingi qatordagi buyumlar birdaniga ko'zga tashlanib manzara etyudini maydalashtirib yubormoqda. Ularda bunday muammolarning mavjudligi naturani bir-butun ko'ra olmasligi va kompazitsiya markazini topa olmasligi natijasida vujudga kelmoqda. Tasvirni yaxlitligi va birligi -bu nafaqat yaxlit ko'rishning, balki asosiyni, ya'ni kompazitsiya markazini aniqlash hamdir. Rangli tasvirning yaxlitligi borasida ya'ni asosiyni va ikkinchi darajali bo'laklarni o'zaro mutanosib unsurlarni birlashtirib yagona asar ko'rinishiga keltirish jarayonida talaba tomonidan bir qator xatoliklar ucharamoqda.

Asosiy ko'rinishdagi buyum va narsalar manzara ko'rinishi optik markazi yaqinida joylashgan bo'ladi. Uni ajratishda talaba detallarni umumlashtirish, kompazitsiya markazidan uzoqlashayotganda buyumlardagi tus va rang munosabatlarini asosiyga bo'ysundirish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Ma'lumki, kuzatilayotgan obyetni badiiy idrok etish va haqqoniy tasvirlash uning obrazli ko'rinishini tanlash hamda umumlashtirish natijasida yuzaga keladi.

Inson buyumlar guruhiga nazar tashlasa, doimo ko'z nimanidir ajratib, alohida yaqqol ko'radi, nimanidir esa yaxshi ilg'ay olmaydi, ana shu ko'rish markaziga bo'ysunadi. Ko'rish obrazining bu markaziy qismi eng kuchli yorug'lik va ranglar kontrastiga ega bo'ladi. Ko'rish maydonining chekka joylarida detallarning aniqligi, yorug'-soya va rangning kontrasti kamayib boradi. Talaba mashg'ulot jarayonida bu xususiyatni hisobga olib va unga moslashtirilgan butun tasvirni umumlashtirishga va kompazitsiya markazini ajratishga harakat qilishi lozim. Ana shunday jihatlarni mukammal egallash orqaligina talaba vazifani to'g'ri va maqsadli amalga oshirish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Shu kungacha mustaqil ishlarning mazmunu va ularni to'g'ri tashkil etish borasida birmuncha ishlar amalgam oshirilib kelinmoqda. Ammo shunday bo'lishiga qaramasdan tasviriy san'at darslarida *manzara ishlash mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etishda ayrim muammolar* mavjudligi bu jarayonni o'rganish natijasida aniqlandi.

Tasviriy san'at darslarida manzara ishlash mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlar mavzulari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib bunda talabalar atrofdagi narsa va hodisalarni o'ziga qarab tasvirlash layoqatiga ega bo'lish bilan bir qatorda xotira, tasavvur va xayoldan rasm chizishlari asosida yetarli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lib boradi. Talabalarining bunday darajaga erishishlarida mavzu bo'yicha berilgan o'quv soatlari yetishmaydi. Bunday vazifalarni akademik soatlar hisobiga o'rganish bo'lajak rassom-pedagoglar tayyorgarligi uchun yetarli emas. Shunday ekan bu mavzu bo'yicha talabalar bilimini oshirishda mustaqil ishlarning ahamiyati juda katta bo'lib qolmoqda.

Tasviriy san'at darslarida manzara ishlash mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish quyidagi shakillarda olib borilishi ko'zda tutilgan.

1. Bevosita o'qituvchi rahbarligida o'quv xonalarida bajariladigan ishlar;
2. O'quv soatlaridan tashqari vaqtda (uyda, shahar va qishloq ko'chalarida, hayvonot bog'ida va. h. k.) bajariladigan ishlar;
3. Yozgi plener (ochiq havoda rasm ishlash) amaliyoti davomida bajariladigan ishlar;

4. Turli tasviriy san'at to'garaklarida, ko'rgazmalarda va qadimiy ziyoratgohlarga tashriflar vaqtida bajariladigan ishlar va.h.k.

Mustaqi ishlar o'quv soatlaridan tashqari vaqtda qoralama va ranglavhalar bajarish uchun eng yaxshi imkoniyat yaratadi.

Yuqoridagi shakllarda tashkil etilgan mustaqil ishlar talabalarda turli mavzularni, holatlarni o'rganishda, kuzatuvchanlikni o'stirishda, ko'ruv idrokini boyitishda, tafakkur va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda va turli materiallar hamda turli texnikaviy ishlash usullari malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Mustaqil ishni tashkil etish va talabalar ishining samarasi, bir qator sharoitlarga bog'liq bo'lib bulardan quyidagilarini aytishimiz mumkin.

1. Talabalarning manzara ishlash mavzusi bo'yicha mustaqil ishini o'qituvchi tomonidan asta-sekin, oddiydan murakkabga borish asosida metodik puxta o'ylangan rejaga muvofiq tashkil etilishi va bu jarayonga vaqtinchalik faoliyat deb qaramasliklari;
2. Talabalarning chizayotgan chizgilarining ma'nosini va ahamiyatini tushuntirish, doimiy ravishda chizishlari hamda faollik darajasi;
3. Talabalarni xotiradan, tasavvurdan va xayoldan rasm chizishni o'rganishlarini tashkil qilish.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda o'qituvchining shaxsiy ibрати (chizib ko'rsatishi), darsdan tashqari vaqtdagi maslahatlari, mustaqil ishlarni ko'rgazma qilish, talabalarning mavzu tanlashlariga yordamlashishi, fikr almashishlari ham o'rganuvchilarga ijobiy ta'sir qiladi. mustaqi ishlarni bir tizimga solish va doimiylikini ta'minlash maqsadida talabalarga ma'lum bir kunni tanlash kerakki, shu vaqtda ishning mazmuni, maqsadi aniq va tushunarli taqdim etilishi, metodik ko'rsatmalar berilishi lozim.

Mustaqil o'quv soatlarida qo'yilgan xato va kamchiliklar uchun o'qituvchi tomonidan berilgan tanbeh talabalarni mustaqil ishidan cheklash, o'z kuchiga ishonmasliklariga olib kelishi mumkin, o'ziga xos tajriba sifatida u yoki bu materiallardan foydalanishlarini qo'llab-quvvatlash ularning faolligini oshirish mumkinligini unutmaslik kerak.

Bugungi kunda bunday jarayonni to'g'ri va maqsadli amalga oshirishda, yuqoridagi jihatlarni faoliyatga tadbiiq etishda kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Bu muammolarning oldi olinsa, mustaqil ishlarni tashkil etish borasida har bir pedagog ma'lum bir avvaldan o'ylangan puxta rejaga asoslansa talabalarda ta'lim olish samarasi yanada oshadi deb o'ylaymiz.

1 bob bo'yicha xulosa.

Mazkur bobda uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida tasviriiy san'at o'qituvchisini kasbiiy tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayonida kasbiiy jihatdan madaniyatli, milliiy qadriyatlar asosida shakllantirish, uning pedagogik mahoratini shakllantirish, shuningdek, pedagogik mahoratni qaror toptirish masalalari bilan shug'ullangan olimlar A.Aliev, X.Abdukarimov, A.A.Verbitskiy, V.K.Dyachenko, B.S.Kuzin, A.A.Melik-Pashaev, B.M.Nemenskiy, B.Oripov, N.Oydinov, Z.N.Novlyanskaya, N.N.Rostovtsev, T.Ya.Shpikalova, B.P.Yusov kabilarning ilmiy tadqiqotlari o'rganildi.

Ularning tasviriiy san'at o'qituvchilarini kasbiiy tayyorlashda ixtisoslik o'quv fanlari misolida muammo hal etilmaganligi faktik ma'lumotlarda o'z isbotini topdi. Mazkur tadqiqod ishimizga keng aloqador bo'lgan ishlardan faqatgina B.Boymetovning bo'lajak tasviriiy san'at o'qituvchilarini milliiy san'at namunalari asosida tayyorlash kabi ilmiy ishida tadqiq etilgan bo'lsa-da, aynan bo'lajak tasviriiy san'at o'qituvchilarini manzara kompozitsiyasini ishlashga qaratilmaganligi va kasbiiy tayyorlash masalasi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Shuningdek ushbu bobda quyidagi masalalarga e'tibor qaratildi:

1.Talabalarni manzara kompozitsiyasini tasvirlashga o'rgatishda shakllar nisbatlari rang munosabatlarini aniqlashda yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganib chiqish.

2. Manzara kompozitsiyasini tasvirlashda shakl munosabatlari qonunlari, manzara kompozitsiyasining umumiiy rangi va materialliligini ko'rish va his qilish.

3. Ko'rish orqali idrok qilishning fiziologik va psixalogik qonunlarini idrok etish.

4. Bizni o'rab turgan olamdagi barcha narsalarning nafaqat konstruktiv qurilishlarini, balki ularning turli nisbatlari, xarakterli xususiyatlarini anglash.

5. Manzara kompozitsiyasini tasvirlashda manzarada uchraydigan shakllar (tog'u-toshlar, maysalar, butalar, inson qomati va b.) obektlarni chizayotganda uning haqiqiy kattaligini his qilgan xolda ularning perspektiv qisqarishlarini hisobga olish.

Manzarada tus shakl munosabatlarining yorug'ligi, rangi va ularga bog'liq bo'lga materiallilik xususiyatlarining kun vaqtlarida yorug'likning o'zgarishiga qarab keskin o'zgarishi, kunduzi, kechqurin, ochiq kun, havo bulut paytidagi xolatlariniqanday ranglarda bo'lishini taxlil qildik.

II bob. OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI MANZARA KOMPOZITSIYASINI ISHLASHGA O'RGATISH METODIKASI.

II.1. Talabalarning ixtisoslik fanlaridan auditoriyada olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini ijodiy jarayonda qo'llash hamda tasviriy san'atdan malakali kadrlar tayyorlash metodikasi.

Oliy pedagogik ta'limda tasviriy san'atdan malakali kadrlar tayyorlashda bir biri bilan uzviy bog'liq bir necha ixtisoslik fanlari mavjud bo'lib, ular bo'lajak mutaxassis kadrlarni tayyorlashda ahamiyati katta. Manzara kompozitsiyasini tuzish va tasvirlash mashg'ulotlari o'quv jarayonida boshqa fanlarda jumladan qalamtasvir fanidan olingan bilimlar bilan uzviy bog'liq holda olib borishning ahamiyati juda katta. Qalamtasvirning manzara ishlashda ahamiyati va uning o'rni, maqsad va vazifalariga to'xtalib o'tsak, bu fan barcha tasviriy sana't fanlarining asosiy ildizi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Shu kungacha barcha ijodkorlar o'zining kuzatishlari, har qanday asar kompozitsiyasi ustidagi izlanishlarini dastavval qalamchizgilarda amalga oshirib kelishgan. Bu izlanishlar, qoramalar rassomga tug'ilajak yangi asar kompozitsiyasida muhim manba' bo'lib xizmat qiladi. Qalamtasvir mashg'ulotlarining o'rni nafaqat rassomlar uchun yoki maxsus yo'nalish talabari uchun balki boshqa kasb egalari uchun ham borliqni his qilish, idrok etishda, qo'l, ong va sezgi a'zolarining faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Uyg'onish davrining buyuk rassomi Leonardo da vinchi o'zining "Rangtasvir qonunlari" nomli asarida ta'kidlaganidek "yoshlar o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim."

Qalamtasvir fani bakalaviriyat talabalariga to'rt yil mobaynida ham nazariy ham amaliy mashg'ulotlar asosida o'rgatiladi. Bu davrda talabalar qalamtasvirga oid juda ko'plab bilimlarga nazariy va amaliy jihatdan ega bo'ladilar. Shu davrda talaba qalamtasvirning mohiyati, mazmuni, maqsad va vazifalarini chuqir egallashi lozim. Bizga ma'lumki tasviriy san'at atrof muhit, borliqni keng va chuqur o'rganish natijasida, aniq fanlar kabi tabiatni ilmiy jihatdan tahlil etish orqali vujudga keladi, o'rganiladi. Shuning uchun talaba tabiatni qanchalik kuzatsa, sevsa

uni o'rganish yo'lida turli tadqiqot va izlanishlar olib borsa bu sohada yuksak natijalarga erishadi.

Qalamtasvir fanida olingan nazariy va amaliy bilimlar manzara ishlash mashg'ulotlariga to'g'ri va maqsadli joriy etishning o'rne juda muhim vazifa hisoblanadi. Qadimdan tasviriy san'atning negzi bo'lgan qalamtasvirning boshqa san'at turlaridagi o'rne, ahamiyati buyuk rassom va nazariyotchilar, tadqiqotchilar tomonidan chuqur tadqiq qilinib kelinmoqda. Jumladan qalamtasvirning rangtasvirdagi o'rne haqida Sharl Lebren "Qalamtasvir doimo bizga yo'l ko'rsatib turuvchi qutb va kompos bo'lib, turli bo'yoqlar okeanida cho'kayotganlarga najot berish omilidir" deya ta'kidlaydi. Buyuk haykaltarosh Mekelanjelo esa qalamtasvirda "har qanday limning ildizi va negzini ko'rgan."

Tasviriy san'at yo'nalishi talabalarini manzara ishlashga o'rgatishda asosiy vazifalardan biri bu qalamtasvirda olingan bilimlarni shu mavzuga tadbig'ini amalga oshirish metodlarini to'g'ri ishlab chiqish hisoblanadi. Bu jarayonda pedagogning vazifasi yosh ijodkorda manzara obyektlarini masofadan ko'rish va uni tasvirlash mahoratini, manzara ko'rinishlari, undagi predmetlarning fazoviy holatini, jismlarni "hajmdor" tarzda, uch o'lchamli (balandligi, eni, bo'yi) shaklda, perspektiva qonunlariga bo'ysingan holda ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Bizga ma'lumki manzara qalamtasvirini ishlash mashg'ulotlarining asosiy vazifasi naturadagi obyektlarning o'lchamlarini to'g'ri tasvirlagan holda realistik ko'rsatib bera olishdan iborat. Bu maqsadga qalamtasvir mashg'ulotlarining dastlabki mashg'ulotlari ko'z bilan chamalash (masofa, manzara obyektlarining bo'yini eniga, bo'yini balandligiga v.h.k.) qobiliyatini uzluksiz tarzda rivojlantirish orqali erishiladi. Manzara qalamchizgisini bajarishda nisbatlar munosabatlari juda muhim qonun hisoblanadi. Chunki manzara ko'rinishida juda ko'p predmet va shakllar mavjud, bunday holat talabaga birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Talabalarda manzara ishlash ko'nikmasini qalamtasvir qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirmasda shakllantirib bo'lmaydi.

Talabalarni manzara ishlashga o'rgatishni umumiy ko'rinish, uning alohida obyektlarini kuzata bilish, tahlil qilish, idrok etish qobiliyatini rivojlantirishdan boshlagan ma'qul. Shu jarayon o'talsagina, keyinchalik beriladigan bilimlar ishonarli va asosli bo'ladi. Misol uchun manzaradagi turli predmetlarning asosida qanday geometrik shakl yotibdi, manzaraning soddalashtirilgan varyanti qanday? Turli bino ko'rinishlarining qanday geometrik shakllar asosida qurilganligi v. h. k. keyin esa o'quv xonasida olingan geometrik tuzilgan natyurmortni tasvirlashda olingan bilimlarni manzara ko'rinishining qalamchizgisini bajarishga tadbiq etish yo'llari pedagog tomonidan ishlab chiqilishi kerak.

Manzara qalamchizgilarini bajarish jarayoni ham barcha mashg'ulotlar kabi oddiydan-murakkabga tartibida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Masalan manzara ko'rinishini ishlashda uning alohida bo'laklarining qisqa muddatli qalamchizgilarini bajarish yaxshi samara beradi. Misol uchun talba tabiatni birinchi bor tasvirlar ekan ko'rayotgan narsalarni xuddi o'zidek aniq ko'chirib olish kerakdek tuyiladi. Ammo u qanchalik atrof muhitni diqqat bilan kuzatib qarshisida shunchalik rang-barang hodisa, narsalar turganini anglagach ularning hammasini "ipidan-ignasigacha" chizish aslo mumkin emasligini tushina boradi. Agar bizga bir daraxt ko'rinishini chizish vazifasi berilgan bo'lsa unda qancha bargi borligiga emas, balki tanasining asosiy shoxlari atrofda qanday joylashganligiga, qanday qiyalikda ko'rinishiga va nihoyat daraxt po'stining har bir burmasiga emas, balki uning tanasi sathiga xos xususiyatli belgilariga, shakliga e'tibor berishimiz kerak. O'nlab shoxlardan ayrimlarinigina, eng ko'zga tashlanganini tasvirlashimiz, boshqalarini esa umumlashtirishimiz kerak. Uning hajmli bo'lib ko'rinishiga soya va yorug'ning farqli kuchi orqali erishamiz.

Tasvirlanayotgan buyumlar, ushbu buyum yoki obyektning qaysi tomonidan qaralishidan qat'iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan) chizuvchiga nisbatan perspektiva qonunlariga bo'ysungan holda qisqarib ko'rinadi. Manzara perspektivasini talabalarga tushuntirishning eng sodda va samarali usuli bu masalan shahar ko'rinishidagi ko'p qavatli binolarni tasvirlab ko'rsatish bo'lishi mumkin. Bu jarayonad albatta kubni ishlash mashg'ulotida

olingan bilimlarni rivojlantirish kerak. Kubning ko'rinmas qisimlarini tasvirlaganimiz kabi binoning ko'rinmas qisimlarini aks ettirib, shaklning haqqoniyligiga erishishimiz mumkin. Manzara obyektlarini haqqonoy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojat qiladi. Bu holatni shunday tariflash mumkin; "tabiatdagi barcha (narsalar) buyumlar qanday shakilga ega bo'lmasin, perspektiva qonun-qoidalariga bo'ysinadi". Manzarada perspektiva qonunlarining asosiy xususiyati quyidagicha;

Manzara predmetlari qanday kattalikda bo'lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekслиkda qanday joylashganligiga qarab perspektiv qisqaradi. O'z navbatida perspektiva qonuni haqqoniy tasvirlash "alifbos"laridan biri bo'lgan surat tekслиgi, buyum tekслиgi, ko'rish maydoni, ko'rish nuqtasi, ufq chizigi kabi qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liq.

Manzara ishlashda dastlabki amaliy ishni qisqa muddatli qalamchizgilardan boshlash tavsiya qilinadi, ammo, bu ishni tasviriy san'atning yuqoridagi asosiy qonunlarining mazmunini bilmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Bu qonunlar ham nazariy ham amaliy ko'rinishda talabalarga ta'limning dastlabki davridayoq chuqur o'rgatilishi shart. Manzara ishlashda bu qonunlar haqidagi bilimlar yanada chuqurlashib, amliy jihatdan to'g'ri yechilib borilishi kerak. Bu o'rinda albatta pedagogning o'rni muhim bo'lishi lozim. Talabalar tasviriy san'atda olingan bilimlar hech qachon "alohida, muayyan bir mavzu uchun" degan fikirdan xoli bo'lishi lozim.

Manzarada surat tekслиgi-tasvirlanayotgan manzara ko'rinishi yoki obykti bilan, tasvirlovchi orasidagi fazoviy bo'shliqqa aytiladi. Surat tekслиgi tasvirlovchi bilan natura o'rtasidagi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Manzarada buyum tekслиgi deb tasvirlanayotgan manzara tekслиgi, uning obyektlari joylashgan tekслиkka aytiladi.

Ko'rish maydoni-bu chizuvchining tasvirlanayotgan manzarani ko'rish vaqtida qamrab olishidir. Rassom tasvirlanayotgan obyektдан qancha uzoqlashib borgan sari uning ko'rish maydoni ham kengayib boradi. Bu esa tasvirlanayotgan ob'yektning barcha qisimlarini to'la-to'kis ko'rish imkoniyatini yaratadi. Ammo

ob'jektdan juda katta masofaga uzoqlashib ketish ham undagi bo'laklarning hajimdorligini taminlashda birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Odatda rassomlar tasvirlanayotgan ob'jektdan uning kattaligining uch marta ko'paytirilgan masofadan tasvirlash ishlarini olib boradi. Masalan inson qomatini tasvirlashda rassom 5-5.5 masofada ishni olib borishi lozim.

Ufq chizig'i- ufq chizig'i deb kuzatuvchi ko'z balandligidan o'tuvchi hayoliy chiziqqa aytiladi. Ufq chizig'ini oddiy qog'ozni olib uni gorizantal holatda tutib ko'zimiz darajasigacha ko'tarib aniqlash mumkin. Buyum odatda uch xil xolatda bo'lishi mumkin

1. Ufq chizig'idan yuqorida.
2. Ufq chizig'idan pastda.
3. Ufq chizigida (ko'zimiz nuri balandligida)

Ufq chizig'i har doym ko'zimiz nuri balandligidan o'tadi. Agar biz tik tursak u yuqorida, o'tirgan holatda esa pastda kuzatiladi. Talabalarga manzara ishlashda ufq chizig'ining ahamiyatini o'rgatish juda muhim, aks holda talaba manzara ko'rinishining qalamtasvirini qurishda juda ko'p qiyinchiliklar duch keladi. Jumladan obyektlarni perspektiv joylashtirishda v.h.k.Ufq chizig'i talimning dastlabki bosqichlaridayoq pedagog tomonidan ham nazariy ham amaliy jihatdan to'la qonli yoritilib berilishi kerak. Chunki manzara ishlashda talabalar ufq chizig'ini aniqlashda natyurmort va portret ishlashga qaraganda bir muncha jiddiy muammoga duch kelishi mumkin. Bunday salbiy holatlarning oldini olishda turli reproduksiylarning tahlili, pedagog tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali materiallar yaxshi samara beradi.

Manzarada ko'rish nuqtasi. Ko'rish nuqtasi ko'rish maydoni bilan bevosita bog'liq, chunki ko'rish maydonining qanchalik keng yoki torligi ko'rish nuqtasining tasvirlanayotgan manzara markazidan qanchalar uzoq yoki yaqinligini belgilaydi. Ko'rish nuqtasini tanlashda avvalombor tasvirlanayotgan manzara yoki uning alohida obyektlarining qanchalar tasvirlash uchun qulay va chiroyli kompazitsion yechimga ega ekanligiga qarab tanlanadi. Odatda ko'rish nuqtasi manzara ko'rinishini chuqur kuzatish uni tahlil qilish orqali tanlanadi. Tanlangan

ko'rish nuqtasidan bir nechta qalamchizgilar bajariladi. Agar bunday holatda manzara kompazitsiyasining plastikasi to'g'ri yechilmagan bo'lsa, manzara ko'rinishining boshqa tomonidan o'rganilib chiqiladi. Ko'rish nuqtasini to'g'ri tanlash talabadan chuqur bilim talab etadi. Talabada his qilish, idrok qilish, bajariladigan ishning yakuni haqida ma'lum bir tasavvurga ega bo'lish qobiliyatlarining rivojlanganligi v.h.k kabi.

Ma'lumki har bir tasviriy san'at asarida natyurmortda yoki murakkab kompazitsiyalardashu jumladan manzara kompazitsiyasida ham doimo asosiy markaziy predmet yoki predmetlar guruhi bo'lishi shart. Muayyan mavzuning mazmunini belgilovchi asosiy predmetlar kompazitsiyaning markazi hisoblanadi. Kompazitsiya haqida gap borar ekan, u kartina tekisligining gemetirik markazida joylashish kerakligini bildirmaydi. Bunday joylashtirish bazan xunik bo'lib, rasm sathini suniy ravishda ikkiga bo'lib qo'yish mumkin. Odatda sathning markazidan qaysidir tomonga suriladi. Agar uning ro'li muallif mavzusi bo'yicha arziqli movqega ega bo'lsa, doim kompozitsiya markazi sifatida ko'zga tashlanib turadi. Manzara qalamchizgilarini bajarishda bu jarayonlar to'la qonli o'tab bo'lingandan so'ng kunning turli vaqtlarida turli sharoitlarda kuzatib eng maqbul holat aniqlanadi. Mazkur holat va tabiat ko'rinishiga xos bo'lgan umumiy jihatlar idrok etiladi. Ko'rish nuqtasini, ko'rish maydoni va ufq chizig'ni aniqlab olgach har qanday manzara, yoki uning alohida bo'laklarini ishlashda uning konstruktiv tuzilishiga etiborni qaratish lozim.

Chiziqli konstruktiv tuzilish. Har qanday janrdagi kabi manzara ko'rinishida tasvirlanayotgan obyekt va predmetlar malum darajada o'zining murakkab konstruktiv tuzilishiga ega bo'lib ularni tasvirlash, talabadan boshqa mashg'ulotlarda olingan bilimlarni yanada rivojlantirishni talab etadi. Chunki manzarada mavjud har predmet hoh ubir tosh yoki har bir daraxt bo'lsin o'zining murakkab konstruktiv tuzilishiga ega. Ular natyurmort qo'yilmasidagi olma, shaftoli va boshqa qo'yilmalar kabi soda tuzilishda emas. Ularning o'zigagina xos xususiy va umumiy tomonlari mavjud. Bu jihatlarni talaba avvalombor chuqur anglashi his qilishi, idrok etishi lozim. Misol uchun olma daraxti yong'oq

daraxtidan o'zining konsturiktiv tuzilishi jihatida manzara qalamchizgisini bajargandayoq farqlanishi ularning o'ziga xos jihatlari topilishi shart.

Konstruktsiya so'zi tuzilish qurilish degan ma'noni berishini bilamiz talaba manzara ishlash jarayonida ham natyurmort, portret ishlashda amal qilgan bu qonunga bevosita amal qiladi. Manzara obyektlarining haqqoniy ta'surot berishida ularning chiziqli konsturiktiv qurilishiga katta ahamiyat qaratishi lozim. Manzarada chiziqli konsturiktiv qurilishini amalga oshirish uchun uning asosiy qisimlaridan yordamchi chiziqlar o'tkazib topiladi. Bu jarayon natyurmort ishlashdagidek yengil o'talishi uchun Qalamtasvirda olgan bilimlarini to'laligicha amalda qo'llay olishi lozim. Yuqorida ko'rib o'tilgan manzarada qalamtasvirning o'rni haqidagi eng muhim bilimlar bu fanning nechog'lik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Peadgog manzara ishlash mashg'ulotlarini tashkil qilishda talabaning oldingi bilimlarni rivojlantirishga ahamiyatini qaratish lozim, manzara ishlash mashg'uloti esa bu ishni amalgam oshirish uchun eng maqbul mashg'ulot bo'lib xizmat qiladi.

Manzara ishlash mshg'ulotlarida perspektiva fanidan olingan bilimlarning o'rni juda muhim. Chunki turli ko'za, chelak va boshqa aylanish sirtlaridan iborat buyumlarning aylana qismlari umumiy vaziyatda ellips yoki to'g'ri chiziq holatida, o'zaro parallel bo'lgan temir yo'l relslari esa bizdan uzoqlashgan sari bir nuqtada uchrashgandek bo'lib ko'rinadi. Balandliklari bir xil bo'lgan simyog'ochlarning uzoqda joylashganlari boshqalariga nisbatan kichik o'lchamda korinishini bunday hodisalarning biror qonuniyatlarga asoslanishini perspektiva fani o'rganadi. Manzara ko'rinishidagi narsalarning ko'zimizga o'z shakliga nisbatan biroz o'zgarib ko'rinishi, yetuk rassomlarning realistik asarlaridagi chuqurlik fazosining to'la qonli ochib berilishi sabablari bir necha asrlardan buyon o'rganilib kelingan va perspektivaga asos solingan. Perspektiva fani tabiatdagi narsalarning ana shunday ko'rinishini tekslik yoki biror sirt ustida tasvirlash usullarini o'rganadi.

Perspektiva fransuzcha so'z bo'lib, la perspective- uzoqqa qarash yunonchasiga esa-perspistor- oyna orqali to'g'ri va aniq ko'rayapman degan ma'noni beradi.

Agar markaziy proyeksiyalash insonning ko'rish xususiyatiga moslashtirilsa, yasalgan tasvir yaqqol va ishonchli chiqadi. Perspektiva-tasviriyy san'atning gramatikasidir, chunki yaratilgan har qanday realistik rassomlik asari perspektiva nazariyasi asosida bajariladi. Shundagina bu asarning to'g'ri qurilganligi yoki hayotiyli ta'minlanadi. Agar tasviriyy san'at asari bunday qoidalarga amal qilinmasdan yaratilsa, ilimli kuzatuvchilar "bu kartinada perspektiva yo'q", oddiy tomoshabin "bu kartinada narsalar o'ziga o'xshamabdi" degan fikrga keladilar. Perspektiva fani realistik tasvir yaratishda ilmiy ba'za hisoblanadi va narsalarni ko'z o'ngimizda qanday ko'rsak, shunday tasvirlashga yordam beradi. Shunday ekan bu fanning har bir bilimlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rgatish, manzara ishlash mashg'ulotlarida ularni qo'llash talabalarning tasvirlashda yuqori darajaga erishishda xizmat qiladi.

Talabalarga perspektiva faniga oid bilimlarni berishda turli yetuk rassomlar tomonidan yaratilgan badiiy asarlarni tahlil qilish ko'nikmasini shakillantirish ham muhim hisoblanadi. Talaba turli mavzuga oid asarlarni perspektiv jihatdan tahlil qila olsa, amaliy mashg'ulotni bajarish jarayonida bu bilimlarni qo'llashi oson kechadi. Pedagog manzara ishlash mashg'ulotlarini tashkil qilishda har bir fanning jumladan perspektiva fanining mashg'ulotni bajarishdagi o'rni va mohiyati haqida bilimlar berishi kerak. Fanning mavzuga oid bilimlarini yoritishda turli metodik ko'rsatmalarga asoslangan holda dars ishlanmalari va boshqa ko'rgazmali materiallar to'plashi va ulardan mashg'ulotlar jarayonida samarali foydalanishi lozim. Misol uchun "***Badiiy asarlarni perspektiv tahlil qilish***" mavzusida quyidagi kabi materiallarni talabalarga taqdim qilishi mumkin.

Har bir rassom o'zining badiiy asarini mukammal yaratilishiga, kompazitsiya jihatdan mustahkam bo'lishiga, kishilar ruhiyatiga turlicha ta'sir etishiga erishishi uchun ufq chiziqni va undagi ko'rish nuqtasini har xil burchakda, past, baland joylashtirib ta'sir ko'rsatishga harakat qiladilar.

Masalan, tabiatni "kuylash" uchun ufq chizig'ini kartinaning o'rtarog'iga oladi. Yerning "portreti"ni tasvirlash uchun ufq chizig'ini balandroq yoki osmondagi voqealarni tasvirlash uchun esa ufq chizig'ini pastroqdan o'tkazadilar.

Odatda, rassomning surat ustidagi ishi kompazitsiyani tanlash, chizmalar va eskizlar chizishdan boshlanadi. Unda rassomning ilik syujet fikrlari, harakatlanayotgan shaxslar va ularni o'rab turgan atrof muhitning kompazitsiyon joylashuvi ifodalanadi. Chizmalar perspektivaning umumiy qonun-qoidalariga asoslangan holda chiziladi, biroq unda chiziq yo'llari deyarli ko'rinmaydi.

Rassom o'z fikrini ifodalash uchun perspektiv tasvirning muayyan shartlaridan foydalanadi. Bunda eng asosiy etibor ko'rish nuqtasini to'g'ri tanlash va ufq chizig'ining balandligi, yorug'lik manbai o'rni va narsa buyumlarning aks tasviriga qaratadi. Bularning barchasi manzara kompazitsiyasi xususiyatiga va suratni ko'rayotgan tomoshabin harakatiga ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, tomoshabin e'tiborini suratning aniq bir joyiga yo'naltirish uchun rassom kompazitsion markazdan foydanadi. Bu perspektivaning chuqurligi P bosh nuqtada belgilanadi. Bu holat I. Levitanning "Mart", I. E. Repinning "Kutmagan edilar", P. A. Fedatovning "Mayorning uylanishi" kabi asarlarda yaqqol ko'rinadi.¹²


Asarni perspektiv tahlil qilish jarayonida ufq chizig'ining joylashuvi va undagi bosh nuqta, masofa "distansion" nuqtalari o'lchovlarining joylashuvi aniqlanadi. Shuningdek, kartinaning masshtabi va perspektiv tasvirdagi asosiy buyumlarning haqiqiy o'lchamlari hamda rassomning ko'rish burchagi ham aniqlanishi lozim.

Suratning asosiy elementlari tiklash va perspektiv tasvirdagi buyumlarning o'lchamlarini aniqlashga kartinani rekonstruksiya qilish deyiladi.


Levitanning "Mart" asrida kartina elementlari o'zgacha ifodalangan. Avval tomning o'zaro parallel chiziqlari kesishishidan P bosh nuqtani aniqlaymiz va bu nuqta orqali kartina asosiga parallel qilib hh ufq chizig'i o'tkaziladi.

Distension masofani aniqlash uchun ufq chizig'ini kesib o'tguncha gorizantal chiziq devor yonida qiya holatda turgan taxta chekkasi va kartinaning chap tomonidagi qorli qiyalik yuzasi bo'ylab o'tkaziladi. Ular to'g'ri burchak tomonidan F_1 va F_2 uchrashish nuqtalari o'rnini aniqlaymiz. F_1 F_2 masofani teng ikkiga bo'luvchi nuqtani markaz qilib F_1 va F_2 nuqtalardan o'tuvchi yarim aylana


chiziladi. P bosh nuqtadan ufq chizig'iga perpendikulyar chiziq chiqarib, aylanada S ko'rish nuqtasi belgilanadi. SP bosh masofa yordamida distansion D_1 va D_2 nuqtalar aniqlanadi. Distansion masofa bu yerda minimal, u taxminan surat diagonaliga teng. Kartinada tasvirlangan uy derazasining yerdan balandligining haqiqiy o'lchami 1,20 m ekanligini aniqlaymiz. Ushbu o'lcham ufq chizig'i balandligi 2,60 m ni tashkil etganini aniqlashga imkon beradi. Oxirida suratning ko'rish burchagini aniqlaymiz.




I. Levitan. "Mart"




P. A. Fedatov "Mayorning uylanishi"



I. E. Repin "Kutmagan edilar"



Kuzatish perspektivasining manzara ishlashdagi o'rni juda ahamiyatlidir. Misol uchun turli qurilishlar ketayotgan joylarni kuzatsak turli xil g'isht yoki beton bloklari turli xil tartibda joylahganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan quyidagi kabi.



Yirik qurilayotgan bu binolar uchun keltirilgan bloklar o'lchamlari turlicha va turli joylarga tashlab qo'yilgan. Ular gorizantal tekislik H ga nisbatan turli (qiya,

og'ma) vaziyatlarda turibdi. Demak, perspektivada biror bir narsaning tasvirini chizishdan oldin, uning qanday vazuyatda joylashganligini o'rganib chiqishimiz lozim. Narsalarni tasvirlashda ufq chizig'ining ahamiyati katta. Ufq chizigini aniqlash eng muhim masala, chunki ko'p jihatdan ishning tasirchanligi va maqsadliligi ufq chizig'ining qanday tanlanganligiga bog'liq.

Polotnoda jismlarni yuksak mahorat bilan ishlash uchun chiziqli perspektiva xizmat qiladi. Bizning qarshimizda turgan qog'ozni "kenglikdagi deraza" sifatida ko'rib chiqa turib, bizga yaqin bo'lgan jismlarni olisdagilarga nisbatan yirikroq qilib ishlashimiz kerak.

Perspektiva kenglikdagi shakillar tasvirini ishlash qoidalarini, jismlarning tasvir hamda tabiatdagi ko'rinishi o'rtasidagi farqni ko'rsatib beradi. Bunda u "nima uchun bir xil jismlar inson ko'zidan turli masofalarda joylashganida o'lcham jihatidan turlicha bo'lib ko'rinadi" degan savolga javob beradi.

Bizning ko'zlarimiz oddiy ko'rinishda jismdan qaytuvchi yorug'lik nuri o'tadigan optic sistemaga o'xshab ketadi. Kundizi yorug'lik vositasi sifatida quyosh katta ahamiyat kasb etsa, tunda elektr chiroqlar hamda oy, yulduzlar shu'lasi yorug'likni ta'minlab beradi. Jismlarning o'zi yorug'lik manbai bo'lib hisoblanmaydi. Yorug'lik ko'z gavharida sinadi va nurni his etib jism tasvirini hosil qiluvchi to'r pardaga tushadi. Jism bizga qanchalik yaqin joylashgan bo'lsa, jismlarning chekka nuqtalari orasidagi burchak shunchalik katta bo'ladi va o'z navbatida ko'z to'r pardasida ham katta tasvir paydo bo'ladi. Shu sababli ham jismlarning o'lchami to'r pardada o'z aksini topadi. Ushbu holat qadimdan, Uyg'onish davrida aniqlangan va u hozirgi kunga qadar perpektiv qisqarish fanining asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Barcha jismlar va ularning qismlari masofaning ortishi bilan tomoshabin ko'z o'ngida proportsional ravishda qisqarib borayotgandek tuyiladi. Bunda jismlarning balandligi, kengligi va uzunligi tublik sari qisqarib boradi. Uzoq masofada joylashgan jismlar yaqindagilarga nisbatan uzoqroq, relefsiz ko'rinishda bo'ladi.


Turli nuqtalarda joylashgan jismlar tasvirini ishlashda gorizont chizig'I qo'l keladi. U rassom ko'z balandligi darajasida olinadi va uning yordamida perspektiv

o'zgarish jarayonini kuzatish mumkin. Bunda asosiy birlashish nuqtasi muhim ahamiyatga egadir. U gorizont chizig'I va ko'rish maydonining markazida joylashadi. Rasm chizish yuzasiga ko'ra jism ikki xil holatda bo'lishi mumkin: keskin old taraf bilan (frontal) va ko'zga nisbatan istalgan burchakda.

Masalan, old tomoni bilan joylashgan kub asosini chizish davomida qog'ozda rasm yuzasi va gorizont chizig'I belgilab olinadi. So'ng ko'rish nuqtasining rasm yuzasining buyum tekisligiga nisbatan balandligini belgilab beradi.

Perspektiva qoidasi quyidagi tamoyilni ilgari suradi: parallel chiziqlar bir-biridan uzoqlashgan sari nuqtada birlashgandek tuyiladi.

Kvadratning old tomoni va birlashish nuqtasi belgilab olinganidab so'ng, birlashish nuqtasi tomon chiziqlar tortiladi. Bunda to'g'ri burchaklar (oldingi ikki burchak) o'tkir va (orqa tomondagi burchaklar) o'tmas burchaklarga aylanib boradi. Uzoqlashib borayotgan tomonlar (yon tomonlar) esa brogan sari bir-birlariga yaqinlashib boradi. So'ngra kvadratning ikkinchi tomoni belgilanadi va



asos hosil qilinadi. Gorizont chizig'i tomon harakatlangan gorizont chiziqlar qisqaragan ko'rinishda chiziladi.

Tasodifiy burchakda joylashgan kub tasvirini ishlashda faqatgina bir nuqta (bitta burchak) rasm chizish maydonida joylashgan bo'ladi, uning ikki parallel chiziqlarning uzunligi qisqaradi va gorizont chizig'iga nisbatan ikki xil yo'nalishda joylashadi. Bunda bitta birlashish nuqtasi o'ng tomonda, ikkinchisi esa chap tomonda bo'ladi. Bunday holatda kvadrat to'g'ri to'rtburchak ko'rinishida bo'lmaydi va uning ikki burchagi o'tkir va boshqa burchaklari o'tmas ko'rinishga ega bo'ladi.

Perspektiv qisqarishga uchragan barcha jismlar tasviri xuddi bir ko'zning ko'rish maydonidagi ko'rinishi bo'yicha chiziladi deb hisoblanadi. Chunki ko'z qorachiq-lari orasidagi o'lcham 6 sm gat eng, hamda rassom va jism orasidagi masofaning olisligini hisobga oladigan bo'lsak, bu oraliq katta ahamiyat kasb etmaydi.

Yuzada joylashgan to'g'ri chiziqlar gorizontning parallel chiziqlari qisqarmaydi. Balki masofa olislashgani sari ularning o'lchami kichrayib boradi.

Rassomga nisbatan turli masofalarda joylashgan vertical chiziqlar o'lchami bo'yicha turlicha chiziladi.

Kubning hajimli ko'rinishini chizish uchun kubning asosini chizish qoidasidan foydalanish mumkin. Bunda kub old tomoni bilan joylashtirilgan bo'lsa, barcha parallel tomonlar bir nuqtada birlashadi, kub biror burchak ostida ko'rinsa, uning tomonlari birlashish nuqtalarida birlashadi.


Tik holatdagi vertical slindr tasvirini ishlash gorizantal holatdagi slindrga nisbatan oson. Biz gorizantal holatdagi slindrni old tomoni va turli burchaklarda joylashgan ko'rinishini ko'rib chiqamiz. Biror burchak ostida gorizantal joylashgan slindr tasvirini ishlash jarayonida odatda uning asosi perspektiv qisqarishga duch keladi (aylana ellips ko'rinishini oladi). Slindrni old tomonidan, frontal ko'rinishda tasvirlaganomizda bu holat kuzatilmaydi. Bunda asos o'qi aralashib ketadi va slindr balandligi bo'yicha qisqaradi.

Yuqoridagi fikirlardan kelib chiqqan holda rasm chizishga kirishishdan oldin quyidagilarni aniqlab olish kerak:



1-jismning tasvir bajariladigan yuzaga nisbatan kenglikdagi holati, frontal (old tomoni bilan joylashgan) yoki ko'rish nuqtasiga nisbatan biror burchak ostida joylashgan.

2 –jismlar tuzilishini hosil qiluvchi to'g'ri chiziqlar yo'nalishi (vertical, gorizantal, ufq teksligiga nisbatan ko'rinishi).

3 –Bir-biri bilan parallel bo'lgan chiziqlarning bir nuqtada kesishishi.



4 –Bir-biri bilan parallel bo'lgan chiziqlar guruhining ufq chizig'ida taxminiy birlashish nuqtalarini topish.



Fazoviy perspektiva. Rasimda shartli tublikni aks ettirishda shuni yodda tutish kerakki, jism rassomdan ma'lum masofaga uzoqlashganida uning rangi, toni, va qirralarining aniqligi o'zgarishini ko'zda tutuvchi yorug'lik- samoviy perpektiva qoidasi mavjuddir. Bizga yaqin joylashgan jismlar nisbatan yaqinroq ko'rinishga ega bo'ladi va biz ular yuzasining o'ziga xos xususiyatlari haqida ko'proq malumotga ega bo'lamiz. Ular bizdan uzoqlashgani sari tondagi contrast yumshoqlashib boradi, ranglar o'z kuchini yo'qotib boradi, jismlarning kontrlari xiralashadi.

Tabiatdagi kuzatuvlarimiz natijasida shuni ko'rishimiz mumkinki, bir muncha masofaga yiroqlashgan jismlar tutun bilan qoplanganga o'xshash ko'rinishga ega bo'ladi. Optika qoidalaridan ma'lumki yorug'lik nurlari oddiy sharoitlarda to'g'ri chiziqli bo'ylab tarqaladi va turli jismlarda turlicha aks etadi. Biz ba'zi jismlarni och rangda ko'ramiz, boshqalari esa to'q angda namoyon bo'ladi. Ko'zimizga yaqinda joylashgan jismlardan uzoqdagilariga nisbatan ko'proq yorug'lik tushadi. Shu sababli ham yaqindagi jismlar nisbatan aniqroq va yorqinroq, olisdagilari esa xira, chalkash va och rangda ko'rinadi.

Havo har doim ham musaffo bo'lavermaydi uning tarkibida turli kimyoviy moddalarning zarralari, bug'lar, changlar va h. k. mavjud bo'lib, hamda ular jism kontrini aniq ko'rishga xalaqt beradi. Shuning uchun biz tugatilgan rasmni tomosha qilganimizda aniq kontrlar bilan ishlangan jismlar yaqinda, xira ton berilganlari esa uzoqdagi jismlar bo'lib ko'rinadi. Yorug'lik miqdori va ob-havoning o'zgarishi yorug'lik soyasining kontrastiga va umumiy ko'rinishga ta'sir qiladi.

Masofaning o'zgarishi bilan jismlarning rangi o'zgarib boradi va ko'kish tus oladi, yuzaning rang farqlari yumshab boradi hamda gorizontda ranglar birlariga yaqinlashib, birlashib ketadi va havorang ko'k rang ko'rinishda bo'ladi.

Yorug' soyaning keskinligi avvaliga kuchli bo'ladi va asta-sekin bir xil tusga kirib boradi, jismlar hajmlilik xususiyatini yo'qotadi, siluet holatiga keladi, material fakturasi o'z xususiyatini yo'qotadi.

Rasm chizishni endi o'rganayotganlar ushbu qoidani o'zlashtirishlari lozim. Rasmda kenglikni ifodalash uchun uchta plandan foydalanish maqsadga muvofiqdir, hamda har bir planni jismning olishlashuvi bo'yicha bo'lib chiqish kerak. Biz nafaqat manzara rasmini chizishda balki, natyurmort yoki inson qomatining tasvirini ishlaganimizda ham ularning hajmliligini ko'rsatib berish uchun birinchi plandagi qismlarni boshqalaridan alohida ifodalashimiz lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda manzara ishlash mashg'ulotlarini olib borishda perspektiva fani bilan uzviy bog'loiq holda tashkil etish talabalarda mavzu yuzasidan bilimlarning shakillanishida va ularning malakalarining oshishida muhim o'rin tutadi.

Manzara ishlash mashg'ulotlarini olib borishda talabalarga to'la rahbarlik qila olishi uchun bo'lajak o'qituvchi rangtasvir asoslarini mukammal egallashi, rangshunoslik nazariyasini qunt bilan o'rganishi kerak. Chunki faqatgina realistik rangtasvirning nazariy asoslarini egallash va izchillik bilan mashqlar bajarish natijasidagina savodli rasm ishlashga o'rganish mumkin.

Tasviriy san'atning tarixi rangtasvirni amaliy o'rganishda juda katta metodik tajribaga ega. Metodikaga oid adabiyotlarda juda qimmatli materiallar to'plangan bo'lib, ularda ko'plab texnik va texnologik maslahatlar yoritilgan. Rangtasvir nazariyasiga kelsak, bu masalada tarixiy merosning ahamiyati unchalik sezilmaydi. Rus badiiy akademiyasida ham rangtasvirni amaliy tarzda o'qitish juda kuchli bo'lgan, biroq tasvirlashning nazariy asoslari ishlanmasiga yetarli e'tibor berilmagan.

Keyingi vaqtda tasvirlashni nazariy o'qitish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bir qancha metodik qo'llanmalar nashr etilgan. Ularda yorug'- soya, ranglar majmuasi, havo perspektivasi qonuniyatlari nazariyasi mukammal ochib berilgan. Biroq, bu qo'llanmalar ham tasviriy san'at faoliyatini bekamu ko'st yoritib bergan, deb bo'lmaydi.

Ta'lim olish jarayonida talabalar avvalo, rangtasvirning asosiy qonunlari- rang va tus munosabatlari va ularni aniqlash usullarini egallashlari lozim. Chunki aynan shular rangtasvirning nazariy kursi tarkibiga kiradi.

Bundan tashqari, rangtasvirni o'qitishning nazariy kursiga shunday savollar ham kiritilishi lozim, ular rangtasvirda qalamtasvirning asosiy o'rni, havo perspektivasi, qog'oz yuzasida xajmli buyumlarning fazoviy joylashuvi, tasvirlash qoidalari, soya – yorug'lik qonuni, qo'yilmani metodik ketma – ketlikda tasvirley bilish, ishni rang va tus jihatdan yaxlit holatga keltirish va boshqalardir.

Haqqoniy rangtasvirning negzida hajmdor narsalarning uch o'lchovga ega ekanligini ko'ra olish va surat teksligida to'g'ri ifodalab berish malakasi yotadi. Tasvirlamoq fikr yuritmoq demakdir. Bo'yoqlar bilan tasvirlashga kirishishdan oldin, albatta, vazifani har tomonlama o'ylab chiqish va maqsadni aniq qilib olish lozim. Rangtasvir vositalari bilan o'quv manzarasini tasvirlashdan maqsad ranglar yordamida narsalarning fazoviy holatini va hajmdor shakillarni bo'rttirib ko'rsatish, ularning qanday rangi, tusi qanaqa ekanligini badiiy ifodalab berishdir. Bunga erishish uchun tasvir bilan natura o'rtasidagi rang va ton nisbatlarining qanchalar munosibligini to'g'ri aniqlay olish talab etiladi. Nisbatlar mutanosibligi qonuninni bilmay turib, bu maqsadga erishish juda qiyin.

Bundan qariyib besh asr avval buyuk italyan rassomi Leonardo da Vinchi: (Amaliyot doim yaxshi nazariya asosida qurilishi kerak, buningsiz hech bir narsani yaxshi bajarib bo'lmaydi) deb ta'kidlagan edi.

Rangtasvirning ilmiy negzini rangshunoslik fani tashkil etadi. Rangshunoslik rassomlar uchun zarur bo'lgan ranglarning tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini, ularning atrof muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishi, bo'yoqlarni tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.


O'rta Osiyoda qadimdan ranglar haqidagi ta'limot kitob miniatyurasi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik hunari rang tanlash va ularni tayyorlashni bilishni talab etgan. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishga bog'liq kimyoviy jarayonlarni o'rgangan. Bulardan biri buyuk mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniy "kitob al javohir fi

marifat al javohi” (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o’tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to’g’risida yozib qoldirgan.

XIV-XV asrda O’rta Osiyoda rng tayyorlash ishiga doir qator risolalar yozilgan. Ularda o’sha davr rassomligida ishlatilgan ranglar va ularni tayyorlash texnologiyasi haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. Ranglarning tabiatda qanday paydo bo’lishi va tabiatda tarqalishi qadimdan olimlarning diqqatini tortgan. Uyg’onish davrining buyuk rassomlari va nazariyachilari Chennino Chennini, Leon Batista Alberti, Leonardo da vinchi, Albrect Dyurerlar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar.¹³ Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgoslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M. V. Lomonosov fanda birinchi bo’lib asosiy ranglarni kashf qildi. Issak Nyuton qator tajribalar o’tkazib, oq yorug’likning tarkibida boshqa ranglar mavjudligini isbotlagan, ekranda spektr ranglarni hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyoshning oq yorugligini derazadagi qora pardaning ingichka tirqishidan o’tkazgan va uning yo’liga uch qirrali prizma qo’ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug’lik dastasi hosil bo’lgan.¹⁴ Ekranda ko’ringan ranglar spektr ranglar bo’lib, ular quyidagicha joylashgan edi: qizil, zarg’aldoq, sariq, yashil, zangori, ko’k va binafsha rang.

13

14



Maxsus asbob-spektroskop yordamida ko'plab aniq va ravshan spektrlarni hosil qilish mumkin. Oq yorug'lik aslida murakkab bo'lib, rangdorlik jihatidan shunchalik turli-tumanki, bir rangdan ikkinchisiga o'tishda yana bir qator rang tushlari seziladi. Spektor ranglarni yomg'ir yog'ib o'tgandan keyin osmonda paydo bo'ladigan kamalakda, favvoralaridan sitilayotgan suv tomchilarida kuzatish mumkin. Spektor ranglarini qayta bir joyga to'plansa, oq yorug'lik hosil bo'ladi. Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsa, nemis shoiri va san'atshunosi I. V. Gyoteni ko'proq ranglarning kishi organizimiga ko'rsatadigan ta'siri qiziqtirgan. Gyote "Ranglar haqida ta'limot" nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tushlarga ajratib, iliq (sarg'ish qizil) ranglar kishida kayfi chog'lik tuyg'usini, sovuq (havorang yashil) ranglar esa, ma'yuslik tuyg'usini uyg'otish haqida yozgan.¹⁵

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G. L. Gelmgolts rangshunoslik nazartiyasida muhim yangilik yaratgan. Ko'p yillik tajribalari asosida xromatik

ranglarning uchta asosiy alomati rang toni (nomi), rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatgan.¹⁶

Ranglarni o'rganishga yapon olamlari hamisha jiddiy qarashgan. Hozir ham dunyoda yagona bo'lgan Tokio Rang institutida inson qalbiga ta'sir etadigan tabiat hodisasi rang atroflicha o'rganiladi. Hatto, rang asoslari predmet sifatida Yaponiya maktablari programmasiga ham kiritilgan narsalarning rangini kuzatisah va ularni rasmda ifodalash bosqichidan keyin ongda aks etgan ichki taassurotlarini (o'qigan kitobni, ko'rgan kechirgan voqeani) rang bilan ifodalash bosqichi keladi. Quyi sinflarda o'zlariga yoqadigan kiyim eskizini, kitoblarning muqovasini chizish va bo'yash ishlari, yuqori sinflarda esa dizayn sirlari o'rgatiladi.

Atrofimizni o'rab turgan tabiat nihoyatda go'zal va joizibali. Tabiiy yorug'lik manbai quyosh nurlari ostida har bir narsa o'zining muayyan rangiga ega bo'lib, yorqin tuslarda ko'rinadi. Quyoshning oq hisoblangan yorug'ligi aslida murakkab bo'lib, olamning turfa go'zalligi, ya'ni bahorgi mysalar va yaproqlarning yashilligi, osmonning moviyligi, gullarning rang-barangligi hammasi shunga bog'liq.

Har qanday narsaning sirtida yupqa tiniq qavat mavjud bo'lib, u yorug'lik nurlarini qaytarish yoki yutish xususiyatiga ega. Agar jsmning yupqa qavati oq yorug'lik tarkibidagi hamma nurlarni to'la qaytarsa, jsm oq bo'lib ko'rinadi, masalan oq qog'oz. agar jsm tushayotgan hamma nurlarni yutsa, u qora bo'lib tuyiladi. Ko'pchilik jsmlar esa nurlarning ma'lum qismini qaytarib, ma'lum qismini yutadi. Masalan, lolaqizg'aldoq faqat qizil nurlarni qaytarsa, bo'tako'z ko'k nurlarni qaytarish xususiyatiga ega. Natijada tabiatdagi turli narsalar ko'zimizga rang-barng va xilma- xil bo'lib ko'rinadi.

Narsalar rangini sun'iy ravishda o'zgartirib ko'rish ham mumkin. Masalan, oq qog'ozga yoki chinniga har xil rangli shishalar orqali qaralsa, u shunga munosib rangda ko'rinadi. Oq narsaga har-xil rangli yoritgichdan yorug'lik tushirib qaralganda ham shunga o'xshash xol ro'y beradi. Yani qizil chiroq bilan yoritilganda u qizg'ish, ko'k chiroq bilan yoritilganda esa, ko'kimtir bo'lib

ko'rinadi. Demak, oppoq narsa hamma nurlarni barobar, kuchli qaytaradi. Qora narsalar esa deyarli hamma nurlarni yutadi. Spektrda qora tus ko'rilmagani uchun tabiatda qora rang sof holda yo'q deb hisoblanadi. Bir necha qora rangli narsalarni solishtirib qarasak, ularning farqini sezamiz. Masalan, qora movut, qora satindan to'qroq, qora baxmal esa undan ham to'qroq tuyiladi. Kulrang esa oq bilan qora o'rtasidagi rang bo'lib uning och tushlari oqqa yaqin, to'q tushlari esa qoraga yaqin bo'ladi. Kulrang sirtlar nurlarning hammasini teng miqdorda qaytaradi.

Oyna, pardoqlangan yog'och, ruhlangan metal sirtlarda atrofdagi narsalar ko'zguda aks etgandek ko'ringanidek, narsalarning aniq rangi qoshni narsalarning ranglari tasirida o'zgarib ko'riniadi. Manzara rangtasvirini ishlaganda, buni albatta hisobga olish zarur. Sariq ranglar ham sun'iy nurlar tasiri ostida oqarib ketadi. Shuning uchun ko'p rangli manzarani, asosan, kunduzgi tabiiy yorug'likda tasvirlash tavsiya etiladi. Kechki payt ranglar asta sekin o'chib, o'zgarib boradi. Dastavval, qizil, keyin zarg'aldoq va sariq ranglar xiralashadfi. Ko'k ranglar ancha vaqtgacha o'z sifatini saqlab qoladi, havo ranglar esa oqish ko'rinadi. Oq rangdagi narsani yorug' joyda kuzatsak oppoq, soyaroq joyda kulrang, quyuqroq soyada esa qoramtir ko'rinadi. Rangli (qizil, sariq, ko'k va h.k.) narsaning esa rangi o'zgarmaydi. Och to'qligi tufayli bir-biridan ajraladigan ranglar rassomlikda axromatik (rangsiz) deb yuritiladi. Olimlarning aniqlashicha, ko'zlarimiz axromatik ranglarning 300 ga yaqinini farqlay oladi. Oq, kulrang, qora ranglardan boshqa hamma ranglar xromatik ranglar deb ataladi. Xromatik ranglar ham bir biridan och to'qligi bilan farq qiladi, maslan, qizil to'q, pushti esa och rang. Ko'k rang ham sariq rangdan to'qroq, lekin bular faqat och to'qligi bilan emas, rangi bilan ham farqlanadi. Bu ranglar har biri o'ziga xos, o'zgacha ko'rinishga ega.

Ranglarning nomini ifodalovchi, ya'ni ularning birini qizil, ikkinchisini ko'k, uchinchisini binafsha deb atalishiga asos bo'lgan belgisi rang toni deyiladi.


Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak, uning sho'xchanligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida sof bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki

intensivligi deganda, uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasini, tozaligini tushinish kerak.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, xromatik ranglar bir biridan uchta asosiy xossasi rang tusi, rangning och to'qligi va to'yinganligi tufayli farq qilar ekan. Spektrni sinchiklab kuzatsak, uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglar orasida o'xshashlik alomatlarini sezamiz. Ikkala rang bir biriga qo'shilsa, ularning oralig'ida qirmizi ranglar hosil bo'ladi. Bu hosil bo'lgan rangni qizil rang bilan binafsha rangning o'rtasiga joylashtirib, spektr tutashtirilsa, halqa kelib chiqadi.

Ranglar doirasida qizil, qizg'ish zarg'aldoq, zarg'aldoq, sarg'ish zarg'aldoq, sariq, sarg'ish yashil, yashil, yashiltob zangori, havorang, ko'kimtir havorang, ko'k, ko'kimtir binafsha, binafsha, qirmizi ranglarning har xil turlari ko'rinadi.

Ranglar doirasida rang turlari juda ko'p bo'lishi mumkin lekin ko'zlarimiz 150 taga yaqinligina ajrata oladi. Ranglarning doirada joylashishi muayyan tartibda amalgam oshadi. Ranglar doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida iliq ranglar, ikkinchi yarmida esa sovuq ranglar joylashadi. Bu farqlanish nisbiy bo'lib har qanday iliq rang o'zidan iliq rang oldida souq, sovuq rang esa o'zidan sovuq rang oldida issiq bo'lib ko'rinishi mumkin.



Ikkita spektr rang ustma-ust tushirilsa, ranglar bir biriga qo'shilib murakkab rangni hosil qiladi. Masalan, qizil ranga sariq rang qo'shilsa, zarg'aldoq rang hosil bo'ladi. Qizil rang ko'k va binafsh ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tusdagi pushti, to'q qizil, sapsar ranglar hosil bo'ladi. Qo'shilganda oq rang beradigan spectral ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi, chunki ular oq rang hosil bo'lguniga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq va ko'k, qizil va zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi.

Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektral ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektral rang qizil, yashil, va ko'k ranglar qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va ko'k rangli bo'yoqlar qo'shilganda esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va ko'k ranglarini qo'shish natijasida oq rang hosil bo'ladi. Biroq sariq va ko'k bo'yoqlarning qoshilishi natijasida yashil rang hosil bo'ladi. Demak, ikkita rangni optic aralashtirish natijasida oq yoki unga yaqin nim kulrang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi (qo'shimcha) hisoblanadi. Masalan, to'q qizil va yashil, zangori va zarg'aldoq, qizil, sariq va ko'k, havo rang, sarg'ish yashil va binafshalar o'zaro to'ldiruvchidir. Bular rang doirasida bir-birining ro'parasida diametrlarning ikki uchida yotadi va o'zaro qarama-qarshi (contrast) hisoblanadi. Havo rang bilan ko'k rangning o'rtasida joylashgan zangorining to'ldiruvchisini topish kerak bo'lsa, uni qarama-qarshi tomonda yotgan qizil va sariq ranglar o'rtasidan qidirish kerak, bu zarg'aldoq bo'lib chiqadi. Bu ikkala rang o'zaro to'ldiruvchi bo'lib, yonma yon qo'yilganda kontrastlik qonuniga binoan, har ikkalasining ham to'yinganligi oshib, yorqin holda ko'rinadi. Shu kabi to'q qizil rang yashil rangning oldida yashnab ko'rinadi. Manzara rangtasvirini ishlaganda ranglarning bu xususiyatini hisobga olish lozim. Shuni ham hisobga olish kerakki, to'ldiruvchi ranglar bir xil miqdorda qoshilganda, kul rang hosil bo'ladi. Qizil rangni sustroq ko'rsatish uchun ustidan suyuq yashil bo'yoq eritmasi bilan yoki yoniga qizil tusdagi ranglar qo'yish lozim. Ranglar qarama qarshiligini ruxiyati shundaki, birinchidan, axromatik rang (oq yoki kul

rang) xromatik rang yonida uning tusiga contrast holatda ko'rinadi; ikkinchidan, xromatik rang o'ziga qarama qarshi bo'lgan xromatik rang yonida to'yinib, ochiq bo'lib ko'rinadi; uchinchidan bir-biriga yaqin bo'lgan xromatik ranglar (sariq va zarg'aldoq, ko'k va zangori) yonma-yon qo'yilganda, to'yinganligi pasayib, nursizlanib ko'rinadi.

Oq narsa iliq rangli fonda sovuqroq tusda, sovuq rangli fonda bo'lsa, aksincha iliqroq (pushti yoki sarg'ish) tusda namoyon boi'ladi. Tasvirlangan narsalar atrofida fon qanchalik ko'p ko'rsatilsa, uning narsalarga ta'siri ham shunchalik kuchli bo'ladi. Narsalarning rangi ham fonga ma'lum darajada tasir etadi. Buni amalda sinab ko'rish mumkin har xil yashil, qizil, sariq muqovali kitoblar tanlab, ularni navbati bilan rangliu fonlarga qo'yib kuzatish mumkin. Bunda fonning kitob atrofidagi rangi, kitobning rangiga qarama qarshi tusda ham iliqroq, ham sovuqroq bo'lib tuyuladi. Lekin uzoq vaqt bitta kitobga tikilib qolsangiz, bu tafovutni sezish qiyinlashadi, chunki ko'zlarning qabul qilish qobiliyati sysayadi. Shuning uchun ham ish paytida bitta ob'ektga uzoq vaqt qarab qolmay, tez tez narsaga ko'z tashlash, ularning rangini solishtirish tavsiya etiladi. Har qanday rang ham boshqa ranglar ta'sirida o'zgaradi. Bu hodisa ranglarning bir bvaqtdagi qarama qarshiligi deyiladi. Qo'shni ranglar ta'sirida birorta rangning faqt och-to'qligi o'zgarsa och-to'qlik kontrasti deb yuritiladi. Ikki xil rang to'qnashadigan yerda, ya'ni tekisliklarning chekkalarida och to'qlik kontrasti ayniqsa yaqqol seziladi. Masalan, gips kubning yorug'lik manbaiga qaragan tomoni yorug', teskari tomoni esa qorong'I bo'ladi. Kubning qirrasi nyaqinida yorug'lik yanada oqarib, soya esa quyuqlashib ko'rinadi. Bunday qarama- qarshilik rassomchilikda chekka kontrasti deb yuritiladi. Shuning uchun yonma yon joylashgan ranglarning yoritilish sharoitiga qarab o'zgarishini, rangtasvir ishlaganda, albatta hisobga olish kerak. Axromatik (kul rang) doirachani har xil rangli fonlarga qo'yib qaralsa, u rngdor bo'lib qoladi. Bunda u fonning rangiga contrast bo'lgan tusda ko'rinadi. Masalan, qizil fonda kulrang doiracha yashiltob bo'lib tuyuladi, yashil fonda esa aksincha qizg'ish tusga kiradi. Ana shunday bitta rangning atrof muhitga bog'liq holda tovlanishiga xromatik (rangli) kontrast deyiladi. O'zaro ta'sir etayotgan

ranglarning och-to'qligi taxminan teng bo'lganda, rangli kontrast ayniqsa kuchli seziladi. Ranglari bir-biriga zid bo'lgan ikkita narsaning o'zaro ta'sirini sinab ko'rish juda oson. Buning uchun qip qizil olmani avvl qizil fonda, keyin yashil fonda kuzating, o'zining rangiga yaqin (qizil) fonda olmaning rangi kuchsizroq ko'rinsa, yashil fonda u yarqirab ko'rinadi.

Rangli kontrast deganda, bitta rangning har xil tuslari o'rtasidagi, ya'ni uning bir-biridan nozik farqlanadigan tuslari o'rtasidagi nqarama qarshiliklari ham nazarda tutiladi. Masalan, yashil rang juda ko'p tuslarda bo'ladi, ya'ni sarg'ish yashil (pistoqi) bilan yashiltob havo rang (feruza) orasida bir qator yashillar mavjud. Masalan, och yashil (sabza), to'q yashil (barikaram), zangori tusdagi yashil (to'tiyo), ko'kimtir yashil (zumrad), jigar rang yashil (mosh rang).

Ranglarni ko'rish idrok qilish qobiliyati asta-sekin, mashqlar orqali shakllanadi. Naturaning hajmdor shaklini ifodalashda narsalardan tekislikka va qo'shni narsalarga tushib turgan soyalarning ahamiyati katta. Narsaning soya tomoni yorug' tomoniga qaraganda to'qroq ko'rinishi bilan birga, alohida rang tusiga kiradi. Chunki unda yonidagin narsalarning rangi ham aks etadi. Umuman, narsalarning yorug' va soya qismlarida ranglar qarama-qarshiligining sezilishi atrofdagi sharoitga yoritilishiga, qo'shni narsalarning rangiga, fon va narsalarning o'z rangiga bog'liq. Har bir mashg'ulotda bu xususiyatlarni alohida sinchiklab o'rganib chiqish va o'ziga yarasha qonun qoidalarga bo'ysingan holda tasvirlash kerak.

Naturadagi rang tasvir jarayoni

Naturadan manzarani rangda tasvirlash jarayoni o'z qonun qoidalariga ega. Ishni boshlashdan oldin quyidagi asosiy masalalarni hal qilish zarur.

1 – umumiy tus va rang holatlari va natura bo'yoqlarining bir-biriga yaqinligidagi tus va rang munosabatlari:


2 – katta rang-tusli munosabatlar chegarasidagi rang tuslarning “cho'zilishi”, alohida buyumlarning hajmli shakllarining batafsil rangli qayta ishlanishi;

3 – butun tasvirning umumiyligi, yaxlitligi hamda kompazitsiya markazini ko'rsata bilish.


Manzara tasvirining to'liq rang tasvirli qurilishi, naturaning asosiy qismlari oralig'idagi tus va ranglar munosabatining aniq va to'g'ri ko'rsatilishi bilan aniqlanadi. Manzarada bular – osmon oralig'idagi yer yuzasi, daryo, oldingi, o'rta va orqa oraliqdagi ko'rinishlardir. Agarda talaba ushbu asosiy rang – tuslar munosabatini ranglavhada noto'g'ri tasvirlasa, manzara ko'rinishidagi ob'ektlar yoki buyumlar shaklidagi rang tuslari, reflekslar va jism bo'laklari ustida har qancha berilib ishlamasin, yuqori saviyali manzara rangtasviriga erishib bo'lmaydi. Qalamtasvirni ishlashda ham taxliliy masala bajariladi: dastlab buyumning “konstruktiv” ichki qurilishi, nisbatlari, yaxlit umumiy shakl topiladi. Rassom shunday sharoitda also bu masladan chekinmaydi, naturani umumiy va yaxlit ko'radi. N. N. Ge bejiz rassomlarni ogohlantirmagan: ““Natura” dagi bosh qismlarni belgilab, yorug'likni umumiy sinchiklab o'rganib chiqing va har doim, har vaqt tasvirni boshidan oxirigacha umumlashtirgan holda chizing hamda mayda bo'laklarga ohista kirishing. Mana sizlarga chizishning siri”.

Rangtasvirda ham ish boshlashdan avval naturadagi umumiy rang munosabatlarini diqqat bilan o'rganib chiqish lozim . Shuning uchun bu masalaga 5 – 10 minut vaqt sarflab, naturaning umumiy rang munosabatlarini tushunish kerak: eng och va eng to'q (zich) dog' qayerda, tusi va rang kuchi bo'yicha asosiy farqlar (to'yinganligi) qanday ekanligini topish kerak. Masalsan, naturadagi sariq olmalar fondagi sariq mato bilan solishtirilsa, olmalar matodan ochroq, ularning sariq tusi sariq matoga nisbatan yorqinroq (to'yingan) ko'rinadi.









Manzara ranglavhasida rang munosabatlarini, eng avvalo och va intensive ranglarni qidirishdan boshlash kerak, so'ng eng to'qni topish, qolganlarini esa shularga nisbatan aniqlash tavsiya etiladi. Keyingi tuslarga biroz to'groq va intensiv bo'lganlar va boshqalar kiradi. Murakkab kulrang tuslar oxirida beriladi.

Dastlabki va yakunlovchi tuslar har doim ham eng och va eng to'q hamda to'yingan qilib olinmaydi. Naturadagi eng och joy har doim ham oq bo'lmaydi, eng to'q joy esa qora bo'lmaydi. Kuchli to'yingan yorqin ranglar ham kamdankam uchraydi. misol uchun bahorgi maysalarni tasvirlashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Uning yorqinligini shunday kuchaytirib tasvirlash mumkinki bunday holda

ularning rangi tabiiy holatdagidan boshqacharoq bo'lib ko'rinadi. Shuning uchun, ishga kirishishdan avval, umumiy tus va ranglar kuchini aniqlab olish lozim. Aynan shu jarayonda talabalarda juda ko'plab murakkabliklar paydo bo'ladi bularning oldini olish uchun o'qituvchi manzaradagi ranglar munosabatlarini qanday bo'yoqlar yigindisidan olishni to'g'ri ko'rsata olishi lozim. Bunday ishni olib borishda naturaning umumiy tus va rang holatini to'g'ri aniqlay olish kerak. Bunday jarayonni amalgam oshirishda ma'lum bir chegaralangan ranglardan foydalanish tavsiya etiladi. Ishni eng och, to'q va yorqin tuslardan boshlaganda palitradagi barcha ranglardan, shu bilan birga eng yorqin va keskin bo'yoqlardan foydalanish shart emas.

Yorug'-soya munosabatlarini aniqlashda umumiydan xususiyligiga qarab bo'rish lozim. Avvalo manzaraning asosiy ob'ektlari orasidagi tus farqlarni topish muhim. Manzarani tasvirlashda avvalo osmon va yerning alohida jismlarini bir-biriga ularning yaxlitligida bo'lgan rang munosabatlarida aniqlash kerak.

“Katta yorug'lik”, “katta soya”, “katta shakl”, “katta ranglar munosabati”, bularning barchasidan maqsad natura ob'ektlarini yaxlit ko'rish malakasini shakllantirishdan iborat. Naturani yaxlit idrok etganda, yorug'lik tikka ta'sir etayotgan joydagi narsalar yagona bir qismni tashkil etadi va undagi dog'lar kuchliligi bo'yicha soya qismiga teng kela olmaydi.

Rangtasvir haqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslanadi. Rangtasvirni o'rganish – bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, xajmi, fazoviy tuzilish usullarini izlash yo'lidir. Shularga bog'liq holda har- bir rassom qalamda buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, hajmni mukammal tasvirlay olishi zarur. Qalamtasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyg'unlashuvi bu xaqiqiy rangtasvirdir.

Tasvirda qalamsurat mukammal bo'lishi lozim, aks holda turli bo'yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, hajmini to'liq ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bog'liq holda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rang – barang surtmalar ham, o'z – o'zidan fazoviy kenglikni ko'rsata

olmaydi. Faqat persteva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada ham jozibali ko'rsatadi.

Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun – qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o'rni ahamiyatsizdir. Rangtasvirni rassomlar shunday tasvirlaydi; “Bu 100 % qalamtasvir va 100 % rangtasvirning bir – biriga chambarchas bog'liqligidir”.

Rangtasvirni jozibali chiqishida qalamtasvirning o'rni beqiyosdir. Ammo, mohir rassom qalamdan foydalanmasdan ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog'liqligini his etadi. Ya'ni, buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'g'ri qo'yilishi, ishni bir butunlikda yakunlanishi ko'p jihatdan ijodkorga bog'liq.

Rassom qalamtasvirni puxta o'zlashtirib olgandagina (qog'ozga to'g'ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi, perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to'g'ri topish' metodik ketma – ketlikda ishni tuslash va h.k.) rangtsvirda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishni taxlil etsak, ranglar qanchalik jozbli bo'lmasin, baribir bu ishni sifatli deb bo'lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvohlik beradiki, ta'limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o'zlashtirish keyingi jarayonlar uchun zamin yaratadi. Yosh rassom Odoardo Fioletti Venetsiyaga o'qishga kelganida, rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak degan savoliga Tintoretto shunday javob bergan: “Rasm chizish!”. Rassom bo'lish uchun yana qo'shimcha nimalarni maslahat berar edingiz, degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: “Rasm chizish va yana rasm chizish!” – rasm chizish, rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishini haq deb bilgan.

Buyuk haykaltarosh Mekelanjelo qalamtasvirda (rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikda) “har qanday ilmning ildizi va negizini ko'rgan”.

“Qalamtasvir doimo bizga yo’l ko’rsatib turuvchi qutb va kompas bo’lib, turli bo’yoqlar okeanida cho’kayotganlarga najot bersh omilidir”, - deya ta’kidlagan Sharl Lebre.¹⁷

II.2. Tasviriy san’at darslarida manzara ishlash mashg’ulotlarini didaktik tamoyillarga mos ravishda tashkil etish.

Inson faoliyatida o’qitish har doim juda muhim ahamiyatni kasb etgan. Ta’lim tasodifiy, intuitive xususiyatga ega bo’lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo’lganda ham shunday bo’lgan. Faqatgina XVII asr bu sohaga muhim o’zgarishlarni olib keldi; aynan o’sha paytda ta’lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning asoslangan tizimiga poydevor qurildi.

Didaktika – (ta’lim nazariyasi; yunoncha “didaktikos” –“o’rgatuvchi”) ta’limning nazariy jihatlarini, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari va boshqa muammolarni o’rganuvchi fan.

Bugungi kunda ta’lim jarayoni didaktik vazifalarning barchasini amalga oshirishni talab etmoqda. Shuningdek tasviriy san’at darslarida manzara ishlash mashg’ulotlarini ham barcha didaktik tamoyillarga mos holda tashkil etish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Avvalombor didaktik tamoyillarning o’zi nima degan savolga javob berib o’tsak. Didaktik tamoyillar-o’quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmunini, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang’ich qoidalardir.

Tamoyil- (yunoncha “prinsipium”) biror-bir nazariyaning asosi, negzi, asosiy boshlang’ich qoidasi; boshqaruvchi g’oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Didaktik tamoyillar o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga ko'ra tashkil etiluvchi ta'lim jarayonining tashkiliy shakl va metodlari, asosiy qoidalari mohiyatini belgilovchi mazmundir. Ta'lim tamoyillarida ta'limning aniq, tarixiy tajribaga asoslanuvchi me'yoriy asoslari o'z ifodasini topadi. Ta'lim tamoyillarini bilish o'quv jarayonini uning qonuniyatlari asosida tashkil etish, uning maqsadlarini asosli ravishda belgilash va o'quv materialining mazmunini tanlab olish, maqsadga muvofiq ta'lim shakli va metodlarini tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga bu tamoyillar o'qituvchilar va o'quvchilarga yaxlit jarayonning bosqichlariga amal qilish, o'zaro aloqalar va hamkorlikni amalgam oshirishga xizmat qiladi. Tamoyillar ta'lim jarayonining mohiyatini aks ettiradi.

Manzara ishlash mashg'ulotlarini ham quyidagi *mazmunli* va *tashkiliy metodik* tamoyillaridan tashkil topgan tizim sifatida etirof etishimiz mumkin.

I. *Manzara ishlash mashg'ulotlarining mazmunli tamoyillari* ta'lim mazmunini tanlash bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlarni aks ettiradi va quyidagi g'oyalarni ifodalaydi.

-fuqorolik;

-ilmiyligi;

-tarbiyalovchi ta'lim;

-fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi (ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi);

-tabiat bilan uyg'unligi;

-insonparvarligi.

-Fuqorolik tamoyili. Unga kora tasviriy san'at fanlarida manzara ishlash mashg'ulotlari mazmuni, shaxsning subektivligini rivojlantirish, uning ma'naviyligi ijtimoiy yetukligiga yo'naltirishda namoyon bo'lishi kerak. U ta'lim mazmunini insonparvarlashtirishni nazarda tutadi va fuqorolikni anglash, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzilishi haqidagi tasavvurlar tizimi, o'zbek xalqi madaniyati, psixalogik xususiyatlari, uning mentaliteti va

madaniyati kabi dolzarb masalalar haqidagi tasavvurlarning shakillanishi bilan bog'liq.

-Manzara ishlash mashg'ulotlarining ilmiylik tamoyili ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi.

-Manzara ishlash mashg'ulotlarining tarbiyalovchilik tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil mashg'ulot jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakillantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, talabalarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

-Ta'limning fundamentalligi tamoyili va amaliy yo'nalganligi tamoyili umumiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur zaruriy va amaliy tayyorgarlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi kabi ifoda etiladi.

-Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya. A. Komenskiy ta'lim tabiatga uyg'un bo'lish g'oyasini ilgari suradi. Bu g'oya san'at sohasiga to'la qonli dahildordir.

-Manzara ishlash mashg'ulotlarining insonparvarlik tamoyili talabaning yetuk shaxs sifatida qadr-qimmatini, uning erkinligi hamda baxtli hayot kechirishini ta'minlashi, uni rivojlantirishi, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, unga hayotda o'z o'rnini topishda yordam ko'rsatishi lozim. O'zbekiston Respublikada huquqiy, demokratik jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda pedagoglar oldida barkamol, har tomonlama rivojlangan, erkin va mustaqil fikirlovchi kadrlar tayyorlash vazifasi turibdi. Mazkur vazifa ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish orqali ijobiy hal etiladi. talabalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish ularning qobiliyatini ko'ra olish, unga ishonch bildirish, shuningdek talabaning xatoga yo'l qo'yish, shaxsiy nuqtayi nazariga ega bo'lish huquqini qadrlashni nazarda tutadi.

Manzara ishlash mashg'ulotlarining tashkiliy metodik tamoyillari.

Manzara ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi ta'lim mazmunini shakillantirish kabi erkin tanlanishi mumkin emas. Bu borada muayyan ijtimoiy, psixologik va pedagogik talablarni inobatga olish zarur. Bunday talablar ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillari deb deb yuritiluvchi tamoyillar mazmunida o'z ifodasini topad.

- ta'limning izchilligi, tizimlilik, ketma-ketligi;
- ta'limda ongillik va faollik;
- talimda ko'rgazmalilik;
- ta'limning samaradorligi va ishinchliligi (mustahkamligi);
- ta'limning tushunarlilik;
- ta'limning talabalar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
- oqilona talabchanlik bilan talaba shaxsini hurmat qilishning muvofiqligi.

-Manzara ishlash mashg'ulotlarining izchilligi, tizimlilik, ketma-ketligi tamoyili bilish bosqichlarining obyektivligini anglatadi. Ta'lim jarayonining, mashg'ulotlarning ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero eng murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

-Ongillik va ijodi faollik tamoyili. Bu tamoyilning asosini (fanni) manzara ishlash mashg'ulotlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'luvchi qonun-qoidalar majmuini shakillantirish tashkil etadi.

Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi shart va omillarga bog'liq; ta'lim motivlari, talabalarining faollik darajasi, o'quv mashg'ulot jarayonining samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. Mazkur tamoyil talabalarining tashabbuskorligi va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

-Ko'rgazmalilik tamoyili manzara ishlash mashg'ulotlarini tashkil etishning asosini tashkil etuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Ya. A. Komenskiyning fikricha ko'rgazmalilik tamoyili didaktikaning "oltin qoidasi" hisoblanadi. Bu fikriga binoan ta'lim jarayonida inson sezgi organlaridan foydalanishi kerak. "Agar biz o'quvchilardan haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz

umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak-deb ta'kidlaydi u- agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilar bilan o'rganilsin" Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa 25% ni tashkil etishni tajribalar ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida ularning har ikkisi ham bir vaqtda ishtirok etsa ta'lim samaradorligi 65% gacha oshishi mumkin. Ko'rgazmalilikning samaraliligi shundaki undan ta'lim jarayoninig hamma bosqichlarida foydalanish mumkin.

-Manzara ishlash mashg'ulotlarining samaradorligi va ishonchliligi tamoyili. Ananaviy didaktikada u mustahkamlik tamoyili ham deb yuritiladi. Agar manzara ishlash mashg'ulotlari ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlamasa, bunday vaziyatda ushbu jarayonni tashkil etish zarurati paydo bo'ladi. Shu bois manzara ishlash mashg'ulotlari samarali, rivojlantiruvchi va shuningdek tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'lishi kerak. Manzara ishlash mashg'ulotlarining ishonchliligi va mustahkamligini ta'minlash uchun talabalar mashg'ulot jarayonida o'quv-o'rganish harakatlarining quyidagi to'la siklini o'zlashtirishi zarur; o'rganilayotgan materiallarni dastlabki qabul qilish, uni chuqurroq anglab yetish, eslab qolish, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha amaliy faoliyatni amalgam oshirish, ularni takrorlash va tizimlashtirish.

-Manzara ishlash mashg'ulotlarining tushunarliklik tamoyili- talabalarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy hamda psixik sog'lig'iga salbiy ta'sir etuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. ta'limning tushinarli bo'lishi talabalarning bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot mazmunini to'g'ri tashkil qilishni talab etadi. ya'ni manzara ishlash mashg'ulotlari bo'yicha talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalar hajmini to'g'ri aniqlay olishdir. Bu tamoyil mashg'ulot vaqtida talabalarda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish istagini hosil

qiluvchi shaxsiy muvoffaqiyatlardan quvonish tuyg'usini yuzaga keltirishga yo'naltirilgan.

-Talimning talabalar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili.

Yoshga muvofiq holda yondashish talabalarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy axloqiy sifatlari, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda manzara ishlash mashg'ulotlarida qo'yilayotgan talablar yoki mashg'ulotning tashkily tuzilishi talabalar yoshi imkoniyatlaridan ortib qolsa yoki ilgarilab ketsa o'quv mashg'uloti samarasi pasayish holati yuzaga keladi. Mashg'ulotlar jarayonida individual yondashish talabaning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakillanishida sodir bo'ladigan ko'p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

-Oqilona talabchanlik bilan talaba shaxsini hurmat qilishning birligi tamoyili. Pedagog ta'lim oluvchini shaxs sifatida hurmat qilishi zarur. Mashg'ulotlar jarayonida oqilona talabchanlik maqsadga muvofiq bo'lsa, ta'lim jarayoni talaba shaxsining to'liq va barkamol rivojlanishini ta'minlay olsa samarasi ancha yuqori bo'ladi. Mashg'ulot jarayonida talabalrga nisbatan talabchanlik ularni tartibli, intizomli bo'lish, vazifalarni o'z vaqtida bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlarini ta'minlashi lozim.

III. BOB. PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI MANZARA ISHLASHGA O'RGATISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI O'TKAZISH.

III.1. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uni amalga oshirish metodikasi.

Tasviriy san'at darslarida manzara ishlash mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish jarayonida tajriba-sinov ishlari tizimini tashkil qilish va uning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida olingan natijalarning amaliy ahamiyatini tasdiqlovchi va bir-birini to'ldiruvchi metodlar majmuasini qo'lladik.

Tajriba sinov-ishlarini amalga oshirish uchun 2011-2013 yillar mobaynida Nizomiy nomidagi TDPU "San'at" fakulteti bakalaviriyat bosqichi Tasviriy san'at mutaxassisligi talabalari va o'qituvchilari bilan ilmiy pedagogik tadqiqot o'tkazildi.

Tajriba sinov-ishlariga Ts 301, 302, 303 guruh talabalaridan jami talaba jalb etildi. Shulardan Ts 301 va Ts 302 guruhlar **tajriba** guruhiga Ts 303 guruh nazorat guruhiga jalb qilindi. Tajriba guruhlarida manzara ishlash mashg'ulotlari biz taklif etgan pedagogik texnologiyalarni qo'llash yo'llari asosida, nazorat guruhlarida esa an'anaviy uslubda mashg'ulotlar olib borildi.

Shuningdek talabalarning mustaqil mashg'ulotlarini tashkil etish borasida ham ishlab chiqilgan metodik usullar asosida guruhiy va individual tartibda tajriba-sinov ishlari olib borildi. Bu jarayonga Ts 201 va Ts 202 guruh talabalari mos ravishda tajriba va nazorat guruhlariga jalab qilindi. Shuningdek bu guruhlardan "alohida" talabalar tajriba-sinov ishlarida yakka tartibda ishtirok etdi.

Pedagogik tajriba sinov-ishlarini tashkil etish metodikasi yuqorida, talabalar manzara ishlash mashg'ulotlarida yo'l qo'yayotgan xato va kamchiliklarni, ular oldidagi muammolarni o'rganish jarayoniga asoslandi. Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda va bir-biriga bog'liq holda tashkil etildi va quyidagi tartibda dasturi ishlab chiqildi.

1 bosqich; Mavzuning nazariy qismiga oid tajriba-sinov ishlari dasturi.

1.1. "San'at" fakulteti III kurs kompazitsiya fan dasturi va mustaqil ishlar mavzulari bandidan manzara ishlash mashg'ulotlarining hajmini aniqlash va ularni o'rganish.

1.2. Manzara ishlash mashg'ulotlarining olib borilish jarayonini kuzatish, talabalarning mavzuga oid nazariy bilimlarini aniqlash.

1.3. Manzara ishlash mashg'ulotlari yuzasidan talabalarning nazariy bilimlarini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan tajriba sinov dars ishlanmalarini tayyorlash.

1.4. Mavzuning nazariy qismini yoritishda:

- a) interaktiv,
- b) innovatsion,
- c) axborot texnologiyalar,

- d) tabaqalashtirib o'qitish,
- e) didaktik o'yinli o'qitish,
- f) muammoli o'qitish metodlaridan foydalanish.

1.5. Har bir metod bo'yicha olingan natijalarni aniqlash va taqqoslash.

2 bosqich: Mavzuning amaliy qismiga oid tajriba-sinov ishlari dasturi.

2.1. Talabalarning tasviriy san'at fanlarida olingan manzara janriga oid bilimlarining amaliyotda tadbir'ini o'rganish.

2.2. Olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganish va ularning yechimiga oid tajriba-sinov dars ishlanmalarini ishlab chiqish.

2.3. Ularni manzara ishlash mashg'ulotlarida sinovdan o'tkazish.

2.4. Olingan nazariy va amaliy bilimlar natijalarini o'rganish va taqqoslash, talabalar bilim va ko'nikmalarida o'zgarish darajasini qayd qilish.

2.5. Olingan ilmiy natijalarni kafedra yigilishlarida, ilmiy konferensiyalarda olib chiqish va ular asosida metodik tavsiyalar yaratish. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishi yuqoridagi dastur asosida tshkil etildi.

1.Tajriba-sinov va nazorat maydonlari tarkibi.

№	Nizomiy nomidagi TDPU.	“San’at” fakulteti	Guruhlar	Tajriba guruhi	Guruhlar	Nazorat guruhlari	O’quvchilarning umumiy soni.
1			Ts 301	18	Ts 302	17	35
2			Ts 201	19	Ts 202	21	40
			Jami: 75				

2. “Alohida” talabalarda olib borilgan tajriba-sinov va nazorat maydoni tarkibi.

№	Nizomiy nomidagi TDPU.	“San’at” fakulteti	Talabaning ismi, familiyasi	Tajriba guruhi	Talabaning ismi, familiyasi	Nazorat guruhlari	O'quvchilarning umumiy soni.
---	------------------------	--------------------	-----------------------------	----------------	-----------------------------	-------------------	------------------------------

1				Ts 201		Ts 201	2
2				Ts 202		Ts 202	2
3				Ts 201		Ts 201	2
	Jami: 6						

Tajriba-sinov ishining birinchi bosqichini amalga oshirish uchun dastavval o'quv reja, namunaviy va ishchi fan dasturlari, taqvim rejalar hamda, dars jadvallari o'rganildi, tahlil qilindi. O'quv soatlari va mustaqil ishlar mavzulari bandidan tajriba-sinov guruhlarida manzara ishlash mashg'ulotlari hajmi aniqlandi. Unga ko'ra biz tadqiq qilayotgan mavzu..... soat auditoriya mashg'ulotlari va soat mustaqil ta'limni tashkil etdi. Birinchi bosqichda asosan talabalarning mavzu yuzasidan olingan nazariy va amaly bilimlarning darajasi aniqlandi. Dars mashg'ulotlari kuzatildi, mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonlari o'rganildi, ularning yutuqli va kamchilikli tomonlari aniqlandi va tahlil qilindi. Mavzu yuzasidan talabalarda nazariy bilimlarni egallashga oid muammolar belgilandi. Shu kungacha pedagoglar tomonidan qo'llanilib kelinayotgan an'anaviy usullar yordamida talabalarda mavzuning nazariy qismiga oid bilim va ko'nikmalar darajasi quyidagi jadvalda aks ettirildi.

Tajriba guruhi									
№	Guruhlar	Talabalar umumiy soni	100%	90-99%	80-89%	70-79%	70% dan past	O'rtacha	Samaradorlik
	301	18		4	12	2	-	82%	92%
2	302	17		5	9	3	1	80%	90%
	201	19		6	10	2	1	87%	94%

4	202	21							
Jami		75							

Shuningdek talabalarning mustaqil ta'limni o'zlashtirishga oid bilim va ko'nikmalari darajasi quyidagi jadval ko'rinishida aks ettirildi.

Tajriba guruhi										
№	Guruhlar	Talabalar umumiy soni	100%	90-99%	80-89%	70-79%	70% dan past	O'rtacha	Samaradorlik	
1	301									
2	302									
3	303									
4	201									
5	202									
Jami										

Shuningdek tajriba-sinov ishlarini individual tartibda olib borish jarayonida guruhlardagi "alohida" talabalarning manzara ishlash mashg'ulotlariga oid ham nazariy, ham amaliy bilimlari monitoringi aniqlandi.

№	Talabaning ismi, familiyasi	Guruhi	Monitoring i	Umumiy samaradorlik
1		201		100%
2		201		100%
3		201		100%

4		201		100%
5		202		100%
6		202		100%

Ilmiy pedagogik tadqiqot ishini yoritish uchun kompazitsiya darslarida “Ranglavha, chizmalardan (aslidan qarab ishlangan xom-ashyolar) kompazitsiyada foydalanish” mavzusi asosida tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Bu mavzu “Tasviriy sn’at va muhandislik grafikasi” bakalavriat yo’nalishi VI semestri uchun mo’ljallangan bo’lib, uning hajmi 7 soatni tashkil etadi. Tadqiqotning keyingi bosqichida talabalarda manzara ishlashga oid nazariy va amaliy bilimlarni egallashda yuzaga kelayotgan muammolarning oldini olishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan tajriba-sinov dars ishlanmalarini tayyorladik. Talabalarning mavzuga oid bilimlarini o’rganish natijasida shu narsaga duch keldikki bugungi kunda talabalar mavzuning nazariy qismiga yetarlicha e’tibor bermaydi. Buning natijasida amaliy topshiriqni bajarish ko’rsatkichlari past darajada bo’lmoqda.

1.3. Taviriy san’at o’qituvchisidan talabalarda olingan nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlarga tadbiiq etish malaksini rivojlantirish talab etiladi. Bunga erishish uchun esa eng avvalo pedagog mashg’ulotlarni tashkil etishda uning maqsadiga ko’ra turli yangicha yondoshish mahoratiga ega bo’lishi kerak.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini manzara ishlash mashg’ulotlariga tadbiiq etishda mavzuning ma’ruza qismiga alohida e’tibor beriladi va bu o’qitish metodi oliy ta’limda muhim o’qitish shakillaridan biri hisoblanadi. Manzara ishlash mashg’ulotlarida ma’ruza darslarini nazariy, g’oyaviy tomonlarini takomillashtirish uning o’quv jarayonidagi ahamiyatini yanada oshirib borishni ta’minlaydi. Ko’plab pedagog-olimlar ma’ruza darslarini rivojlantirish o’qitishda yuqori darajaga olib kelishini ta’kidlaydilar.

Manzara ishlash mashg’ulotlarida ma’ruza o’qishning maqsadi talabalarni amaliy, labaratoriya ishlari hamda o’quv adabiyotlari, mavzuga oid qo’shimcha

materiallar bilan mustaqil ishlay olishlarini ta'minlash uchun ularni zaruriy bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Zamonaviy taraqqiyot, globallashuv inson ongiga ko'plab yangicha hayot tarzi, qonun-qoidalarini olib kelmoqda. Ko'plab ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki bugungi kun talabalarini manzara ishlash muammolari bilan tanishtirishda multimediyali o'qitishning ahamiyati ortib bormoqda.

Multimediyali prezentatsiya o'z tarkibiga animatsiya, audio va videofragmentlarni jamlagan elektron diafilimlar, interaktiv elementlar namoyish etilayotgan materiallar taqdimotining eng keng tarqalgan turidir. Biz ham tajriba-sinov ishlarida pedagogik texnologiyaning ushbu turidan kengroq foydalanish va yanada takomillashtirishni maqsad qildik. Bu maqsad albatta ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi deb o'ylaymiz.

Mavzu: "Ranglavha, chizmatasvirlardan (aslidan qarab ishlangan xom-ashyolar) kompazitsiyada foydalanish"

Reja:

Kirish.

Asosiy qism.

1. Manzara kompazitsiyada chizmatasvirlarning ahamiyati
2. Manzara kompazitsiyasida ranglavhalarning o'rni.
3. Ranglavha va chizmatasvirlardan kompazitsiyada foydalanishning nazariy asoslari

Xulosa.

Adabiyotlar ro'yxati.

Kirish.

Tasviriy san'atda kompozitsiya asarning fikriy- g'oyaviy mazmunini juda aniq va ishonarli qilib berish zarurligi bilan bog'liqdir. Kompozitsiyaning asosiy maqsadi - badiiy obraz yaratishdan iboratdir. Turli davrlar va turli - tuman

yo`nalishlarda yaratilgan kartinalar o`zining aniq kompozitsion tuzilishiga ko`ra juda yaxshi taassurot qoldiradi.

Haqiqatan ham Ya. Vermeerning "Xat ushlagan qiz", Katta Piter Breygelning "Dehqonlar raqsi", A.A. Ivanovning "Iso Masihning xalqqa ko`rinishi", K.Petrov-Vodkinning "Qirg`oq", V.Surikovning "Boyor xotin Morozova", R.Ahmedovning "Onalik.Tong", A.Abdullayevning "Abror Hidoyatov Otello rovida" kabi kartinalarida biron-bir narsani, masalan, xolst o`lchamini, to`q va och dog`lar munosabatini, figuralar sonini, ufq chizig`i balandligini va hokazolarni, o`zgartirsak kompozitsiyaning yaxlitligi va qismlarining muvozanati buzilib ketadi.

Shunday qilib, kompozitsiyaning tugallangan yaxlitligini aniqlab beruvchi quyidagi sharoitlarni ajratib ko`rsatish mumkin: asarning biror-bir qismi uning yaxlitligiga zarar yetkazmasdan o`rin almashtirishi mumkin emas; biror-bir yangi element yaxlitlikka zarar yetkazmasdan qo`shilishi mumkin emas.

Shuning uchun ham namuna sifatida turli yo`nalishlarda yaratilgan asar olinganligi bejiz emas. Tugallangan asarga o`zgarish kiritish zarurati tug`ilmasa, demak asar kompozitsiyasi juda to`g`ri qurilgan hisoblanadi.

Kompozitsiya turli qismlarni biron-bir fikriy - g`oyaviy mazmunga moslab tuzish, biriktirish va joylashtirishdir. Tasviriy san`atdagi kompozitsiya - bu badiiy asarni uning mazmuni, xarakterli va maqsadiga asosan tuzishdan iboratdir.

"Kompozitsiya" so`zi tasviriy san`atda termin sifatida Uyg`onish davridan boshlab ishlatilib kelinadi.

Asarni tushunish va uni qabul qilish uni kompozitsiyasiga bog`liq bo`ladi. Badiiy faoliyatda asar yaratish jarayonini kompozitsiya tuzish deb atash mumkin.

Kompozitsiya xuddi daraxt tanasiga o`xshab tasviriy shaklning ildizi va shoxlarini organik bog`laydi, uning elemnetlarini bir-biriga bo`ysundirib beradi. Demak, tasvirlash bu qismlar orasida munosabat o`rnatish, ularni bir butun qilib bog`lash va umumlashtirishdir. Shu bilan birga kompozitsiya asarda qo`llanilgan rasm, rang va syujetni birlashtirib, ularning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Shuningdek kompozitsiya tasviri savodxonlikning eng asosiy elementini belgilaydi.

Tasviri san`atda mustaqil ijod aniq bilimlar asosida paydo bo`ladi. Asrlar davomida rassomlar juda ham ta`sirchan bo`lgan kompozitsiya sxemalarini izlashgan. Shu tajribalardan ma`lumki tasvirdagi eng muhim syujetning elementlari tasodifan joylashmaydi, balki o`ylab tuziladi.

Unda oddiy geometrik figuralar (uchburchak, piramida, aylana, aval, kvadrat, to`g`rito`rtburchak) hosil qilinadi.

Bunga misol qilib N.Pussenning "Arkad cho`ponlari" (kvadrat) kartinasini, Leonardo da Vinchining "Qoyadagi Madonna" (piramida), Yan Van Eykning "Kantsler Madonnasi" (to`g`ri to`rtburchak), K.D. Fridrixning "Qoyali Qirg`oq" (aylana), P. Sezanning "Karta o`ynovchilar" (kvadrat), A.Vattoning "Sevgi gammasi" (uchburchaklik), A.Matissning "Raqs" (aval) asarini keltirish mumkin.

Kompozitsiyada harakatsiz, turg`un obrazli berish uchun, yopiq statik kompozitsiya tuzish zarur bo`ladi. Chiziqlar asosan markazga yo`naltiriladi.




Yan Van Eyk. "Kantsler Madonnasi".

Berilgan vazifa simmetriyani hisobga olgan holda aylana, oval, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak shaklida kompozitsiya qurish orqali hal qilinadi.

Agar panorama ko'rinishidagi manzara qurish zarur bo'lsa, uni chekkalarini biron-bir daraxt yoki bino bilan to'ldirish shart emas, yaxshisi uni ramkaning chekkalariga tomon ketuvchi qilib tuzish zarur. Bu ochiq kompozitsiya deb ataladi. Undagi chiziqlar markazdan yo'naladi. Agar uzoqdagi ko'rinib turuvchi ufqning oldidan biron - bir daraxt yoki predmetni joylashtirsak kompozitsiya juda ta'sirchan chiqadi.

Kartinalarda qiziq kompozitsion topilmalar juda ko'p uchraydi. Kompozitsiya faqatgina uchburchak, aylana, oval va boshqa geometrik shakllardan emas, balki bir necha hil shakllar orkali ham berilishi va bir kartinaning o'zida boshqa hil ham kompozitsion sxemani berish mumkin. Masalan, kartinadagi voqealarning birligi kompozitsiyani shartli triptix printsipi asosida qurish imkonini beradi.

Bunday holatda asosiy figura yoki asosiy voqeaning o'ng va chap tomonidan unga bog'lik bo'lgan guruhlar joylashtiriladi. Bunga misol qilib Bottichellining "Veneraning tug'ilishi" asarini keltirish mumkin.



S. Botticelli. "Veneraning tug'ilishi".



Bu kartinaning markazida hozirgina dengizdan tug'ilgan va dengiz chig'anog'ida turgan Venera tasvirlangan, chap tomonda dengiz tomondan unga qarab uchib kelayotgan va gullar ekayotgan Zefir tasvirlangan. O'ng tomonda unga

qarab kelayotgan va simmetrik joylashtirilgan Nimfa tasvirlangan. Qo`lida Veneraning ustini yopish uchun pushtirang yopinchoq ushlab turibdi. Chekkadagi profil figuralar tamoshabinga qarab turgan asosiy obrazga yo`naltirilgan. Dengizdan tug`ilgan sevgi xudosi - kompozitsiyaning asosiy mazmuni hisoblanadi.

Kartina yopiq kompozitsiya uslubida qurilgan. Figuralar bitta frontal tekislikda joylashgan bo`lib, oval shakliga joylashtirilgan.

Murakkab dinamik kompozitsiyalarda harakatning turli shakllari qo`shilib keladi. Bunday holatda figuralar bir-birini to`sib qolmasligi uchun yuqori nuqtadan qarab tasvirlash tavsiya qilinadi.

Tintoretto o`zining "Sirli oqshom" asarini xuddi shu uslubda yaratgan. Lekin bulardan kompozitsion sxemalarga katta e`tibor berish zarur degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Rassom asar yaratar ekan eng avvalo kartinaning mazmun-mohiyatini o`ylab ko`rib obraz yaratishi lozim.

Kompozitsiya vositalari yordamida oralig`ini yillar, asrlar ajratgan voqea va hodisalarni ham bir sathda joylashtirish mumkin. Bu usullardan qadimgi rusda ikonaga rasm soluvchi rassomlar keng foydalanishgan. Masalan, ular uch yarusli kompozitsiyadan foydalanishgan, unda xuddi uch hil kartina ketma-ket joylashganga o`hshaydi, lekin shu bilan birga ular bir yaxlit kompozitsiyani tashkil qiladi. Ularda turli davrlar aks etadi.

Kompozitsiyaning yana bir keng tarqalgan turlaridan biri bu turli davr va turli joylarda bo`lib o`tayotgan voqealarni yaxlit qilib tasvirlashdir. Bunday tasvirlarda asosiy obraz yirik qilib o`rtada joylashtiriladi, kichikrok tasvirlar esa uning chekkalariga joylashtiriladi.

Bunday misollarni kitob grafikasi, xalq amaliy san`ati, ikona rasmlari va san`atning boshqa turlarida uchratish mumkin.

Biz muntazam o`zgarib turuvchi dunyoda ishlayapmiz.

Kartinada vaqtni harakatini berish orqali tasvirlash mumkin. Rangtasvir, freska, miniatyurada harakat syujetning holatiga qarab qabul qilinadi. Inson xarakterli va voqealarning chuqurligi kartinadagi aniq harakatda yorqin namoyon bo`ladi. Hattoki ba`zi rassomlar portret, natyurmort va manzarada ham tasvirni

dinamika bilan to'ldirishga harakat qilishadi. Bunday asarlarga qarab, hozir nima bo'lgani, keyinroq nima bo'lishini tasavvur qilish mumkin. Syujetning dinamikligi qandaydir ob'ektlarning joylashishidagina emas, balki ularning ichki holatini aks ettirishidan ham kelib chiqishi mumkin. Harakat aks etgan kompozitsiya dinamik kompozitsiya deyiladi.

Kompozitsiya har doim rassom oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi. Ular aniq, original va takrorlanmas qilib hal qilishi lozim. Bunday vazifalarni bajarishda albatta qisqa muddatli qalamchizgi va ranglavhalarning o'ri katta. Ular tug'ilajak asar kompazitsiyasiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda kompazitsiya yaratishda talabalarga qalamchizgi va ranglavhalarning o'ri va ahamiyatini tushuntirish, ular ongiga singdirishning zamonaviy yo'llarini izlab topish pedagoglar oldida turgan muhim masalalardan hisoblanadi.

1. Manzara kompazitsiyada chizmatasvirlarning ahamiyati .

Manzara kompazitsiyasini yaratishning dastlabki bosqichi bu mavzuni to'laqonli yoritib bera oladigan, mavzu mazmuniga mos tabiat ko'rinishini tanlashdir. Bu jarayon talabaning o'z xoxshiga ko'ra tanlanishi yoki pedagog yuklagan vazifadan kelib chiqib amalga oshirilishi mumkin. Masalan; "Eski shahar ko'rinishi", "Xiyobondagi ko'cha", "Qishloq manzarasi" v. h.k. Mavzu mazmuniga mos tabiat ko'rinishini tanlash va uni kompazitsiya qonunlariga mosligini aniqlash eng muhim va shuningdek o'ziga xos qiyinchiliklarga ega jarayondir. Kompazitsiyani yaratish turli usullar orqali amalgam oshirish mumkin


- a) bevosita joining o'zidan.
- b) to'plangan materiallar orqali,
- c) tasavvurdan.

Ammo manzara kompazitsiyasi qanday usulda yaratilishidan qat'iy nazar asliga qarab ishlangan tezkor qalamchizgi va ranglavhalarning o'ri katta bo'ladi. Har qanday manzara kompazitsiyasini yaratishda bunday materiallar asos bo'lib xizmat qiladi. Bizning mavzuyimizda asliga qarab ishlangan qalamchizgi va ranglavhalardan manzara kompazitsiyasida foydalanish bo'lganligi uchun, ularning ahamiyatini birma-bir ko'rib chiqamiz. Masalan "Eski shahar ko'rinishi"

mavzusida kompazitsiya yaratishimiz uchun eng avvalo biz mavzuni to'la o'zida aks ettiruvchi tbiat ko'rinishini topishimiz, u yerni chuqur ilmiy asosda kuzatishimiz kerak. Bu jarayon talabadan sohaga oid juda ko'plab bilimlarni tadbiq etishni talab qiladi. Ular ichida dastlabkisi bu kompazitsion yechim jarayonidir. Manzara kompazitsiyasi bu-muallifning ijodiy, badiiy ifodasi mahsuli hisoblanadi. Shunday ekan tasviriy san'atning barcha janrlarida kompazitsiya yaratish yuksak darajada bilim, ko'nikma, malaka, hamda salohiyatni talab etadi. Manzar kompazitsiyasini ishlaganda dastlab qisqa muddatli qalamchizgilarni amalga oshirib ko'rish kerak. Manzara juda keng ko'rinishda bo'lganligi uchun unda juda ko'p predmetlar guruhi joy oladi, ularning birortasi qog'oz sathida to'g'ri yoki chiroyli joylashmasa ular o'rnini natyurmort yoki inter'erdagidek o'zgartirish mumkin emas. Bunday sharoitda narsalarning qulay joylashishi uchun quyidagicha yo'l tutish mumkin. Bunda yaxshisi, alohida obyektlar bir-biriga nisbatan eng muvofiq bog'lanib, jam bo'lib ko'rinadigan nuqtani topish kerak, undagi ayrim narsalarning tasvirdagi rolini aniqlab, qaysi biri asosiy, qaysi biri ikkinchi darajali va fon vazifasini o'tashni aniq belgilash lozim. Kompazitsiya markazi haqida gap ketganda, u kartina teksligining geometrick markazida joylashishi kerakligini bildirmaydi. Bunday joylashtirish xunik bo'lib rasm sathini ikkiga bo'lib qo'yishi mumkin. Odatda kompazitsiya markazi kartina markazidan biroz o'ng yoki chap tomonda joylashadi.




1.





3.



4.



Manzara kompozitsiyasini ishlashda yetuk malakaga ega bo'lish ko'p jihatdan tabiat ko'rinishini, undagi obyektlarni o'ziga qarab tasvirlashga bog'liq. Narasaning o'ziga qarab tasvirlash mahorat maktabini o'tamasdan badiiy rivojlanish pillapoyalaridan yuqoriga chiqish mumkin emas. Bu borada P. P. Chistyakov shunday degan edi; "Avvalo chizilayotgan buyumni sinchiklab kuzatish zarur, so'ngra uni rassom o'ziga bo'ysindirishi kerak". Rassom qanday darajaga erishmasini naraning o'ziga qarab ishlanadigan qalamchizgilarni bajarishdan qochmaslik kerak. Ko'p mashq qilmasdan, unga odatlanmasdan turib tezkor qoramalar bajarish juda qiyin. Boshlanishida yaxshi qoralama qilish uchun avvalo yuzlab qoramalar chizish lozim. bu jarayonga aynan bir vaqtni ajratish

kerak emas, bu ishni har qanday joyda qisqa vaqtlar ichida bajarishga odatlanish lozim.

Doimiy mashq qilish natijasida talabalarda tezlik, aniqlik va ishonch ortib boradi. Manzara kompazitsiyasi ustida qoramalar bajarish uni katta o'lchamda ishlash uchun materiallar to'plash jarayonidir. Keyinchalik bu materiallardan turli kompazitsiyalarda ham foydalanish mumkin. Qoramalar uchun ko'mir tayoqchalardan foydalanish tavsiya qilinmaydi, chunki ko'mir tayoqchalar haddan tashqari qo'pol va yo'g'on hamda titiluvchan bo'lib, grafit qalamlarga nisbatan mustahkamligi ancha past.



Manzara kompazitsiyasini yaratishda xomaki rasmlarni bajarish ham davomli o'quv mashg'ulotini bajarishdagi kabi tasviriy san'atning asoslaridan bo'lgan "Umumiylikdan xususiylikka va xususiylikdan umumiylikka" tasvirlash bosqichlarida amalga oshiriladi. Naturada uning o'ziga xos xususiyatlari bilan qisqagina xomaki rasm chizib olish asosan, tez ko'rish va idrok qila bilish qobiliyatlarini o'stirish uchun mo'ljallangan. Kuzatish, idrok qilish va xomaki rasmlar ijro etishlar ko'p hollarda bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Xomaki rasmlar bajarayotgan talaba shu joyga yoki shu obyektgagina xos bo'lgan xususiyatlarni analiz qiladi. Uning farqli va o'xshash tomonlarini his qilib ilmiy tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Xomaki rasmlar chizishda foydalaniladigan usullarni farqlashning oltita turini belgilab olish imkonini beradi.

1. Naturani kuzatgan holda undan boshidan oxirigacha ijro etilgan xomaki rasmlar.
2. Kombinatsiya usulida (dastlab naturadan kuzatib, keyinchalik naturasiz-xotira bo'yicha) tasvirlanadigan xomaki rasmlar.
3. Faqat xotiradan bajariladigan, ya'ni kuzatishdan keyin biror vaqt o'tgandan so'ng, ongda ko'rish qobiliyati mustahkamlangandan keyin chiziladigan xomaki rasmlar.



4. Insonning avval ongida qabul qilingan ba'zi predmetlar, tirik obyektlar va atrof-borliq haqidagi tasavvurlarni jonlantirish qobiliyati bilan bog'liq tasavvurlar bo'yicha xomaki rasmlar.
5. Kompleks usul bilan, ya'ni yuqorida ko'rsatib o'tilgan hamma ish usullarini, jumladan tasavvur bo'yicha usullarni qo'llagan holda bajariladigan xomaki rasmlar.
6. Hayolga keltirish bo'yicha-biror-bir ijodiy fikr yoki badiiy obraz, mavzu, suyet va xokozo predmet va hodisalar haqida o'z tasavvurlarini jonlantirib tiklash asosida tasvirning umumlashgan xomaki tasvirini chizish.

Manzara kompazitsiyasini ikkinchi usulda ya'ni to'plangan materiallardan foydalangan holda ishlashda qisqa muddatli qalamchizgilarni bajarish va ularni tadbiq qilish metodini quyidagicha amalgam oshirishimiz mumkin. Dastavval mavzu tanlanib, ma'lum bir joyda o'ziga qarab ishlangan qalamchizgilar o'rganilib ularni bir-biriga bog'lagan holda bir nechta variantlarini tayyorlab olishimiz lozim. Misol uchun "Xiyobondagi ko'cha" mavzusida manzara kompazitsiyasini tuzishda undagi obyektlarning alohida tasvirlari yig'iladi va tahlil qilinadi. So'ngra ularni bir-biriga bog'liq holda tasavvur etib bir nechta variantlar tayyorlanadi. Undagi qaysidir obyektning joylashishi yoki ko'rinishi chiroyli bo'lmasa uni boshqa bir shu joyga mos keladigan, shu joy muhitini ochib berishga yordam beradigan obyekt yoki predmet bilan to'ldirishimiz mumkin. Ortiqcha narasalarni olib tashlashimiz yoki yetishmovchi narsalarni qo'shishimiz mumkin. Bunda albatta juda katta bilim va malaka kerak bo'ladi. Chunki, masalan xiyobondagi odamlarni tasvirlashda albatta perspektiva qonunlariga, nisbatlar qonunlariga to'la amal qilishimiz lozim. Aks holda tasvirning haqqoniyligiga erishishimiz mumkin emas. Quyida ana shunday misollardan bir nechitasi ko'rsatilgan.



2. Manzara kompazitsiyasida ranglavhalarning o'rne.

Talabalar ta'limning dastlabki bosqichida, odatda, chizayotgan narsani yuzaki, huddi o'ziday ko'chirishga intiladilar, ular diqqat bilan oldinma ketin narsalarga tikilib qarashadi, so'ngra har bir mayday bo'laklarni va ularning ranglarini alohida-alohida bo'yashadi. Natijada tasvirda bir-butunlikka erisha olmaydilar, tasvir maydalangan holda namoyon bo'ladi. Bunday muammolar manzara ko'rinishidagi asosiy va katta bo'laklarining rang munosabatlarini o'rnatolmasligi natijasida yuzaga keladi. Natura obyektni yaxlit ko'rish va katta asosiy ranglar dog'ini aniqlay bilish muhim kasbiy mahorat, u esa dastlabki rangtasvir ta'limida shakillangan bo'lishi kerak. Faqat shundan so'ngina uzoq muddatli ishlarga, manzara obyektni natyurmordagi buyumlarning hajimli shakillarini puxta ishlov berishga o'tish kerak.



Ochiq havoda kichkina-ranglavhalarni ishlashda avvalo asosiy rang munosabatlarini topa olish muhimdir. Buning uchun naturaning old ko'rinishidagi qarama-qarshi (tusli va rangli) dog'larni uzoqdagiga nisbatan taqqoslash kerak. Kichkina o'lchamdagi ranglavhalarda mayday bo'laklarga iloji boricha e'tibor qaratmasdan asosan, katta rang munosabatlarida yozish kerak. Manzara etyudlarini bajarishda murakkab bo'lmagan suvjetlarni tanlagan samaraliroq (masalan, uy bilan hovlining bir bo'lagi).

Keyinchalik vazifani murakkablashtirib ochiq kenglikdagi manzarani tasvirlashga o'tiladi. Bunday ranglavhalarda havo perspektivasidagi, masalan,

manzaradagi rang, och-to'qlik va to'yinganligini turli ko'rinishdagi hodisalarga asosiy etiborni qaratish lozim. bunga esa manzaraning barcha obyektlarini taqoslash orqali yaxlit idrok qilish bilan erishish mumkin. Manzara etyudlarini ishlashda taqqoslash va munosabatlar bilan bilan ishlaganda naturani yaxlit ko'rish kerak, aks holda naturaning tus va rang munosabatlarini to'g'ri aniqlash va etyudning jozibador ko'rinishiga erishish mumkin emas, ranglavhalar asosiy ishga yordamchi ashyo sifatida ishlanadi. Shunday ekan asosiy manzara kompazitsiyasining yakuniy darajasi tayyorgarlik jarayonining qanchalik to'laqonli o'talganligiga bog'liq. Mavzu yuzasidan bajariladigan qalamchizgilar, kichik o'lchamdagi ranglavhalar, tinimsiz izlanish, mulohaza yuritishgina ishning samaradorligini belgilaydi.

Masalan, old ko'rinishdagi daraxt yoki uylar ikkinchi ko'rinishdagi obyektlar bilan hamda uzoqdagi ko'rinish bilan, shuningdek bir vaqtda osmon va yer bilan taqqoslanishi kerak. Qisqa muddatli ranglavhani ishlash muddati 15-30-60 daqiqa bo'lishi mumkin.

Manzara etyudining muhim afzalligi tabiatning ma'lum holatini, yoritilganligini, havoyi muhit ta'sirini ma'noli yetkazishdir.

Rasm chizish bilan jiddiy shug'illanishni boshlayotgan o'quvchi ishning asosida tabiat-asl borliq (natura) turishini doimo yodda saqlash kerak. Har bir kishi naturada qarab chizar ekan avvaliga korayotgan narsalarning o'zini tasvirlashga harakat qiladi. Keyinchalik ta'surot bo'yicha eslab qolgan muhim dalillar bo'yicha ham kompazitsiyalar yaratish mumkin.

Ma'lumki tabiatda bir-biriga o'xshash yerlar uchramaydi. Har bir ko'rinish o'ziga xos, qaytarilmasdir. Turli obyektlar va narsalarning bir-biriga nisbatan joylashishidagi turli tumanlik sizga shunchalik boy material beradiki uni umr bo'yi o'rganib oxiriga yetib bo'lmaydi. Ba'zan ayrim narsalar orasidagi farq bir qarashda yaqqol ko'zga tashlansa, ayrim hollarda esa ularning farqi juda nozik, sezilarsiz bo'lib bir-biridan ajratib turadigan xususiyatlarni aniqlab, ajratib olish uchun uzoq muddat diqqat bilan kuzatishga, har birini alohida, yakka holda tasvirlashga to'g'ri keladi. Buni ayniqsa endi-endi tabiat manzarasini ishlashga o'rgana boshlagan

talaba yaxshi bilishi kerak. Chunki u tabiatni kuzatishda hali tajribasiz bo'ladi, chizayotgan narsalariga kamroq qaraydi.

Misol uchun, unga parklardagi daraxtlarning barchasi bir-biridan farq qilmaydigandek bo'lib tuyiladi. Natijada manzarada birxillik yuzaga keladi. Yosh rassom tabiatni birinchi bor tasvirlar ekan, ko'rayotgan narsalarni xuddi o'zidek, aniq, ko'chirib olish kerakdek tuyiladi. Ammo u qachonki atrof muhitni diqqat bilan kuzatib, qarshisida shunchalik rang-barang hodisa, narsalar turganini anglagach, ularning hammasini "ipidan-ignasigacha" tasvirlash also mumkin emasligini tushina boradi.

Masalan, bizga bir daraxt ko'rinishini chizish vazifasi berilgan bo'lsa unda qancha bargi borligiga emas, balki tanasining asosiy shoxlari atrofda qanday joylashganligiga, qanday qiyalikda ko'rinishiga va nihoyat daraxt po'stining har bir burmasiga emas, balki uning tanasi sathiga xos xususiyatli belgilariga, shakliga e'tibor berishimiz kerak. O'nlab shoxlardan ayrimlarinigina, eng ko'zga tashlanganini tasvirlashimiz, boshqalarini esa umumlashtirishimiz kerak. Uning hajmli bo'lib ko'rinishiga soya va yorug'ning farqli kuchi orqali erishamiz.



Bunday jarayonlarni to'g'ri va ketma-ketlikda bajarish endi naturadan ishlashni boshlagan talabada bilim va ko'nikmani shakillantiradi.


Rangtasvirad kichik-kichik rangli lavhalar yaratishda har bir rang va tusning o'z yorqinligini va to'q –ochligini nazarada tutish juda muhimdir. Ularni nechig'lik bir-biriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'lasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va toq-ochligini xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlarni ishlashda qo'llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to'qroq gammalarda tasvir obyektlariga mos tarzda, ma'lum nisbatlarda olinishi mumkin. Mo'ljaldagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qisimlari darajasi ham belgilab olinadi. Shunda ishlanagan tasvir yaxlitlik, qiziqarlilik kasb etadi. Etyudlar bajarishda ranglar uyg'unligi, koloritni saqlash asosiy ishning samaradorligini ta'minlaydi.

Ranglavhalar bajarish jarayonining asosiy maqsadi ilk ta'surotni tezkorlik bilan matoga tushirishdir. Chunki ijodkor ko'zi tabiatga tez-tez qarashi natijasida o'sha joy muhitiga moslashib, turli chalkashliklar tug'ilishi mumkin. Shu jarayonda etyudlar ishning muvoffaqiyatli davom etishiga yordamchi material bo'lishi ham mumkin. Manzara ranglavhasini yozishda yaxlitlik, masofa, keyinchalik havo perspektivasi qonunlariga, asosiy va ikkinchi darajali guruh obyektlari xususiyatlariga, kolorit tanlashga alohida ahamiyat berish kerak. Bu jarayondagi o'ziga xos bilim va ko'nikmalarni hosil qilish uzoq vaqt mashq qilish, mashqlarni tahlil qilish, fikr yuritishni talab qiladi.

Umumiy tusdagi qisqa muddatli ranglavhalarni amalga oshirish jarayonini dastavval grizaylda boshlash maqsadag muvofiq. Bu jarayon bor diqqat e'tiborni



faqat tus jihatdan ko'rsatishga yo'naltiradi, tasvirlovchini tus shakillarini sezishga, naturadagi eng och va eng to'qlikni aniqlashga, tus munosabatlarini bu ikki tomonga qutibga bo'ysundirishga o'rgatadi.



Manzara ranglavhasini bo'yoqlarda boshlashdan oldin ishga puxta tayyorgarlik korish lozim: uning kompazitsiyasini yechish, ranglar bilan ishalshga uning qalamchizgisini tayyorlash va etyudni rangda bajarish. Etyud kompazitsiyasida ko'rish nuqtasi tanlanadi, korinishning xomaki tasviri bajariladi, ufq chizig'i, asosiy kenglikdagi joylashishi belgilanadi.

Tayyorlov qalamtasvirida etyudning perspektiv kenglik qatori yaratiladi; nisbatlari to'liq aniqlanadi, narsalarning konstruktiv chegaralari, ularning och-to'q qismlari belgilanadi. Bular asosida ranglavhaning keyinchalik rangli-plastik yechimi shakillanadi. Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, ranglar bilan tasvirlashning so'ngi natijasi mukammal chizilgan qalamtasvir bilan aniqlanadi. Yetarli tajribaga ega bo'lgach homaki ranglavhalarni mo'yqalam bilan bir zumda dastlabki taassurotlarni saqlagan holda ishlash mumkin.

3. Ranglavha va chizmatasvirlardan kompazitsiyada foydalanish metodikasi.

Manzara kompozitsiyasi ham kompazitsiyaning to'rtta qonuniga to'la qonli bo'sunadi, ular quyidagilardan iborat:

- 1.Yaxlitlik qonuni,
- 2.Tipiklashtirish qonuni,
- 3.Qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni,
- 4.Kompozitsiyaning barcha vositalarining fikriy mazmuniga bog'liqligi qonuni.

Manzar kompazitsiyasida qalamchizgi va ranglavhalarda foydalanish jarayonini ham ana shu to'rtta qonunlarga bo'ysungan holda amalga oshirish kerak. Bu qonunlarga ishni boshlashning dastlabki bosqichidayoq bo'sunish, ular talab qilayotgan muammolar hal etilishi kerak.

Yaxlitlik qonuni

Manzar kompozitsiyasining birinchi qonuni asarning yaxlitligi qonuni hisoblanadi. Badiiy asarning qonunan qurilgan yaxlitligini kompozitsiya aniqlab beradi. Kompozitsiyaning barcha unsurlari rassomning mantiqiy o'y-fikrlarini birlashtirgan holda joylashadi. Biz buyumni yoki asarni kuzatar ekanmiz, avvalo

uning umumiy ko`rinishiga e`tibor beramiz va bo`laklarni bir-biriga taqqoslaymiz. Demak, asarning bir butunligi (yaxlitligi) kompozitsiyani tashkil etadigan barcha qismlarining o`zaro bog`liqligidir. Unsurlarning uyg`unligi o`zida kompozitsiyaning xususiyatlarini mujassamlashtiradi.

Yaxlitlik tushunchasi manzar unsurlarining bir-biriga bevosita bo`ysunishi kabi tushunchalar bilan bog`liqdir.

Bu qonun badiiy tasvirning hamma turlarining asosiy qonuni hisoblanadi. Yaxlitlik qonunini qo`llamasdan turib chizish ham, naturadan ishlash ham mumkin emas. Shakl ham, rang ham o`z-o`zicha paydo bo`lmaydi, balki ular butunlik bilan munosabatda, butunning qismi sifatida ko`rinadi.

Kartinada chuqur o`ylanmagan konstruktiv fikr bo`lmasa, bo`laklar xuddi yopishtirib ishlanganday bo`ladi. Bunday holatda biz faqat alohida figuralarning o`zinigina eslab qolamiz. Asarda butunlik bo`lmaydi.

Rassomlar kompozitsiyaning konstruktiv- fikriy tuzilishini topish uchun turli usullardan foydalanishadi.

Ba`zi rassomlar kompozitsiyani tartib bilan o`ylab topadi, ba`zilari esa oldin tasavvuriga nima kelsa o`shani tartibsiz chizib tashlaydi, keyin esa undan yo`l kursatuvchi konstruktiv fikr qidiradi.

Mukammal manzara kompozitsiyasini yaratish rassom uchun murakkab yo`l hisoblanadi. Shuning uchun ham mukammal yaratilgan manzara kompozitsiyasidagi bitta detalni olsak ham uning yaxlitligiga zarar yetadi. Bunday kompozitsiyaning barcha unsurlarining aloqasi aniq va mazmundor bo`lganligidan unga qo`shimchalar kiritib va o`zgartirib bo`lmaydi.


Manzar kompozitsiyasining barcha unsurlarining o`zaro aloqasi faqatgina mantiqan emas, balki uyg`unlik yaratuvchi emotsional estetik sifatlarga ega.

Kompozitsiyaning yaxlitligi, aloqasi va bir-biriga bog`liqligi muammosi kompozitsiya elementlarining takrorlanmasligi, turli-tumanligi vazifasi bilan uzilmas aloqadadir. Manzar kompozitsiyasida hech narsa takrorlanmasligi kerak. Uning kattaligi, dog`i, intervallari, tipi, jesti ya`ni harakat belgisi ham takrorlanmasligi kerak. Ularning hammasi bir butun dog` yoki siluetga birlashishi

o'zbek rassomlari O'rol Tansiqboyev, Zokir Inog'omov, N. Qo'ziboyev, rus rassomlaridan I. Shishkin, I. Levitan va V. Polonov asarlarini olishimiz mumkin. Ko'pgina rassomlar o'zlarining ko'p figurali asarlarini yaratib, ko'p detallarini takrorlanmasligiga erishishgan.



I.Shishkin. "Bug'doyzor"



I.Levitan "Mart"



V. Polenov “Moskvadagi hovli”


Tipiklashtirish qonuni (hayotiylik qonuni)

Manzar kompozitsiyasidagi tipiklashtirish qonuni uchta asosiy belgilari bilan xarakterlanadi.

Birinchi belgi - kompozitsiyadagi berilayotgan voqea va xarakterlarning tipikligi. Bu qonunning asosida xarakter orqali tipikligi berilgan badiiy asar yaratishdir. Bunga misol qilib A.K. Savrasovning "Qora qarg`alar uchib keldi". I.I. Levitanning "Italiya bahori" kabi asarlarini olish mumkin. Bu asarlar juda mazmundor, qiziqarli, go`zal bo`lishi bilan birga, rus tabiatining tipik obrazini ochib beradi.



A.K. Savrasov "Qora qarg'alar uchib keldi"



I.I. Levitan. "Italiya bahori"

Tipiklashtirish qonunining ikkinchi belgisi manzara asarida harakatni berish, vaqtni ko`rsatib bera olishdir.

San`atning tomosha qilinuvchi, sintetik turlaridan (teatr, kinematograf) farqli ravishda tasviriy san`at syujetning rivojlanishidagi faqat bitta momentni. Hodisani o`zgarmas holatda tasvirlab beradi. Shuning uchun ham biz tasviriy san`atda harakatni berish to`g`risida gapirganimizda, harakatni his qilishni nazarda tutamiz.

Manzar asarida harakatni aniq tasvirlash uchun tasvirlanayotgan voqeani kulminatsion nuqtasini topish, ya`ni oldingi harakatning belgilarini va keyingi bo`lajak voqealarni his qilish va tasvirlash lozim. Asarda qonuning bu belgilarini bera olmaslik kompozitsiyaning qotib qolishiga olib keladi. Bunda hattoki dinamik holatda tursa ham harakatni faqat tashqi ko`rinishi tasvirlanadi.

Repinning "Kutmagan edilar" nomli asarida bir necha figura qatnashadi. Bu asarni tomosha qilgan kishi faqat tasvirlangan vaqtni emas, balki surgundan qaytgan kishi kirmasidan oldin ular nima ish qilib va qanday holatda o`tirganini ham tasavvur qila oladi. Uning paydo bo`lishi holati hozirgi holat sifatida his qilinadi. Chunki tasvirdagi boshqa barcha personajlar holatida oldingi harakat izlari saqlanib qolgan. Unda qari ona kresloni surgan holatda o`g`liga intilgani, xotini esa royal chalishdan to`htab, o`girilib qarab turgani tasvirlangan.



I.E. Repin. "Kutmagan edilar"

Keyingi harakatda esa tasvirlanmagan bo'lsa ham quvnoq shovqin-suronni, savol-javobni va quvonch ko'z yoshlarini his qilish mumkin. Bu asarda voqeaning kulminatsion nuqtasi aniq ko'rinib turibdi. Unda vaqt va harakat juda muvaffaqiyatli berilgani uchun ham asar juda hayotiy chiqqan.

Rassom Yu.I. Pimenov o'zining "Yangi Moskva va Kechagi ko'chadagi to'y" nomli asarlarida ham zamonaviy shaharni harakatda bera olish. Uni ko'rgan tomoshabin voqealar xuddi ko'z oldida bo'lib turgandek his qilinadi.

Tipiklashtirish qonuning uchinchi belgisi uning yangiligidir.

Realistik san'at hayotni faqat haqiqiy holatda tasvirlash bilan birga, rassomning oddiy kundalik hayotdan zavqlanishini, uni estetik his qilishni ham ko'rsatib bera oladi.

Tasvirlanayotgan materialni estetik jihatdan o`zlashtirish - san`atning spetsifik xususiyatlaridan biridir. Bu estetik qarashlarsiz u o`ziga-o`zi qarshi chiqadi. Demak badiiy obraz o`zida estetik sifatlarni namoyon qilishi va kompozitsion yechimda yangilik yaratishi zarur. Haqiqatan ham biz Mikelandjelo, Titsian, Rembrandt. A.A.Deyneka, A.A.Plastov, o`zbek rassomlaridan R.Ahmedov, O`.Tansiqboyev asarlarida biz dunyoni juda go`zal holatda ko`ramiz va his qilamiz.



Mikelandjelo. "Muqaddas oila". 1506 y.

Qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni

Manzara kompozitsiyasining yana bir asosiy qonunlaridan biri bu qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonunidir. Qarama-qarshi munosabatlar kompozitsiyaning ta`sirchan kuchini ko`rsatib beradi. Kompozitsiyada qarama-qarshi munosabatlarning ahamiyatini rassomlar qadimdan bilishgan, Leonardo da

Vinchi o`zining "Rangtasvir haqidagi traktatlar" nomli asarida uzunlik kontrasti (uzun va past, semiz va ariq), xarakter, faktura, materiallar kontrasti to`g`risida yozib qoldirgan.

Mikelendjelo o`z asarlarida hajm va yassilik kontrastlariga e`tibor bergan. U o`z asarlarida hajmli figuralarning ko`rinishini ozg`in figuralar yoki yassilik orqali bo`rttirib ko`rsatgan.

Inson o`z atrofidagi predmetlarni eng avvalo ularning siluetiga qarab ajrata olamiz. Bu esa tasviriy san`atda juda katta ahamiyatga ega. Predmetning shaklini inson undagi yorug` va soya kontrastiga qarab qabul qila oladi. Chunki yorug`-soyaning yo`qligi, yassilikni, hajmsizlikni keltirib chiqaradi.

Masalan, portret san`atida rassomlar qadimdan tonlar kontrastidan foydalanishgan.

Ular o`z asarlarida to`q rangli fonda yorqin figurani tasvirlashgan. XIX asrga kelib esa rassomlar portretida yorqin on qo`llay boshlashgan. V.A. Serov "Shaftoli ushlagan qiz", A. A. Plastovlarning "Rodnik" nomli asarlari yorqin fonda yengil siluetda tasvirlangan.



V.A. Serov. "Shaftoli ushlagan qiz"



A. A. Plastov. "Rodnik"

Rangtasvir asari issiq va sovuq ranglar kontrasti asosida quriladi. Rang kuchi uning yoniga qo'yilgan kontrast ranglar (qo'shimcha ranglar) orqali beriladi. Bular qizil-yashil, ko'k-zarg'aldoq - yashil, ko'k-zarg'aldoq, oq qora va hokazo bo'lishi mumkin.

Manzar kompozitsiyasida uzunlik kontrastlari (katta va kichik) va syujet tuzilishidagi kontrastlar (holat, psixologik) katta rol o'ynaydi.

Kompozitsiyada ideyani tasvirlash va syujetni qurilishida psixologik va holat kontrastlarini qo'llanilishi haqida Ye.A. Kibrik shunday deydi: Kompozitsiyaning syujetini kurishda holatlarni qarama-qarshi qo'yish muhim ahamiyatga ega". Masalan, Kir, yirtiq-yamoq kiyimlardagi ishchi bilan yaxshi kiyingan fabrikant ham kontrastni bera oladi.

Shunday qilib manzar kompozitsiyasida kontrastlar universal rol o'ynaydi. Ular kompozitsiyada ideyaning konstruktiv xarakteridan boshlab, syujet qurilishiga katta ta'sir qiladi.

Kompozitsiyadagi barcha qonun va vositalarning uning fikriy g'oyaviy mazmuniga bog'liqligi qonuni.

Bu qonunga asosan rassom yaxlit, ta'sirchan, fikriy-g'oyaviy jihatdan juda mazmundor san'at asari yaratadi. Chunki manzara kompozitsiyasining tuzilishi barcha qismlari va detallari bilan formalistik - o'lik sxemaga emas, balki uning fikriy mazmuniga asoslanishi kerak.

Manzara asari ustida ishlar ekan rassom uning kompozitsiyasi orqali o'zini tasvirlaydi, unga ma'naviy va estetik jihatdan baho beradi. Bu holatlar rassomning eng yuqori fikri va g'oyasi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, rassom o'zining fikri va g'oyasini kompozitsiya orqali bera olsa bu badiiy asarga aylanadi. Aks holda bu ob'ektiv real borliqni fotografik ko'chirish yoki mazmun va mohiyatdan holi bo'lgan tasvirga aylanadi.

Bu qonun hajmlar munosabatini (soni va sifati), rang, yorug`lik, ton va shakl, shuningdek ritm va plastikasini berishi, harakat yoki nisbiy tinchlik holatini, simmetriya va assimmetriyasini hisobga olishni talab qiladi.

U kartina o`lchamiga barcha shakllarning nisbiy o`lchamini, kompozitsiyaning syujet markazini boshqa qismlariga nisbatini aniqlashtirishni talab qiladi. Asarda yaxlitlik taassuroti hosil bo`lishi uchun qismlar va elementlarning o`lchamlari nisbatlarning garmonik uyg`unligini keltirib chiqarishi lozim. Bu vazifalar rassomning fikriy-g`oyaviy mazmuniga mos holda yechilishi zarur. Shunday asarlar qatoriga M.B. Grekovning "Tachanka" asarini kiritishimiz mumkin.

Bu qonuning mazmun va mohiyatidan ko`rinib turibdiki asar yaratuvchi rassom kuchli aqlga, qaynoq yurakka va chuqur fikr bildirishga qodir inson bo`lishi lozim. Shuning uchun ham rassom uchun katta dunyoqarashga ega bo`lishi juda zarur.

Manzara kompozitsiyasining qoidalari, priyomlari va vositalari.

Manzara kompozitsiyasining badiiy ahamiyat va nazariyaning rivojlangan qonun-qoidalari va vositalari mavjud. Quyida manzara yaratish jarayonida musavvirga yordam beruvchi asosiy qoidalari va vositalar haqida kengroq to`xtalib o`tamiz.

Albatta insonning o`zida hech qanday ijodiy qobiliyat yoki qiziqish bo`lmasa uni hech qanday qonun, qoidalar va vositalar bilan to`ldirib bo`lmaydi. Qobiliyatli rassomlar manzara kompozitsion yechimni o`zining hissiyot va sezgisi orqali topadi, lekin bu qobiliyatni rivojlantirish uchun nazariyani ko`proq o`rganib, uni amaliyotda qo`llab ko`proq mehnat qilish lozim.

Manzara kompozitsiyasi yuqorida aytib o`tganimizdek aniq qonunlar asosida quriladi. Uning qoidalari, priyomlari va vositalari esa butun ish jarayonida qo`llaniladi. Ular badiiy asarning yaxlitligi va ta`sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rassomning fikri taassurotini yoritib beruvchi badiiy vositalarning qo`llanilishi va original kompozitsion yechimni topish kompozitsiyaning tasviriy asosi hisoblanadi.

Manzara kompozitsiyasining qoidalarini quyidagilarga ajratish mumkin: harakat (dinamika)ni berish, tinchlik (statika, oltin kesim 1G'3).

Manzara kompozitsiyasining priyomlariga ritm, simmetriya va assimmetriya, muvozanat va syujetli - kompozitsion markazni aniqlash kiradi.

Manzara kompozitsiyasining vositalari quyidagilardan iborat: format, masofa, kompozitsion markaz, ritm, kontrast. Yorug`soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika simmetriya va assimmetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitlik va hokazo. Shunday qilib, kompozitsiya vositalari, bu manzara kompozitsiyasini yaratishda zarur bo`lgan barcha narsalar, shu bilan birga ularning qatoriga manzara kompozitsiyasining qoidalari va priyomlarini ham kiritamiz. Ular turli tuman. Biz bu yerda eng asosiylari to`g`risidagina ma`lumotlarni berdik.

Ritm

Hammaga ma`lumki, ritm - bu tabiatning universal xususiyatidir. Masalan, kun va tun, yil fasllari siklik ravishda o`zgarib turadi, hayvonlar, o`simliklar va materiallarning rivojlanish jarayoni aniq ketma-ketlikka ega. Lekin hayot va san`atdagi ritm bir hil emas. San`atda ritm va ritmlik aksentlarda uzilish, notenglik, noaniqlik bo`lishi mumkin.

Musiqadagi kabi tasviriy san`atda ham ritmlar faol, uzuk-yuluq, tekis, xotirjam, sekinlashgan ritmga ajratiladi.

Ritm - bu qandaydir elementlarni ma`lum bir ketma-ketlikda joylashishidir.

Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san`atda ritm kompozitsiyaning muhim tasviriy vositasi sifatida qatnashadi. U faqat tasvirni ko`rishdagina qatnashib qolmay, balki asarga aniq emotsionallik bahsh etadi.

Ritm chiziqlar, dog`lar, yorug`lik va soya, rang orqali berilishi mumkin. Manzara kompozitsiyasining bir-hil elementlar takrorlanib keladi, masalan odamlar qomati, ularning qo`li yoki oyog`i va hokazo.

Natijada ritm hajmlar kontrasti asosida quriladi.

Ritm tekislikda harakatni bera oluvchi vositalardan biridir. Nimaga ritm harakatni ko`rsata oladi?

Bu bizning ko`ruv organizmining xususiyati bilan bog`liq. Bizning nigohimiz bitta tasviriy elementdan o`ziga o`xshash boshqa elementga tushar ekan, o`zi ham harakatda qatnashadi. Masalan. Biz suv to`lqiniga qarar ekanmiz, nigohimiz bitta to`lqindan ikkinchisiga o`tadi va ularning harakati illyuziyasi hosil bo`ladi.

Tasviriy san`at musiqa va adabiyotdan farqli ravishda fazoviy san`at guruhiga kiradi, vaqt va masofada harakatning rivojlanishi uning asosi hisoblanadi. Tabiiyki biz harakatni tekislikda berish haqida gapirganda, albatta uning illyuziyasini ko`zda tutamiz. Rassomlar kartinada ob`ektlar harakati illyuziyasini yaratish, uning xarakteri to`g`risida juda ko`p vosita va priyomlarni bilishadi.

Quyida biz ulardan bir nechtasini ko`rib chiqamiz.

Harakatni bilish qoidasi. Quyidagi sharoitlarda manzara ob`ektlar kartinada xuddi harakatlanayotgandek ko`rinadi:

- Agar kartinada harakat yo`nalishi bo`yicha bitta yoki bir nechta diagonal chiziqlardan foydalanilsa;
- Agar harakatlanayotgan ob`ekt oldida bo`sh masofa qoldirsak;
- Agar harakatni xarakterni juda aniq ochib beruvchi kerakli kulminatsiya tanlansa.

Bundan tashqari harakatni faqat bir momentini emas, balki uning harakatlarini bosqichma-bosqich bersak ham tasvir harakatlanayotganga o`hshab ko`rinadi. Masalan, qadimgi Misr releflarida har bir figura aniq bir holatda qotib qolgan, lekin kompozitsiyani aylana holatida tomosha qilsak harakat ketma-ketligini ko`rishimiz mumkin. Bunda tasvir harakatlanayotganga o`hshab ko`rinadi.

Asarni yaxlit holda tomosha qilsakgina harakatni sezishimiz mumkin, harakatning bo`lak momentlarida u sezilmaydi. Harakatlanayotgan ob`ektning oldidagi ochiq masofa harakatni fikran davom ettirish imkoniyati tugdiradi. Aks holda ob`ekt qogoz sathining chekkalariga juda yaqin qilib tasvirlansa, xuddi harakat to`htab qolgandek tuyuladi.

Shuningdek harakatni rasmdagi chiziqlarning yo`nalishi orqali ham berish mumkin. Masalan, barcha chiziqlar qog`oz sathining chuqurligiga yo`nalgan. Bunda qahramonni eng kuchga to`lgan vaqtini tasvirlasak harakatning

ta'sirchanligi ortadi. Shu bilan birga harakat hissini ob'ektning silliq bo'yalgan foni noaniq konturlari ham berishi mumkin. Fondagi qo'llagan vertikal va gorizontal chiziqlar harakatni to'htatib qo'yadi. Harakat yo'nalishini o'zgarishi esa harakatni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi.

Statikani berish qoidasi

Quyidagi sharoitlarda kompozitsiya statik hisoblanadi.

- Agar kartinada diagonal yo'nalishlar yo'q bo'lsa;
- Agar ob'ektlar tinch (statik) pozada tasvirlangan bo'lsa, harakatning kulminatsiyasi bo'lmaydi;
- Agar kompozitsiya simmetrik, muvozanatda yoki oddiy geometrik sxemalar (uchburchak, aylana, oval, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak) asosida qurilgan bo'lsa.

Tinchlik hissi san'atning asarida yoki boshqa sharoitlarda paydo bo'lishi mumkin. Masalan, K.Korovinning "Qishda" kartinasida diagonal yo'nalishlarning ko'pligiga qaramay, changi qo'shilgan ot tinch turibdi, undagi harakat quyidagi sabablarga ko'ra sezilmaydi: kartinaning kompozitsion va geometrik markazi bir-biriga mos, kompozitsiya muvozanatda va otning oldidagi ochiq sathda daraxt tasvirlangan.

Kompozitsiyada oltin kesim qoidasi

Kompozitsiyadan markazni ko'rsatish uchun tasvirning muhim elementi oltin kesim nisbatiga to'g'ri keladigan holda ya'ni $1G'3$ nisbatda joylashtiriladi. Agarda uyg'unlikka erishish uchun tasvirlanayotgan ob'ektlarning nisbiy munosabatlari oltin kesim qoidasi asosida qurilishi lozim.

Ikkita va undan ko'proq kompozitsion markazlar berilgan kartinalar orqali bir hil vaqtda bo'lib o'tayotgan bir necha voqealarni ko'rsatish mumkin.

Asardagi asosiy voqeani ochib berish uchun bir necha vositalardan ham foydalanish mumkin. Masalan, "Izolyatsiya" priyomidan asosiy tasvirni boshqa predmetlardan ajratib tasvirlashlar asosiy o'lcham va rangni ajratib tasvirlash qo'llaniladi.

Eng asosiysi kartinadagi syujetli kompozitsion markazda asarning asosiy mazmun va goyasini berish muhim hisoblanadi.

Kompozitsiyada simmetriya va assimmetriya

Turli davr rassomlari kartinani simmetrik qurish uslubidan foydalanganlar. Qadimgi mozaikalar kompozitsiyasi simmetrik qilib qurilgan. Uyg`onish davri rangtasvirchilari ham o`z kompozitsiyalarini simmetriya qonuni asosida qurishgan. Bunday qurish tinchlik, ulug`vorlik, turg`unlik, tantanavorlik taassurotini berishda yordam beradi. Simmetrik kompozitsiyada odamlar va predmetlar kartinaning markaziy o`qiga nisbatan bir-biriga yonma-yon qo`yib joylashtiriladi.

San`atdagi simmetriya hayotdagi simmetrik shakllarni ko`rsatuvchi real voqealikka asoslanadi. Masalan, inson qomati, kapalak, qor shakli simmetrik qurilgan. Simmetrik kompozitsiyalar statik (turg`un) bo`lib, chap va o`ng tomonlar bir hil og`irlikda bo`ladi.

Assimmetrik kompozitsiyada esa ob`ektlar asarning syujeti va mavzusiga qarab turli - tuman bo`lishi va chap va o`ng tomonlari esa muvozanatda bo`lmaydi.

Manzara kompozitsiyasida muvozanatni berish

Simmetrik manzara kompozitsiyasining barcha qismlari bir hil muvozanatda, assimmetrik manzara kompozitsiyasi muvozanatda va muvozanatsiz bo`lishi mumkin.

Manzara kompozitsiyasida katta yorqin dog`, kichik to`q rangli dog` bilan muvozanatda bo`ladi.

Manzara kompozitsiyasining muvozanat og`irligi, toni va rangiga ko`ra beriladi. Muvozanat figuralarning o`ziga va ular orasidagi masofalarga ham tegishli bo`ladi.

Maxsus mashqlar manzara kompozitsiyasida muvozanatni sezish hissini rivojlantiradi. Katta va kichik o`lchamlarni, yorqinlik va to`qlikni, turli-tuman siluetlar va rang dog`larini muvozanatga keltirishni o`rganish juda muhim. Shu yerda halinchak uchganda muvozanatni topish tajribasini eslash juda foydali bo`ladi. Unda halinchakni bir tomoniga kattaroq bolani o`tirg`izib, narigi tomoniga

ikkita kichkina bolani qo'yib muvozanatni saqlash mumkin. Kompozitsiyadagi og'irlik bilan ham xuddi shunday eksperiment o'tkazish mumkin.

Bunday tenglashtirish kartinaning turli qismlarini o'lchamlari, toni va rangiga ko'ra muvozanatga keltirishga yordam beradi. Bu esa kompozitsiyada muvozanat va uyg'unlikka erishishga yordam beradi.

Assimmetrik manzara kompozitsiyasida fikriy-hayoliy markaz kartinaning chekkasiga yaqin bo'lsa muvozanat umuman bo'lmaydi. Agar kartinaning oynadagi aksiga qarasak taassurotimiz umuman o'zgarib ketadi. Bu xususiyatni kompozitsiyada muvozanatni izlash jarayonida e'tiborga olish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati.

- 1. N.N. Rostovsev, S.YE. Ignatyev, YE.V. Shoroxov. "Risunok. Jivopis. Kompozitsiya" Moskva prosvesheniye-1989.**
- 2. S.M.Daniel. "Kartina klassicheskoy epoxi" iskusstvo. Leningradskoye otdeleniye 1986.**
- 3. S.M. Daniel. "Iskusstvo videt" Iskustvo Leningradskoye otd. 1990.**
- 4. Shkola izobrazitelnogo iskusstva 3-vipusk. Moskva. Izobrazitelnoye iskusstvo-1989.**
- 5. YE.V. Shoroxov "Osnovi kompozitsii" Izdatelstvo "Prosvesheniye", 1979 g.**
- 6. N.M.Sokolnikova "Izobrazitelnoye iskusstvo i metodika yego prepodavaniye v nachalnoy shkole".Moskva"ACADEMIA" 1999 g.**
- 7. Yablonskiy V.A. "Oborudovaniye kabineta risovaniya i osnovi kompozitsii" M: 1983.**
- 8. S. Abdurasilov, N.Tolipov, N.Oripova. "Rangtasvir" Toshkent. "O'zbekiston", 2006.**

9. Internet malumotlari. www.arxiv.uz

Amaliy mashg'ulot ishlanmasi

Mavzu: “Ranglavha, chizmatasvirlardan (aslidan qarab ishlangan xom-ashyolar) kompazitsiyada foydalanish”

Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi.

Ajratilgan soat-7

O'quv mashg'ulotining shakli.

Amaliy mashg'ulot rejasi.

Talabalar soni-18

amaliy.

1. Manzara kompazitsiyasi hqaida fikr yuritish.
2. Manzara kompazitsiyasining qalamtasvirini qurish.
3. Manzara kompazitsiyasining rangda ishlash, rang munosabatlarini qurish.
4. Manzara rangtasvirini detallashtirish.
5. Manzara kompazitsiyasini umumlashtirish.

O'quv faoliyatining maqsadi: Talabalarga mashg'ulot mazmunini tushuntirish. Talabalarga qalamchizgi va ranglavhalardan manzra kompazitsiyasida foydalanish jarayonlari haqida nazariy va amaly bilimlar berish. Amaliy mashg'ulotning bajarilish bosqichlari haqida zaruriy ko'rsatmalr berish. Talabalarning fanga va mavzuga qiziqishini oshirish, ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, fikirlash doirasini shakillantirish.

Pedagogik vazifalar:

O'qituvchi:

- Berilgan topshiriqning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish, talabalar faolligini oshirish.
- Talabalarda amaliy mashg'ulotga nisbatan qiziqishni rivojlantirish, bir mashg'ulot jarayonida baracha talabalarni baholshga erishish.
- Talabalar tomonidan amaliy

O'quv faoliyatining natijalari:

Talaba:

- Manzara kompazitsiyasi va uning vujudga kelishi, rivojlanishiga oid bilimlarga ega bo'ladi.
- Mavzu maqsadi va uning vazifalari haqida ma'lumotlar oladi.
- Manzara kompazitsiyasini bosqichli ishlashda qalamchizgi va ranglavhalarning o'rni, ularni qo'llash

mashg'ulotni bajarish, uni bosqichma-bosqich ishlash jarayonini amalgam o'rganadi.

oshirish, mavzuga oid savollar berish va fikr mulohazalarni erkin bayon qilishga o'rgatish.

-Qisqa vaqt ichida berilgan ma'lumotlarning mazmunini tahlil qila oladi va fikr mulohazalarini bildiradi.

O'qitish uslubi va texnikasi:

Vizual maruza, amaliy isha bajarish, O'quv uslubiy kompleks, o'quv qo'llanma, videoproektor, kerakli kitoblar, ko'rgazmali tarqatma materiallar.

O'qitish vositalari:

O'qitish shakli:

Jamoa, guruh, juftlikda va individual ishlash

O'qitish shart sharoitlari:

Barcha o'quv materiallari bilan jihozlangan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi.

Bosqichlar**Faoliyat mazmuni.**

vaqti	O'qituvchi.	Talaba.
1-bosqich. Kirish. (20 min)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotdan kutilayotgan natijalar bayon qilinadi.	1.1.Eshitadi, ko'radi va yozib oladi.
2-bosqich Asosiy qism (60 min)	2.1. Talabalarining e'tiborini mavzuga jalb etish va bilim darajasini aniqlash uchun "Aqliy hujum" metodidan foydalanadi va, "Kichik guruhlarda ishlash" metodi orqali qisqa muddatli amaliy topshiriqlar beriladi. -Manzara kompazitsiyasi haqida nimalarni bilasiz? -Manzara kompazitsiyasida asliga qarab ishlangan qisqa muddatli qalamchizgi va ranglavhalarning o'rni qanday? -Tarqatma materiallar asosida bir necha manzara kompazitsasini quring. V. h. k. 2.2. O'qituvchi visual materallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Hamda mavzu asosida tayorlangan electron materiallardan foydalanagn holda mavzuni kengroq yoritadi. -Mazara kompazitsasining paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi, uni yaratishda qalamchizgi va ranglavhalarning o'rni haqida bilimlar beradi. -Ranglavha va qalamchizgilardan foydalanish jarayonida kompazitsiya	2.1. Eshitadi, kuzatadi, o'qituvchi tomonidan berilgan amaliy va nazariy topshiriqlarga javob beradi, yozib boradi. 2.2. Manzara kompazitsiyasi va uni yaratish bosqichlari haqida bilimlarga ega bo'ladi. Manzara kompazitsiyasini ishlashda qalamchizgi va ranglavhalarning o'rni va vazifasi haqidagi bilimlarga ega bo'ladi. Topshiriqni bajarishdagi birinchi bosqich vazifalari bilan tanishadi. O'qituvchi tomonidan mavzuga oid tashkil turli pedagogik o'yinlar, qiziqarli testlar va boshqalarda qatnashadi. 2.3. Eslab qoladi.

qonunlariga amal qilishning metodik Mavzuga oid tushuncha bosqichlari haqida ma'lumot beradi. va atamalarning -Mashg'ulotning birinchi bosqichini ma'nosini tahlil qiladi, amalgam oshirish borasida ko'rsatmalr yozib boradi.

beradi.

2.3. Talabalarga mvzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qaratishni va kompazitsiya faniga oid atamalarni yozib borishini takidlaydi

- | | | |
|-----------|---|-----------------------------|
| 3-bosqich | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar | Yo'l qo'yilgan xato va |
| Yakuniy | e'tiborini asosiy masalaga qaratadi. | kamchiliklarni bilib oladi. |
| qism. | 3.2. 1-bosqichda ishlanagan amaliy | Ularni tuzatish yo'llari |
| (10 min) | mashg'ulotda talabalar tomonidan yo'l haqida bilimlarga ega | |
| | qo'yilgan xato va kamchiliklar bo'ladi. | |
| | ko'rsatiladi, tahlil qilinadi va tuzatishga | Berilgan uyga vazifani |
| | oid ko'rsatmalr beriladi. Talabalar yozib oladi. | |
| | baholanadi. | |
| | 3.4. Uyga vazifa beriladi. | |

I bosqich. 1.1. Mavzuning asosiy maqsadi asliga qarab ishlangan turli qalamchizgi va ranglavhalardan kompazitsiya jarayonida to'g'ri va maqsadli foydalanishdan iborat. Bu orqali talabalarga qalamchizgi va ranglavhalardan manzra kompazitsiyasida foydalanish jarayonlari haqida nazariy va amaly bilimlar berish. Amaliy mashg'ulotning bajarilish bosqichlari haqida zaruriy ko'rsatmalr berish. Talabalarining fanga va mavzuga qiziqishini oshirish, ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, fikirlash doirasini shakillantirish. Bu jarayonni amalga oshirishda albatta tanlangan manzara mavzusiga mos, mavzuni to'la qonli yoritib bera oladigan tabiat ko'rinishini tanlash lozim bo'ladi. Bu jarayonda ularga tegishli ko'rsatmalar berish. Asosiy ishni amalga oshirishda turli materiallarni o'rganish, tahlil qilish va ularni kompazitsiyaga tadbiq qilishga oid bilimlar bilan

talabalarni qurollantirish. To'planagan materiallarni manzara kompazitsiyasiga tadbiq qilishda kompazitsiyaning asosiy qonunlari, usul va vositalariga doir bilimlarni to'g'ri qo'llash mavzuning maqsadlarini amalga oshirishning muhim sifatlaridan biri bo'lib xizmat qilishini talabalar ongiga singdirish.

Mashg'ulotdan kutilayotgan natijalar.

- a) talaba mavzuga oid nazariya bilimlar bilan tanishadi.
- b) talabalar qalamchizgi va ranglavhalarning kompazitsiya yaratishda o'rni va ahamiyatini chuqur anglab oladi.
- c) turli didaktik o'yinlar orqali qisqa muddatli qalamchizgi va ranglavhalarni tahlil qilish va ular ustida mulohazalar yuritish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
- d) fan va mavzuga oid nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq qilish prinsipi bilan tanishadi.
- e) Mashg'ulotni bajarish jarayonida uning bosqichlari va har bir bosqichning maqsadi bilan yanada chuqurroq tanishib boradi.
- f) Fan va mavzuga oid yangi tushuncha va atamalrning mazmunini anglab boradi.
- g) Mashg'ulot jarayonida yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
- h) Berilgan mustaqil ish jarayonini samarali bajarishga oid barcha bilimlarga ega bo'ladi.

II bosqich. 2.1. Talabalarning asosiy e'tiborini mavzuga jalb etishning asosiy metodlaridan biri bu "Aqliy hujum" metodi hisoblanadi. Bu jarayonda talabalarning barchasi ishtirok etishga harakat qiladi. O'quvchilarning mavzuga oid dastlabki bilimlarini tekshirib ko'rishda bu metodning imkoniyatlari katta bo'ldi.

Talabalarning mavzuga oid dastlabki bilimlarini tekshirib ko'rish uchun beriladigan savollar.

1. Manzara kompazitsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
2. O'zbek va jahon manzarachi rassomlar, ularning ijodi haqida nimalarni bilasiz?

3. Kompazitsiya- termini qachon paydo bo'lgan?
4. Kompazitsiyada suvjetlar, elementlar qanday figuralar asosida joylashgan bo'lishi mumkin?
5. Manzara kompazitsiyasi kompazitsiyaning qanday asosiy qonunlariga bo'sunadi?
6. Manzara kompazitsiyasida qanday qoida va uslublar mavjud?
7. Manzara kompazitsiyasida asliga qarab ishlangan qisqa muddatli qalamchizgi va ranglavhalarning o'rni qanday?

Manzara kompazitsiyasini qurish bo'yicha ko'rgazmali test.

Qaysi manzara kompazitsiyasi tuzilishi jihatidan nomuvofiq joylashgan?

A.



B.







C.



“**Kichik guruhlarda ishlash**” metodini amalgam oshirish uchun talabalar 4-5 kishidan iborat guruhchalarga bo’linadi va quyidagi “**Manzara kompazitsiyasini qur**” didaktik o’yini o’tkaziladi. Guruhlarga tarqatiladigan tarqatma materiallar.

1 variant.






2 variant.



1.




2.



3.


4.




5.




6.



3 variant.







Yuqoridagi tarqatma materiallr variantlari kichik guruhlarga tarqatiladi. Ushbu tarqatma materiallar asosida talabalarga manzara kompazitsasining xomaki tasvirini qurush topshiriladi. Talabalar ushbu tarqatma materiallar asosida mnzara kompazitsasining to'g'ri yechilgan variantini qurishga harakat qiladilar. Bu jarayonni amalga oshirishda ulardan kompazitsianing asosiy qonunlariga bo'ysinish talab etiladi. Manzara elementlaridan tashkil topgan tarqatma materiallarni talabalar o'rganib tahlil qilish natijasida, ulardan to'g'ri kompazitsion yechimga ega manzara kompzitsiasini qurishga harakat qiladialr. Manzara elementlarining alohida-alohida ishlangan nusxalaridan talabalar bir-birining fikriga quloq slogan holda manzara kompazitsisining bir nechta homaki tasvirlarini quradilar. Vazifani bajarish vaqti 5-6 minut qilib belgilanadi. Vazifa oxirida eng to'g'ri yechimga ega tarqatma materuiallar asosida tuzilgan manzara kompazitsiasining xomaki varianti pedagog tomonidan aniqlanadi.

Bu interaktiv metodni qo'llashdan maqsad;

- O'qitish mazmunin yaxshi o'zlashtirilishiga erishish.
- Muloqatga kirishish ko'nikmasini shakillantirish.
- Vaqtni tejash.
- O'z-o'zini va guruhlararo baholash ko'nikmasini shakillantirish.
- Talabalarning mavzuga oid bilimlarini aniqlash.

Vizual materiallar

Manzara kompozitsiyasining qoidalari, priyomlari va vositalarini amalda tadbiq etish yo'llari.

Manzara kompozitsiyasining badiiy ahamiyat va nazariyaning rivojlangan qonun-qoidalari va vositalari mavjud. Quyida manzara yaratish jarayonida musavvirga yordam beruvchi asosiy qoidalari va vositalar haqida kengroq to'xtalib o'tamiz.

Albatta insonning o'zida hech qanday ijodiy qobiliyat yoki qiziqish bo'lmasa uni hech qanday qonun, qoidalar va vositalar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Qobiliyatli rassomlar manzara kompozitsion yechimni o'zining hissiyot va sezgisi orqali topadi, lekin bu qobiliyatni rivojlantirish uchun nazariyani ko'proq o'rganib, uni amaliyotda qo'llab ko'proq mehnat qilish lozim.

Manzara kompozitsiyasi yuqorida aytib o'tganimizdek aniq qonunlar asosida quriladi. Uning qoidalari, priyomlari va vositalari esa butun ish jarayonida qo'llaniladi. Ular badiiy asarning yaxlitligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rassomning fikri taassurotini yoritib beruvchi badiiy vositalarning qo'llanilishi va original kompozitsion yechimni topish kompozitsiyaning tasviriyl asosi hisoblanadi.

Manzara kompozitsiyasining qoidalarini quyidagilarga ajratish mumkin: harakat (dinamika)ni berish, tinchlik (statika, oltin kesim 1G'3).

Manzara kompozitsiyasining priyomlariga ritm, simmetriya va assimmetriya, muvozanat va syujetli - kompozitsion markazni aniqlash kiradi.

Manzara kompozitsiyasining vositalari quyidagilardan iborat: format, masofa, kompozitsion markaz, ritm, kontrast. Yorug'-soya, rang, dekorativlik, dinamika va

statika simmetriya va assimetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitlik va hokazo. Shunday qilib, kompozitsiya vositalari, bu manzara kompozitsiyasini yaratishda zarur bo'lgan barcha narsalar, shu bilan birga ularning qatoriga manzara kompozitsiyasining qoidalari va priyomlarini ham kiritamiz. Ular turli tuman. Biz bu yerda eng asosiylari to'g'risidagina ma'lumotlarni berdik.

Ritm

Hammaga ma'lumki, ritm - bu tabiatning universal xususiyatidir. Masalan, kun va tun, yil fasllari siklik ravishda o'zgarib turadi, hayvonlar, o'simliklar va materiallarning rivojlanish jarayoni aniq ketma-ketlikka ega. Lekin hayot va san'atdagi ritm bir hil emas. San'atda ritm va ritmlik aksentlarda uzilish, notenglik, noaniqlik bo'lishi mumkin.

Ritm - bu qandaydir elementlarni ma'lum bir ketma-ketlikda joylashishidir.

Ritm chiziqlar, dog'lar, yorug'lik va soya, rang orqali berilishi mumkin.

Natijada ritm hajmlar kontrasti asosida quriladi.

Ritm tekislikda harakatni bera oluvchi vositalardan biridir. Nimaga ritm harakatni ko'rsata oladi?

Bu bizning ko'ruv organizmining xususiyati bilan bog'liq. Bizning nigohimiz bitta tasviriy elementdan o'ziga o'xshash boshqa elementga tushar ekan, o'zi ham harakatda qatnashadi.

Masalan. Biz suv to'lqiniga qarar ekanmiz, nigohimiz bitta to'lqindan ikkinchisiga o'tadi va ularning harakati illyuziyasi hosil bo'ladi.

Bunga misol sifatida Ayvazovskiyning “To’qqizinchi val” asarini misol qilib olishimiz mumkin. Unda to’lqinlarning bir birini takrorlab kelishi ritmni hosil qiladi va kuzatuvchiga kartinadagi harakatni ko’rsatadi. Agar asarda biz bittagina to’lqinni alohida qaraydigan bo’lsak unda harakatni sezishimiz qiyin bo’ladi. Kartinani yaxlit qabul qilganimizda esa asosiy plandagi to’lqinlar va keyingi planlardagi to’lqinlar bir butunlikni hosil qiladi va kuzatuvchiga ayovsiz dengiz to’lqinlarining harakatini ochib beradi.





Harakatni bilish qoidasi. Quyidagi sharoitlarda manzara ob`ektlar kartinada xuddi harakatlanayotgandek ko`rinadi:

Agar kartinada harakat yo`nalishi bo`yicha bitta yoki bir nechta diogonal chiziqlardan foydalanilsa;

Bunga biz misol sifatida R. Xudoyberganovning “Daryo boylab” asarini misol qilishimiz mumkin. Asar kompazitsiyasini qurishda tabiatning o`ziga xos manzarasi tanlangan. Kompazitsiyadagi ritmni ko`rsatishda yaqin va uzoqdagi tog`lar, ularning o`ziga xos tuzilishi, takrorlanib kelishi va ranglar yechimi muhim ro`l o`ynaydi. Asardagi harakatning asosiy yo`nalishni ko`rsatib turuvchi daryo qir`g`oqlari va unga paralell tog` va adirlar qiyaliklari kuzatuvchini daryo bo`ylab sayrga chorlaydi. Asarda harakat yo`nalishi bo`yicha bir nechta dioganallardan foydalanilishi uning ta`sirchanligini yanada oshirgan.



R. Xudoyberganov “Daryo boylab”



Agar harakatlanayotgan ob`ekt oldida bo`sh masofa qoldirsak;

G. Perovning. “Uchlik” asarini kuzat ar ekanmiz unda harakatning qanday usuldan foydalanib amalga oshirilganligini anglashimiz qiyin emas. Asar kompazitsion yechimi juda mohirlik bilan o’ylab topilgan. Undagi harakat uchlik ning oldida bo’sh joy qoldirish orqali ko’rsatilgan. Shuningdek asardagi harakatni yanada ta’sirliroq ko’rsatish uchun turli harakat yo’nalishiga mos diogonal chiziqlardan ham foydalangan. Asar qahramonlari juda og’ir harakatlanmoqda. Buni ularning plastikasidan bilishimiz mumkin. Asarada harakatni ko’rsatish uchun albatta harakatlanayotgan predmetlar oldida bo’sh masofa qoldirish kerak aks holda harakatni ko’rsatishda qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin.



G.Perov. “Uchlik”

- **Agar harakatni xarakterni juda aniq ochib beruvchi kerakli kulminatsiya tanlansa.**

Bu jarayonni asarda qo’llash ijodkordan o’ta kuchli bilim va tasavvurni talab qiladi. Bu usulni V.Surikovning "Boyor xotin Morozova" kompazitsiyasida kuzatishimiz mumkin. Ijodkor asarda harakatni yuzaga keltiruvchi barcha vositalardan juda ustalik bilan foydalangan. Harakat kulminatsiyasi chana oldida

yugurib ketayotgan bola. Kompazitsiyaning puxta o'ylanganligi, qahramonlarning diogonal bo'yicha o'ng va chap tomonda joylashtirilishi, harakatdagi predmet oldida bo'sh masofa qoldirilganligi va asarga yugurib ketayotgan bolaning kiritilishi tufayli Surikov chananing qalin qor ustida g'izillab borayotganligini tasvirlashga muvofiq bo'lgan.



V.Surikovning "Boyor xotin Morozova"



Harakat yo'nalishi.



Shuningdek harakatni rasmdagi chiziqlarning yo`nalishi orqali ham berish mumkin. Masalan, barcha chiziqlar qog`oz sathining chuqurligiga yo`nalgan. Shu bilan birga harakat hissini ob`ektning silliq bo`yalgan foni noaniq konturlari ham berishi mumkin. Fondagi qo`llagan vertikal va gorizontal chiziqlar harakatni to`htatib qo`yadi. Harakat yo`nalishini o`zgarishi esa harakatni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi.



B.Tojiyev.



UMUMIY XULOSALAR

Oliy pedagogik ta'limda talabalarga manzara kompozitsiyasini tasvirlashga o'rgatish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, o'tkazilgan tajriba sinov ishlari yuzasidan quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va o'rta umuta'lim maktablari o'quvchilariga tasviriy san'at asoslarini o'rgatish oliy ta'limda kasbiy shakllangan etuk tasviriy san'at o'qituvchilari zimmasiga tushadi.

2. Yurtboshimiz Islom Karimovning "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak" degan so'zlari oliy pedagogik ta'lim jarayoni oldiga pedagogik kadrlarni tayyorlashni tubdan yaxshilash vazifasini qo'yadi.

3. Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi tasviriy san'at turkumidagi barcha fanlar, xususan ixtisoslik fanlar blokiga kirgan akademik qalamtasvir asoslari va kompozitsiya, dasgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozitsiya fanlarining nazariy asoslarini, amaliy jihatlarini mukammal o'rgatish va uni o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amalda tadbqiq qilish mazkur kasb egalarini kasbiy va pedagogik faoliyatga puxta tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Tadqiqot ishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni joriy etish jarayonida uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish muammolarini tadqiq etish" yo'nalishi Davlat dasturi doirasida bajarildi va quyidagi masalalarga keng e'tibor qaratildi

- oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni va qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitilish holatini o'rganildi.

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqildi.

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitishning samarali shakl va vositalarini shakllantirildi.

- qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning ko'rsatkich va mezonlarini ishlab chiqildi.

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitish metodikasi bo'yicha metodik ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotda sinab ko'rildi.

- oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqilsa;

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitishning samarali shakl va vositalarini ishlab chiqilsa va uni amaliyotga joriy qilinsa;

- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarini o'qitish metodikasi bo'yicha metodik ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq qilindi. - qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari rivojlantirildi va yoshlarni manzara ishlashga o'rgatish bo'yicha metodik tavsiyanomalari ishlab chiqildi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash va manzara kompozitsiyasini ishlash o'rgatish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, u alohida tadqiq etilishi kerak bo'lgan soha hisoblanadi. Yuqoridagilarda xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida manzara kompozitsiyasini asliga qarab ishlashda tasviriy san'atga bog'liq barcha jarayonlar muhimdir. To'planagan qalamchizgi va ranglavha va boshqa materiallarni manzara kompozitsiyasiga tadbiq qilishda uning baracha qonun qoidalariga rioya qilish lozim. Buning uchun tasviriy san'atdan nafaqat amaliy ko'nikmalar balki, nazariy bilimlar ham muhimdir

Mavzuga oid tushuncha va atamalarining izohli lug'ati.

Akademizim-(academisme so'zidan olingan) XIX-XIX asr badiiy akademiyalarda vujudga kelgan va mumtoz san'atining tashqi shakillariga qat'iy ergashishga asoslangan yo'nalish. Akademizim badiiy ta'limotni tizimga solib, mumtoz an'analarni mustahkamlashga yordam beradi.

Badiiylik-Borliqni inson va uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarini o'zoro o'xshatish, shakillantirish va rang-barang tasvirlash.

Galeriya-Tasviriy va amaliy san'at asarlar saqlanadigan va ko'rgazmalar o'tkaziladigan mahsus bino.

Grafika-(yunoncha-graphika, grapho-yozaman, chizaman so'zidan olingan). O'zida chizmatasvir va bosma uslubda ishlangan asarlarni mujassam etgan tasviriy san'at ko'rinishi.

Dastgohli san'at –Tasviriy san'atning bir turi. Bo'lajak san'at asarlari maxsus dastgohlarga o'rnatilib ishlash usuli.

Dizayn –Maishiy turmushda ishlatiladigan jihozlar, uy asbop –anjomlari va shunga o'xshash narsalarga chiroyli shakil beradigan rangni yaratish san'ati.

Janr-san'at asari turi. Ba'zida hayot lovhalarini tasvirlovchi asar deb ham ataladi.

Ikona –(yunon eiko–tasvir qiyofa) xristiyon dinida Iso payg'ambar, Bibi Mariyam, avliyolar, muqaddas yozuv sahnalarining tasvirlanishi.

Ilyustiratsiya – (lot aniq tasvir degan) biror matinni teksni to'ldirib boruvchi yoritishni, mazmunni tushuntirishda yordam beruvchi tasvir. Badiiy va ilmiy asarlarning tasviriy izohi, talqini.

Impressionizm-(Impression-ta'ssurot xayot so'zidan alingan) XIX asrning 70-yillarida Fransiya tasviriy san'atida paydo bo'lgan oqimga mansub, Mone, Pikasso, Renuar kabi rassomlar tabiat va hayotdan olgan tasavvurlarini ifoda etib, shu yo'nalishga asos solganlar.

Klassik san'at-Mumtoz san'at.

Lessirofka- Sayqallash, pardozlash uchun tayyorlangan qoplam.

Mastixin- po'latdan yasalgan kurakcha yoki pichoqcha shaklidagi ingichka plastina, rangtasvir vositalaridan biri.

Modernizm-(fr. Modernisme –zamonaviy so'zidan olingan) .XX asr san'atidagi badiiy oqimlarning umumiy nomlanishi.

Natura-Rassom tasvirlaydigan borliqdagi ob'ekt; inson, narsalar, manzara v.h. k.

Panarama – 180gradusda yoysimon doira ko'rinishida ishlangan rangtasvir. Muhim tarixiy voqealar, jang manzaralarni ifodalaydi.

Plener – (t. Plein ochiq havo). Kartinada quyosh yorug'ligi, atrofdagi muhitning tasiri bilan bog'liq bo'lgan ranglar turlanishini anglatadigan termik ochiq hvoda ishlash.

Rakurs-(it roccourci). Tasvirlanayotgan narsalarning perspektif qisqarishi.

Realizm-(lot reflexus-orqaga qaytarilgan,aks etgan). Refleks tevarak atrofning ta'sirida ulardan tushayotgan yorug'lik aksi natijasida hosil bo'ladi.

Refleks –(iot. Reflexus –orqaga qaytarilgan, aks etgan.). Refleks tevarak atrofning ta'siri, ulardan tushayotgan yorug'lik aksi natijasida hosil bo'ladi.

San'at-arabcha atama bo'lib, hodisalarni badiiy obrozli tarzda aks ettiruvchi ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi . U tasviriy amaliy san'at, memorchilik musiqa,teatr, kino, badiiy adabiyot, televdeniyani o'z ichiga oladi.

Tripitix-(yunoncha triptychos-ustalik,uch marta tahlangan ma'noni anglatadi). Bir mavzuga bog'liq bo'lgan uch qismdan iborat san'at asari.

Faktura-Rassom ishlaydigan matiralning tashqi ko'rinishi,sathi, uning yumshoq, qattiq, yaltiroqligi.

Formalizm- Asarning mzmuniga nisbaton shakliga badiiy va tasviriy bositalarga etibor berish.

Qurish, joylashtirish	Shakl, hajm nisbatlarini to'g'ri topish	Soya-yorug', tus munosabalarini to'g'ri topish	Manzaranin g umumiy rang yechimini to'g'ri topish.	Umumlashtiris h, yaxlitlash, yakunlash ishlari	Jami ball
4 ball	4 ball	4 ball	4 ball	4 ball	20ball

Manzara ishlash mashg'ulotlarining nazariy bilimlarini o'qitishga oid

Tavsiyalar.

Manzara kompozitsiyasining asosiy qonunlarini o'qitishga oid tavsiyalar.

Tasviriy san'atda kompozitsiya qonunlari asarning fikriy- g'oyaviy mazmunini juda aniq va ishonarli qilib tomoshabinga yetkazishda muhim hisoblanadi. Kompozitsiyaning asosiy maqsadi - badiiy obraz yaratishdan iboratdir. Turli davrlar va turli - tuman yo'nalishlarda yaratilgan kartinalarda rassomlar kompozitsiya qonunlaridan umumli foydalanilganligini ko'rishimiz mumkin.

Manzara kompozitsiyasi ham kompozitsiyaning to'rtta qonuniga to'la qonli bo'sunadi, ular quyidagilardan iborat:

- 1.Yaxlitlik qonuni,
- 2.Tipiklashtirish qonuni,
- 3.Qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni,

4.Kompozitsiyaning barcha vositalarining fikriy mazmuniga bog'liqligi qonunlari bo'lib bu bilimlarni nazariy jihatdan mukammal o'zlashtirmay turib amaliyotda samarali natijaga erishish qiyin.

Tasviriy san'at fanlarini o'qitish jarayoniga ham yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish bo'yicha bugungi kunda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo shunday bo'lishiga qaramasdan mashg'ulotlar jarayonida o'qitishning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga oid tavsiya va qo'llanmalar yetishmasligini kuzatishimiz mumkin.

Shuning uchun biz manzara kompozitsiyasining asosiy qonunlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga oid tavsiyalar ishlab chiqdik.

Shunday ekan talabalarning mavzu yuzasidan bilim va malakalarini oshirishda bu qonunlarning maqsadi va vazifasi pedagog tomonidan turli yangi pedagogik metodlar yordamida yoritilib berilishi yaxshi samara beradi.

1. Dastlab talabalarning mavzu yuzasidan mavjud bilimlar darajasini aniqlash uchun "Aqliy hujum" metodidan foydalangan samaraliroq. Bu jarayonda talabalarning barchasi ishtirok etishga harakat qiladi. Talabalarning mavzuga oid dastlabki bilimlarini tekshirib ko'rishda bu metodning imkoniyatlari katta bo'ldi.

“Aqliy hujum” metodining mohiyati o‘z-o‘zidan ma’lumki bunda talabalar aqliga hujum qilinib ulardan kompazitsiyaning asosiy qonunlari haqida axborot to‘plashimiz mumkin. Mashg‘ulotda “Aqliy hujum”dan foydalanish metodi quyidagicha bo‘lishi mumkin.

a) Guruhga mavzu yuzasidan savollar tashlanadi.

Manzara kompazitsiyasi bo‘yicha beriladigan savollar quyidagich bo‘lishi mumkin:

1. Manzara kompazitsiyasi haqida nimalarni bilasi?
 2. Manzara kompazitsiyasining asosiy qonunlarini sanab bering?
 3. Manzara kompazitsiyasi qonunlari mohiyati nimadan iborat.
 4. Ularning o‘zaro bir-biriga bog‘liqligi nimadan iborat.
 5. Manzara kompazitsiyasida bu qonunlarni qo‘llashdan maqsad nimadan iborat.
- b) Bu savollar talabalarga navbatma-navbat beriladi, talabalar bir-birining fikriga qo‘shimcha kiritadi.
- c) Har bir savolga berilgan javoblar o‘qituvchi tomonidan nazarga olinadi.
- d) Savollarga berilgan javoblar umumiy tarzda pedagog tomonidan tahlil qilinadi va xulosalar chiqariladi.

Bu metod orqali talabalarning mavzuga oid dastlabki bilimlari o‘rganiladi. Talabalarning mavzuga oid nazariy bilimlari darajasini aniqlash darsning keyingi bosqichlarida pedagog nimalarga alohida e’tibor berish kerakligini nazarda tutadi.


Mashg‘ulotning asosiy qismini yoritish uchun turli o‘qitish vositalari va materiallaridan foydalanish samara beradi. Ular kompyuter, proektor, doska, turli mavzuga oid ko‘rgazmali reproduksiya bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy taraqqiyot, globallashuv inson ongiga ko‘plab yangicha hayot tarzi, qonun-qoidalarini olib kelmoqda. Ko‘plab ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki bugungi kun talabalarini manzara ishlash muammolari bilan tanishtirishda multimediyali o‘qitishning ahamiyati ortib bormoqda.

Manzara kompozitsiyasining qonunlariga oid bilimlarni yoritishga o'tshdan avval mavzuning asosiy hal qilinadigan masalalari doskaga yozib qo'yiadi. Shuningdek muammoli vaziyatlarda "musbat" va "manfiy" tomonlarni yoqlovchi talabalar guruhini tuzish lozim. Bu jarayonda muammoli fikrlarningning ikkala tomonini mos ravishda himoya qiluvchi guruhlarining o'z fikrlarini doskaga yozish imkoniyati tug'iladi. Buni quyidagi alohida ikkita plakat ko'rinishida ham tashkil qilishimiz mumkin.

Mavzuning asosiy masalalari.

1. Manzara kompozitsiyasi haqida...
2. Asosiy qonunlar; yaxlitlik qonuni,
tipiklashtirish qonuni,
qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni,
kompozitsiyaning barcha vositalarining fikriy mazmuniga bog'liqligi qonuni.
2. Asosiy qonunlarning o'rni va ahamiyati.
3. Manzara kompozitsiyasi asosiy qonunlarining bir-biriga bog'liqligi.



Multimediya prezentatsiya o'z tarkibiga animatsiya, audio va videofragmentlarni jamlagan elektron diafilmlar, interaktiv elementlar namoyish etilayotgan materiallar taqdimotining eng keng tarqalgan turidir. Biz ham tajriba-sinov ishlarida pedagogik texnologiyaning ushbu turidan kengroq foydalanish va yanada takomillashtirishni maqsad qildik. Bu maqsad albatta ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi deb o'ylaymiz.